

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**


NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari”
Kafedrasi**

Abuyev. H. O.

ISLOM DINI ASOSLARI VA MA'NAVIYATI
fanidan ma'ruzalar matni

**(“Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari”
yo'nalishi ushun mo'ljallangan.)**



NAVOIY-2007

Muallif: o'qituvchi. Abuyev. H. O.

Taqrizchilar: S. I. Inoyatov. Tarix fanlari doktori, professor.
R. R. Rajabov. Falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Mas'ul muharrir: o'qituvchi. A. O'tapov.

Ma'ruzalar matni kafedra yig'ilishida muhokama qilinib, o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan. (2007 yil 18 aprel kafedraning № 16 - yig'ilishida muhokama qilindi.)

Kirish

Ushbu ma'ruzalar matni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida, "Milliy istiqlool g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari" mutaxassisligi (5141500) tayyorlash dasturiga asoslanib tayyorlandi.

Ma'ruzalar matning maqsadi – oily o'quv yurtlarini tugallagan mutaxassislar din va dunyoviy davlat masalalarida ilg'or g'oyalar bilan ongi boyigan, o'z qat'iy fikriga ega bo'lgan xodimlarni yetishtirishdir.

Islom dini tarixi, ta'limoti, ma'naviyati, falsafasini erkin o'rganish va tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan vakun sayin ortib bormoqda. Zero dinimiz, ma'naviyatimiz ildizlari bir va aniq bo'lishiga qaramay, muqaddas dinimizga xos bo'lgan ta'limotni o'z foydasini ko'zlab talqin qiluvchi guruhlar ko'payib bormoqda.

Lekin bu hol Islom tarixida yangilik emas. Chunki, aynan islomiy qarashlar to'qlini turli-tuman bo'lganligi sababli, janobi Rasululloh vafotlaridan so'ng Islomda 72 firqa va mazhablar vujudga kelgan.

Mazkur ma'ruza matnida assay e'tiborni "Ahli sunna val- jamoa" e'tiqodi asoslariga hamda dunyoviy davlat va diniy e'tiqod masalalariga qaratishga harakat qilindi.

Ayniqsa huquqshunoslar insonlarning diniy va milliy tuyg'ularini his etish va hurmatlay bilish salohiyatiga ega bo'lishlari juda muhimdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda ma'ruza matni tayyorlandi va talabalar ongida ezgulik tuyg'ularini vujudga keltirish va davr talabiga har taraflama tayyor kadrlar bo'lib yetishishlariga e'tibor berildi.

Talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar. Talabalar o'qitiladigan ma'ruzaning qisqa mazmunini islom dinini o'rganishda ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilish kabi tushuncholardan xabardor bo'lishlari kerak. Shuningdek islom dinining his tuyg'ulariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, shariat qonunlari haqida tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Islom dinida oila va bola tarbiyasi, islomda muomala madaniyati, insonparvarlik, kamtarlik, vatanparvarlik tuyg'ularining qanday aks etganligini bilishlari lozim. Islom dinini o'rganish jarayonida diniy manbalar, muqaddas kitoblar asosida bilimlarni chuqurlashtirgan bo'lishlari kerak.

Islom dini asoslari va ma'naviyati kursi dinshunoslik, falsafa, ma'naviyat asoslari, antropologiya, O'zbekiston tarixi, etika va boshqa fanlar bilan bo'liq holda o'rganiladi.

1. Mavzu: Islom dinining jahondagi o'rni

Reja:

1. Islom diniga dunyo xalqlarining e'tiqodi.
2. Jahon dinlari va Islom dini

Islom dini nasorolik va buddiy din bilan bir qatorda dunyoda eng ko'p tarqalgan dinlardan biridir. Hozir yer yuzida musulmonlar, bir milliard 400 million kishidan iborat. Islom dini tarafdorlari jahon aholisining 20 % ga yaqin qismini tashkil etadi. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziyada (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eronda (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Darvoqe, arablar barcha musulmonlarning 20 % ni tashkil etadilar. Nasorolar esa ikki miliard 200 mln. Demak, Islom dunyoda ikkinchi o'rinda turadigan yirik dindir. Jahonning 172 mamlakatida musulmonlar. Xorijiy Osiyo mamlakatlarida 150 mln. musulmon bo'lib, bu er yuzidagi musulmonlarning 67,7% ni tashkil etadi. Shulardan 26,8 % Garbiy Osiyoda, 46,3 % Janubiy-Osiyoda, 27,2 % Janubiy-Garbiy Osiyoda, 2,7 % Sharqiy Osiyoda yashaydi. Musulmonlarning eng ko'pi Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladeshda yashaydi. Musulmonlar Yevropa davlatlari, Amerika qit'asida, Yaponiyada, Avstraliya va Fiji orollarida ham yashaydi. Dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida Islom davlat dini deb qabul qilingan. 1880 yilda dunyo alosining 13,7 foizi musulmonlar edi 20-asrning 80-yillariga kelib bu ko'rsatkich 16,9 foizga, mingyillikning oxiriga esa, taxminan, 21 foizga yetdi. Boshqa dinlarga mansub aholining o'sish darajasi barqarorligicha tutibdi ba ajablanarlisi shundaki, 1970 yildan boshlab dunyodagi dahriylar miqdoribir oz kamaya boshladi¹. Bu raqamlar muhim ahamiyatga ega. Bir asr davomida dunyo musulmonlarining soni keskin oshib ketdi. Ko'pchilikning Islom diniga o'tgani ham bunga sabab bo'ldi, biroq eng asosiy sabab – tabiiy o'sishdir. Boz ustiga musulmon dunyosidagi bunday demografik portlash bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni relgusida ham o'sib borishini ko'rsatadi. “Tamaddunlar to'qnashuvi” nomli mashhur risolasida dunyoda xristianlarning soni kamayib borayotgani va 2025-yilga borib, ular dunyo aholisining, taxminan, 25 foizini tashkil etishi haqidagi ma'lumotni keltirgan. O'sha vaqtga borib musulmonlarning soni dunyo aholisining 30 foizini tashkil etar ekan².

Shu o'rinda Hantington tilga olgan yana bir misolga e'tibor qilaylik. Mag'ribda 1965 yildan 1990 yilgacha aholi soni 29,8 milliondan 59 millionga o'sgan. O'sha vaqt mobaynida Misr aholisi 29,4 milliondan 54,4 millionga ko'paygan. O'rta Osiyoda 1970 – 1993 yillar oralig'ida aholining yillik o'sishi Tojikistonda 2,9 foiz, O'zbekistonda 2,6 foiz, Turkmanistonda 2,5 foiz va Qirg'izistonda 1,9 foiz bo'lgan. XX asrning 70-yillarida Sovet Ittifoqida demografik muvozanat keskin o'zgarib ketdi, yani ruslarning o'sishi 6,5 foiz, musulmonlarniki esa 24 foiz bo'lgan. Hatto

¹ Timoti J. Uinter. (Abdulkhakim Murod). XXI asrda Islom. Postmodern dunyoda qiblani topish. “Sharq” T.-2005. 13-bet.

² Shu joydan.

Rossiyaning o'zida ham musulmonlar (tatarlar, boshqirdlar, chuvashlar shuningdek, O'rta Osiyo va Kavkazdan borib u yerda yashovchilar) ancha ko'zga tashlanib qolgan, ular Moskva va Sankt-Peterburg aholisining 10 foizini tashkil etadi.

Bu hol bizga musulmonlar ko'pchilikni tashkil qiladigan joylarda aholi sonining o'sishi musulmonlar kam yashaydigan hududlarga ham tasir etishini eslatib turadi. Tanzaniya va Makedoniya singari mamlakatlarda musulmonlar 20 yil ichida ko'pchilikni tashkil etadigan bo'ladi. AQShning musulmon aholisi 1972-1990 yillarda asosan ko'chib kelish evaziga olti marta ko'paygan. Hatto ko'chib kelishga yo'l berilmayotgan mamlakatlarda ham o'sish davom etmoqda. 1999-yili Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda dunyoga kelgan chaqaloqlarning 7 foizi musulmonlar bo'lgan. Bryusselda bu raqam 57 foizni tashkil etadi. 1992-yilda Rimdagi eng mashhur ism Muhammad bo'lgan. Islom deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida (xristianlikdan so'ng) ikkinchi o'rinda turadigan dinga aylangan. Bundan aholisining ko'pchiligi musulmonlar tashkil etadigan Ozarbayjon va Albaniya mustasno. Mabodo mavjud tamoyillar davom etadigan bo'lsa, 2020 yilga borib barcha Yevropa mamlakatlarini aholisining 10 foizini musulmonlar tashkil etadigan bo'ladi.

Musulmonlar soni keskin o'sishining muhim jihati ham bor. Biroq BMT 1994 yilgi aholi konferensiyasini o'tkazish uchun dunyodagi eng katta musulmon shahar Qohirani faqat shuning uchungina tanlamagan edi. Miqdorning hozir ham ishonchlilik jihati bor. Biroq aholining ruhiy-dinamik xususiyati miqdordan ko'ra muhimroq ahamiyatga ega. Keksa aholi passiv va introspeksiya – o'zini-o'zi kuzatishga, yoshlar esa serg'ayrat va milliy-siyosiy qat'iyatlilikni qo'llab quvatlashga moyil bo'ladi. Demak Islom diniga e'tiqod bo'yicha aholi sonini ko'payishi bilan birga ularning ma'naviy dunyo qarashlari yuksak bo'lishi talab etiladi. Ushbu fanning asosiy oldiga qo'ygan maqsadi ham inson ma'naviy qiyofasini Islom dini asoslari va ma'naviyati asosida shakllantirishga qaratiladi.

Islom so'zi arabcha «Allohga o'zini taslim qilish, topshirish, itoat etish, bo'ysunish, hamda «Islom dini» ma'nolarini bildiradi. Shuning uchun bu dinga ishonuvchilarni arabchada «muslim» (ko'pligi-«muslimum»), Eronliklarda – «musolmon», o'zbeklarda – «musulmon», qirgiz va qozoqlarda – «musurmon» kabi nomlar bilan atalib kelinmoqda. Kishi: «La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh» («allohdan boshqa ma'bud yo'q, Muhammad uning payg'ambaridir» iborasini aytgandagina musulmon sanaladi).

Islom faqat diniy ta'limot emas, u ma'lum hayot tarzi, hayotiy qonun qoida nafaqat musulmonlar, balki dinga befarq qaraydigan kishilar hayotiga ham singib ketgan diniy urf – odatlar majmuasidir. Odamlar ular haqiqatdan Islom qonun – qoidalariga to'la rioya qilganlari uchun musulmon deb atalmaydi, balki ular islom tarqalgan davlatlarda tug'ilib o'sganlari, o'sha mamlakatlarning madaniy va tarixiy o'tmishi Islom bilan bog'langanligi, oilaviy va ijtimoiy hayotda yuz berayotgan ko'plab voqealar Islom dini qonun – qoidalari asosida olib borilishi tufayli musulmon deb ataladi.

Shunday buyuk dinning asosiy xalqi qoloq, badaviy, butparast bo'lgan Markaziy va Shimoliy Arabistonda vujudga kelishi har bir musulmon, hatto, musulmon bo'lmagan

kishi uchun ham aql bovar qilmaydigan bir mo'jizadir. Janubiy Arabistondagi Yaman davlati dengiz va quruqlikdagi savdo – sotiq ishlarida rivojlangan, Qizil dengiz va Hind okeani bo'ylab o'tadigan kemalar to'xtaydigan. Suriya va Misrdan karvon yo'llari kelib taqaladigan markaz, suv inshootlari rivojlangan, Yakka hokimlik hukm surgan mamlakat edi. Shunga qaramasdan, Islom Janubiy Arabistonda emas, Markaziy, G'arbiy va Shimoliy Arabistonda vujudga keldi.

Ko'chmanchi arablar saholarda chodir qurib, shaharliklar faqat savdo – sotiq va haj qiluvchilardan tushgan daromadlar bilan yashaganlar.

Yarimorolning o'troq xalqlari orasida qabilachilik tuzimi saqlanib qolgandi. Qabilalar mustaqil bo'lib, ba'zan qo'shilib ittifoq bo'lishar, ba'zan tezda ajralib ketishardi. “Arab” so'zini “sahroyi” yoki “ko'chmanchi” deb tushinish mumkin. Tuyakash – badaviy (sahrolik) arablar turmush tarzi juda ibtidoiy bo'lib, ular Arab yarimorolida taxminan eramizdan oldingi XI asrda paydo bo'lganlar. Shuning uchun bu yer Arab Yarimoroli deyiladi.

Sahrodan faqat tuya orqali o'tish mumkin bo'lgan. O'n olti asr davomida mahalliy badaviylar yarimorolda o'zlarining hech qanday yirik davlatlarini tuzmadilar. Yarimorol chegarasida paydo bo'lgan Nobotiy davlati, Polmira shahar davlati badaviylar tomonidan asoslanmagan. IV – V asrlarda rumlar (vizantiyaliklar), eronliklar va yamanliklar asos solgan yana 3 ta davlat bulgan: 1) G'assoniylar, III asrda Janubiy Yamonda tashkil topib Huron, Iordaniyaning sharqi, Finikiya, Livan va Falatsinni o'z ichiga olgan, poytaxti Xira shahri bo'lgan, rumliklarga xizmat qilgan; 2) lohiylar (602 yilgacha) ichki arabistonda vujudga kelgan; 3) kindiylar davlati, poytaxti Hazramovt shahri bo'lgan. Arab qabilalari juda ko'p mablag'larni o'zaro urushlarga sarflaganlar. Bu ularni nihoyatda kuchsizlantirib qo'ygan va Islom g'oyasi tez tarqalishiga imkon tug'dirgan edi. Badaviy arablarning moddiy ahvoli nochor bo'lgan. Ular tabiat injiqliklariga qarshi kurashishda ojiz bo'lganlar. Ko'plab chorva hayvonlariga ega bo'lsalar ham, turmush tarzi bu hayvonlarni uzoq ushlashga imkon bermagan. Ba'zi kuchli qabilalar o'z yerlaridan o'tgan savdogarlardan boj olib ham turganlar, ba'zi badaviylar esa rum (Vizantiya) va Eronga muxojir bo'lib ketib, ularning qo'shinida yollanib askarlik qilib yashaganlar. Badaviylarga yashashning eng yaxshi yo'llaridan biri o'trok dehqonlarni talash yoki boshqa ko'chmanchilarga hujum qilish bo'lgan. Bu holda chorva mollari qo'ldan – qo'lga o'tib tursa ham qabilalar boyligi ko'paymagan. Buning ustiga tabiat ofatlari ham bo'lib turgan.

Adabiyotlarda yozilishicha, eramizning 1 ming yilligida Arab yarimorolida yog'ingarchilik asta sekin ko'payib borgan. Bundan tashqari, sahroda yashovchilar hokimiyati kuchsizlanib qolgan, madaniy taraqqiy etgan joylarga kirib borish bilan ham o'z moddiy ahvolini yaxshilashlari mumkin edi. Boshqacha aytganda, aholi hayotida iqlim sharoiti va moddiy sabablarga qaraganda siyosiy sabablar katta rol o'ynagan. Masalan, Janubiy Yamonda mashhur Marg'ib tug'oni 450 - yili vayron bo'ldi, Janubiy Yaman podsholigi atrofdagi qabilalarni taklif etib, uni tuzatdi. 542 yili to'gon yana vayron bo'ladi, mahalliy boylar tomonidan yana tiklandi. 570 yildagi to'gondan mamlakatga juda katta zarar yetdi. IV asr oxirida badaviylar qaytadan yarimorol janubida katta maydonni bosib olishi aholining ko'pchilik qismini kuchmanchilik hayotiga qaytishga olib keldi. Arab Yarimorolining g'arbida Qizil dengiz sohillari bo'ylab tuzilgan Hijoz viloyati bu davrda iqtisodiy jihatdan bir

munchga rivojlangan edi. Bu yerdan o'tayotgan karvon yo'li IV asr o'rtalarida janubda Yaman orqali Habashiston va Hindistonni, shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eronni bog'lagan edi. Hijozning eng yirik qadimiy shahri Makka yirik savdo-sotiq va diniy marosimlar markaziga aylandi. 500 yil oxiriga kelib, bu shaharni qurayshiylar bosib olib uning yaqinida yashaydigan Kinona qabilasi bilan shartnoma tuzadi. Shimoldan Janubga qarab ketib Qizil dengizni Eron bilan bog'laydigan yirik savdo yo'li tutashtirildi. Jazirama issiq, tog'u toshlar bilan o'ralgan hosilsiz vodiya joylashgan Makka avvallari bitta Zamzam bulog'i tufayligina yashardi. Keyinchalik bu buloq muqaddas suvga aylantirildi. Makka Ptolomey tomonidan tilga olingan qadimiy shahar. Shaharni qurayshiy urug'laridan bo'lgan zodogonlar boshqargan. Shahar Habashistondan yollab keltirilgan habashlar tomonidan mudofaa qilingan. Keyinchalik ularga qo'shni qabilalardan yollanganlar ham qo'shilgan. Makkaning ko'pchilik aholisini qurayshiy bo'lmagan arablar, boshqa yurtliklar, qullar tashkil etgan. Makkaga yoz va qish fasillarida katta karvonlar yuborilib turishi haqida rivoyat Qur'on quraysh surasida tilga olingan. Karvon savdosi siyosiy tartib o'rnatish, ma'lum yirik namoyondalarni yetishib chiqishiga olib keldi. Savdo-soqik asosan mol ayriboshlash orqali bo'lsa ham Makkada Vizantiya va Eron tangalari ham muomalada yurardi. Chet el savdogarlarining ko'plab kirib kelishi Makka xalqining dunyoqarashini o'zgartirdi. Chetdan turli diniy tushunchalar kirib keldi. Makka hokim tabaqalarining birdamligi, betarafligi tufayli tashqaridan bo'ladigan hujum va ichki o'zaro ixtiloflardan xoli edi. Undan 450 km Shimolda joylashgan Yasrib (Madinada) esa IV asr oxirlarida qabilalararo qon to'kish kuchaygan edi.

Shunday qilib savdo markazi sifatida va atrofdagi qabilalarga ta'siri jihatidan Makkaning boshqa shaharlarga nisbatan mavqei katta edi. Makkada Kaba ibodatxonasi mavjud bo'lib, undagi qoratosh va 300 dan ortiq qabila xudolarining butlari tufayli bu shahar atrofidagi juda ko'p qabilalar xalqlari uchun muqaddas shahar hisoblanardi.

O'sha davrda kuchli davlatlar bo'lgan Vizantiya bilan Eron o'rtasida Yamanni qo'lga kiritish va karvon yo'llarini o'z qo'lga olish uchun kurash ketdi. Yaman sosonilar hukumronligiga o'tgan davrlarda (572-628) fors ko'rfazi orqali Hindistonga boradigan savdo yo'li rivojlana boshladi va hijoz orqali o'tgan savdo yo'li inqirozga uchradi. Bu holat Hijoz shaharlari va arab qabilalari hayotiga ma'lum ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy-iqtisodiy tangliklarni boshlanishiga sabab bo'ldi. Makka va boshqa shaharlarda sinfiy qarashlar qarshiliklar keskinlashdi. Makka zodagonlari o'z hokimiyatini mustahkamlash va iqtisodiy tanglikdan qutulish yo'llarini qidira boshladi.

Ma'lumki Yahudiylik dini (iudaizm) mil.avv. I mingyillik boshlarida Falastin (Quddus)da vujudga kelgan. Arabiston yarimorolida ko'chib yurgan Yahudiy qabilalari mil.avv XIII asrda Falastinni bosib olib, Yahudiy davlatini tuzganlar. Yahudiylik ana shu qabilalarining diniy urf odati va Falastin xalqlarining ayrim e'tiqodlarini o'zida mujassamlashtirgan dindir. Keyinchalik bu din dunyoning bir qancha davlatlariga tarqalib hozirgacha yashab kelmoqda.

Nosoro (Xristian) dini birinchi asrning ikkinchi yarmida Rim imperiyasining sharqiy qismida yashovchi Yahudiylar o'rtasida paydo bo'lgan va birinchi o'n yillikdayoq boshqa etnik guruhlar orasida tarqalgan. Nosoro (Xristian)likning tez yoyilishiga

sabab u qullarning, umuman ezilgan ommaning mavjud tartib va quldorlik tuzumiga qarshi noroziligini ifodalangan. Nosoro dinining shakllanishida Yahudiylikning ko'p g'oyalari, qadimgi Sharq dinlariga xos ayrim tasavvurlar xususan, sadaqa berib gunohdan xolis bo'lish, ilohiy xaloskorlik haqidagi tasavvurlar asos bo'lgan.

Bu din Arab Yarimoroli xalqlari orasida ham keng tarqalgan edi. Yahudiylik Yaman arablari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib Yahudiylikka e'tiqod qiluvchi qabilalar Markaziy va G'arbiy arabistonning ayrim vohalarida ham bor edi.

Nosoro dini esa, asosan, Arab Yarimorolining shimoliy qismida Suriya, Falastin, al-Jazira (mesopotamiya)da yashaydigan arab qabilalarining ayrimlari o'rtasida tarqalgan edi.

Shunday qilib, Yahudiy va Nosoro dinlari ularning ayrim mazhab va oqimlari Islomdan oldin arab qabilalari orasida tarqalgan va yetarli mavqeiga ega bo'lgan. Yahudiylik va Nosorolikning ancha ta'siriga qaramay, u ko'p xudoga ishonishda arab madaniyatning shimoliy tomonlariga ta'sir ko'rsata olmagan edi. Arab qabilalarini birlashtirish, yagona davlat tuzish uchun ko'pxudolikni, sanamlariga siginishni tugatish va yakka xudolik e'tikodi lozim edi. Islomdan oldin xanifalar (yakka xudoga ibodat qilishni targ'ib qiluvchi) paydo bo'lib, har xil qabila xudolariga, but sanamlariga emas, yagona xudoga (Alloxga) ishonish, unga ibodat qilishga da'vat qilgan edilar. Xalifalik IV asr oxiri V asr boshlarida Arab yarimorolining bir qancha viloyatlarida tarqalgan edi. Manashu oqim ibtidoiy munosabatlar yemirilayotgan va davlat yuzaga kelayotgan bir davrda tarqoq arab qabilalarining yagona davlatga birlashishga bo'lgan intilishlarini o'zida aks ettiradi.

Qur'on va boshqa diniy asarlarda Islomdan oldingi davr «Joxiliya» (nodonlik, johillik) deb ataladi. Arab yarimorolida taraqqiyot Eron va Yunon-Rim madaniyatiga nisbatan ancha orqada bo'lgan qarama-qarshi o'larok, Misr, Suriya va Irok ancha taraqqiy etgan o'lkalar bo'lgan.

Arab yozuvi eramizgacha minginchi yilning yarmidan boshlab janubiy arablarda yozuv madaniyati paydo bo'lgan. Arablarning o'z mustaqil yozuvi eramizning IV asridan boshlanadi, yana 515 va 563 yillardagi yozuvlar ham ma'lum. Makkaliklar o'zlarining diplomatik va savdo ishlarida arab tilidan foydalanganlar. Hech shubhasiz aytish mumkinki arab yahudiylarida o'z muqaddas kitoblari – Tavrot va arab nosorolarida o'z injillari bo'lgan, lekin injilning arabcha tarjimai VII asrdan oldin bo'lmagan.

Islomgacha bo'lgan arablarda san'at obidalari deyarli yo'k desa bo'ladi. Ammo she'riyat keng quloch yoyganligi ma'lum. Qasida, hajv va vasifiy she'rlardan juda ko'p namunalar saqlanib qolgan. Qasida arab she'riyatiga Muhammad (s.a.v.)dan 150 yil ilgari paydo bo'lgan. Manbalarda ko'rsatilishicha Islomgacha bo'lgan she'riyatning yirik bir vakili arab alifbosining har bir harfiga qofiyalangan mingtadan – jami 28 ming qasidani yot bilgan

Johiliya davr she'riyatining eng durdonasi yettita shoir tomonidan yaratilgan va «muallaqot» nomi bilan shuhrat qozongan yettita yirik qasidadir. Bu shoirlar: Imruul Qays, Tarafa ibn al-Abd, Zuhayr ibn abu Salmo, Labid ibn Rabi'a, amr ibn Qulsum, al Xoris ibn Hallaza va Antara ibn Shaddodlardir.

Islomgacha bo'lgan arablarda qabilalar o'rtasida o'zaro to'xtovsiz urushlar, erkaklarning qirilib ketishi natijasida oilada qashshoqlik, qiz tug'ilsa, tiriklay ko'mib

yuborish, ichkilikbozlik, qimor, qaroqchilik va boshqa juda ko'p yomon odatlar avj olgan edi.

Xuddi mana shunday bir sharoitda bir qoloq mamlakat – Arab yarimorolida Islom dining vujudga kelishi va uni dunyodagi siyosiy, iqtisodiy jihatdan arablarga nisbatan bir qancha ustun turgan davlatlar xalqlari tomonidan tez vaqtda qabul etilib, tarqalib ketishi haqiqatdan mo'jiza edi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:

1. Islom dinining boshqa jahon dinlaridan ajratib turadigan xususiyatlari qanday?
2. Arabiston yarim orolida islom dinidan oldin qanday dinlar mavjud bo'lgan?
3. Islom diniga jahon xalqlarining e'tiqodi bo'yicha o'rni qanday?
4. “Johiliya davri” qanday davr?

Adabiyotlar:

1. Каримов.И. А. Ирода ва иймон - эътиқодимиз синовии. Т., “Ўзбекистон” 1999.
2. Куръони карим. 2001 й.
3. Хусниддинов. З. Мусулмоннома. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат миллий нашрети.1997.
4. Хожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. “Шарқ” Т., 2005.
5. Маънавият асослари. Муаллифлар: С.Отамуродов., С.Хусанов., Ж.Раматов. Тошкент, 2002 й
6. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. Т., 1992.

2 –. Mavzu: Islom dining vujudga kelishi.

REJA:

1. Muhammad payg'ambar islom dining asoschisi.
2. Islomning paydo bo'lishi.

Islom dinining paydo bo'lishi va butun dunyoga tarqalishi tarixi to'g'risida birinchi bo'lib Alixonto'ra Sog'unliy o'z milliy tilimizda “Tarixi Muhammad” kitobini yozdi¹.

Demokratik jamiyat qurish yo'lida ildam odimlayotgan, barcha din ahllari huquqiy jihatdan teng ko'riladigan, ko'p millatli O'zbekiston xalqining iymon-e'tiqodi mustahkam, mashaqqatlarga chidamli, ma'naviy tarbiyasi yuksak bo'lishida Qur'onda nomlari zikr etilgan payg'ambarlar tarixlarining tarbiyaviy ahamiyati

¹ Qarang Хожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. “Шарқ” Т., 2005 .355-b.

beqiyosdir. Chunki har bir payg'ambarning tarixi shu payg'ambar o'z ummatiga keltirgan dinning tarixidir.

“Toki har bir vatandoshimiz, ayniqsa yoshlar faqat Islom dini to'g'risida emas, umuman dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin” – degan edi Prezidentimiz I. A. Karimov¹.

Shu nuqtai nazardan islom dinining asoschisi va payg'mbari bo'lgan Muhammad (s.a.v.) bilan bir qatorda yakka xudolikni targ'ib etuvchi payg'ambarlarni eslab o'tish, bular haqida ma'lumotli bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Tarix millatlarning o'tmishidagi hayotidan bahs yuritadi. Ularning qanday hayot kechirganliklari va qanday fikr yuritganliklarini ko'rsatadi. Tarix sahifalarida biz uchun ko'plab ibratlar borligi haqiaqtdir. Chunki tarix har bir davrning oynasi sanaladi. Insonlar unga qarab o'zlarini o'nglaydilar.

Tarix ikkiga bo'linadi: umumiy va xususiy. Umumiy tarix Odam alayhissalomdan hozirga qadar yashab o'tgan insonlar hayotidan bahs yuritadi. Xususiy tarixda esa, faqatgina bir millatning tarixi yoritiladi. Shu o'rinda Islom dini muayyan bir millat dini sifatida emas, balki, dunyo xalqlarini birdamlikka chorlovchi ta'limot sifatida o'rganishimiz kerak.

Islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni karimda 25 ta payg'ambar nomlari qayd etilgan. Bular quyidagilar: Odam alayhissalom, Shis alayhissalom, Idris alayhissalom, Nuh alayhissalom, Hud alayhissalom, Solih alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Lut alayhissalom, Ismoil va Ishoq alayhimussalom, Y'aqub va Yusuf alayhimussalom, Ayyub alayhissalom, Shuayb alayhissalom, Muso va Xorun alayhimussalom, Dovud alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Ilyos va Alyasa' alayhimussalom, Yunus alayhissalom, Zakariyo va Yahyo alayhimussalom, Iyso alayhissalom va so'ngi payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam.

Islom dinining asoschisi, «Allohnin elchisi» (rasulloh), «payg'ambarlarning eng oxirgisi» (xotamun – nabiyyin) Muhammadning (s.a.v.) bolalik va yoshlik yillari haqida juda kam ma'lumotlar bor. U zotning 570 yil 22 aprelda tug'ilgan deb ko'rsatib kelinmoqda. U kishi yoshligidayoq yetim qoladilar, otalari Abdulloh payg'ambar tug'ilmay turib vafot etgan. Onalari Omina esa 6 yoshliklarida olamdan o'tgan. 2 yildan keyin u kishini o'z tarbiyasiga olgan (ota tomondan) buvalari Abdulmutalib ham vafot etadi. Yosh yetimni amakilari Abu Tolib o'z tarbiyasiga oladi.

12 yoshida Muhammad(s.a.v) Abu Tolibning savdogarlik bilan Suriyaga qilgan uzoq safarida hamroh bo'lganlar. Bu birinchi safarda Muhammad (s.a.v) o'zlariga butunlay yot bo'lgan nosoro Yahudiy va boshqa dinlarga tegishli jamoalar bilan tanishadilar. Bu ul zot tug'ilgan va voyaga yetgan butparastlik ulug' qabilachilik muhitiga butunlay qarama-qarshi hayot edi. Bu yangi hayot bilan tanishish yosh Muhammadga o'chmas ta'surotlar qoldiradi va keyingi butun hayotlarida doimo kuchayib borgan va oxir uni yangi din asoschisiga aylantirgan. Bir ruhiy holatni yuzaga keltiradi.

¹ Muhammad Kamol . Payg'ambarlar tarixi. T., “Yangi asr avlodi” 2003. 4-bet.

Arablar orasida o'zaro qon da'vosi sababi bilan bo'lgan urushlarning eng og'ir kechgani «Fijor jangi» hisoblanadi. Islomdan avval ham arablarda Muharram, Rajab, Zulqa'da va Zulhijja oylari muqaddas sanalib, ularda urush taqiqlangan edi. Mazkur urush mana shu oylarda bo'lganligi uchun unga «Fijor jangi» - «Gunohkorlar urushi» deb nom berilgan. Bu urushda Quraysh tarafida Muhammad payg'ambar ham unda ishtirok etdi. To'rt yil davom etgan bu urush sulh bilan nihoyalandi.

Muhammad (s.a.v) 21 yoshga to'lganlarida Makka jamoalari orasida Amin (ishonchli, sadokatli) degan nomni oladilar va Abu Tolibning xohishi bilan Makkaning boy bevasi Xadicha binti Xuvaylid ibn Asadga savdo xizmatchisi bo'lib ishga kiradilar. Xadichaning savdo ishlarini boshqargan Muhammad (s.a.v) ikkinchi marta Suriyaga safar qilib, Xalob va Damashq shaharlarida ham bo'ladilar. Turli diniy jamoalar ayniqsa Yahudiylar va nosorolik bilan yanada yaqinroq tanishish, ularning hayot tarzi va g'oyasi bilan yaqinlashish tufayli Muhammad (s.a.v) ning ma'naviy tajribalari oshib ruhiy tushunchalari kengayadi. Nasoro koinlari bilan maxsus uchrashib, suhbatlar qiladilar. Yahudiy va nosorolikda umumiy bo'lgan bosh aqida – yakkaxudolik ta'limoti Muhammad (s.a.v) da bir xudoga ishonish g'oyalarining takomillashuviga sabab bo'ladi. Yahudiylar va nosorolardagi bir – birini tan olmaslik, «Yo'ldan ozishda» bir – birlariga dushmanlik munosabatida bo'lishlari Muhammad (s.a.v) xudoga yetishish uchun haqiqiy yo'l topishga qo'shimcha turtki bo'ldi.

595 yili Muhammad (s.a.v) Xadichaga uylanadilar. Xadicha 40 yoshda bo'lib, avval ikki marta turmush qurgan bo'ladi. Ulardan ikki o'gil va bir qiz bo'lgan edi. Xadicha Muhammaddan (s.a.v) ikki o'g'il va to'rt qiz qurgan edi. To'ng'ich o'g'li Qosim ikki yoshida, ikkinchi o'g'li Abdulloh go'dakligida vafot etib ketishgan. Qizlari Zaynab, Ruqiya, Umm Qulsum va Fotima bo'lib, ulardan faqat Fotima payg'ambar avlodlarini davom ettirgan. Muqammad (s.a.v) bilan Xadicha o'rtasidagi muhabbat afsonaga aylanib ketgan. Xadicha atrofdagilar ichida birinchi bo'lib uning payg'ambarligini tan oladi, uni qo'llab quvvatlash uchun o'zining kuch g'ayrati va mol-mulkini ayamaydi.

O'tgan barcha payg'ambarlar biror-bir millatga yo qavmga yuborildi. Muhammad sallollohu alayhi vasallam esa barcha insonlarga elchi qilib yuborilganlar.

Qur'oni Karimning Saba' surasida "(Ey Muhammad), Biz sizni shak-shubhasiz barcha odamlarga: (mo'minlarga jannat haqida)xushxabar eltuvchi, (kofirlarni esa do'zzax azobidan)ogohlantiruvchi bo'lgan holingizda, payg'ambar qilib yubordik", deyiladi. Bundan payg'ambarimizning barcha insonlarga yuborilgani ma'lum bo'ladi.

Payg'ambarimiz (s.a.v) bir muborak hadislarida shunday marhamat qilganlar: "Mendan oldin payg'ambarlar biror-bir qavmga yuborilar edi, men butun dunyoga yuborildim".

Payg'ambarimiz (s.a.v) xatna qilingan hollarida tug'ilganlar. Muborak ikki kuraklari orasida bir muhr bo'lgan. Bunga "Nubuvvat muhri" deyiladi. Bu muhrda Payg'ambarimiz (s.a.v) uchun shunday deyiladi: "Ey Muhammad! Sizni mujdalaymiz. Har qanday kishi sizning yuksak martabangizga chiqa olmaydi, siz payg'ambarlarning eng jasuri va so'nggisiz. Qayerda borsangiz, nusratga erishasiz".

Payg'ambarimiz (s.a.v) tug'ilish paytlarida dunyoda bir qancha buyuk hodisalar yuz bergan. Bu hol dunyo endi boshqa bir pallaga kirganini bildiradigan mo'jizalardan edi.

Payg'ambarimiz (s.a.v) Ibrohim (a.s)ning o'g'li Ismoil(a.s)ning qirqinchi avlodidan dunyoga kelganlar. Ibrohim(a.s) esa Nuh(a.s)ning zurriyotidan bo'lgan.

«Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «yagona xudo – Allohni tanimaslik» ma'nolarini beradi. Bu istiloh musulmon mualliflari tomonidan Arabiston yarim orolining islomdan oldingi davr tarixiga nisbatan ishlatila boshlandi. Bu bilan yangi davr tarixchilari qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'pxudolik» (*al-Vasaniya*) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishni istaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning qancha muddat davom etganligini aniqlash birlamchi manbalar, birinchi navbatda, yozma adabiyotning ozligi, ba'zida butkul yo'qligi tufayli juda mushkul.

Arab yerlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarim orolda joylashgan bo'lib, shimol tomondan – Shom (Suriya) sahrolari, sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Umon dengizi, janub tomondan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lka bu yerda yashagan somiy tillarning birida so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, islom paydo bo'lish arafasida yarim orol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch tsivilizatsiya mavjud bo'lgan:

- 1) mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (tili – janubiy arab tili);
- 2) nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;
- 3) Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analari bilan bog'liq Shimoliy Arabiston.

Islomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tarixda birinchi arab davlati –Arab xalifaligi vujudga keldi. Arab istilolari oqibatida mazkur uch tsivilizatsiyalar vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'tmishdagi nisbiy mustaqil rivojlanganliklari *arablar nasabi* haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod vakillaridir: *qahtoniylar – janub arablari,adnoniylar – shimol arablaridir*. Mana shu ikki avloddan barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur tasavvur VII asr oxirlari-VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchun harbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar) vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko'chmanchilik mafkurasi qoldiqlari, qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo'lsada, islom dini paydo bo'lishi davrlarida ularning katta qismi (2/3) o'troq holda shahar va qishloqlarda yashaganlar. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makka va Yasrib shaharlari Yaqin Sharq tsivilizatsiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan.

Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga olgan qismini qadimdan **Hijoz** deb atalgan.

Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar «*ko'pxudolilik*» e'tiqodi hukm surardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko'pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: *asad* "arslon", *kalb* "it", *bakr* "bo'taloq", *sa'lab* "tulki", *zi'b* "bo'ri" va h.k. Barcha somiy xalqlarga xos bo'lgan samoviy jismlarga sig'inish, ya'ni astral kulbtlar arablar orasida ham keng tarqalgan edi. Bu haqda Makka Ka'basida joylashgan «Qora tosh» (*al-Hajar al-asvad*) ham dalolat beradi.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paytda paydo bo'lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllanganlar. Biroq, keyingi davr islom tarixchilarning xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ'ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, u Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibn Luhay ba'zi shomliklar odatlaridan qattiq ta'sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olib kelgan. Keyinchalik butlarga sig'inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig'inish – dinning yangi bosqichi bo'lgan. Ibn al-Kalbiyning (v. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta'kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o'z sanamiga ega edi. Tez-tez bo'lib turadigan qabilalararo urushlardan so'ng, odatda, mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Ulardan biri Makka Ka'basi edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u yerdagi Ka'baga sanamlar to'plandi. Ibn al-Asirning (vafoti 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka'ba ichida 360 ta sanam bo'lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko'rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo'lsa, u Ka'baga shuncha nusxada qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari mavjud bo'lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur'on, hadis, tafsir, *sira* (Payg'ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda Shimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o'ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu yerdagi shaharlarni o'zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko'chirgan; ularning ko'pchiligini yahudiylar tashkil qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. Shundan so'ng ham ba'zi yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar.

Arabiston yarim orolida yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu yerda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma'lum. Odatda, targ'ibotchilar tibb va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga yo'l topa oladigan odamlar bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir etganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki o'zlarining olib borayotgan faoliyatlarida yordam berishiga erishganlar. Islomga qadar Arabiston yarim orolining deyarli barcha hududlarida xristian rohiblari muntazam ravishda din targ'iboti bilan shug'ullanar edilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, xristianlikning Arabiston yarim oroliga qachon kirib kelgani aniq ma'lum emas.

Hijoz shaharlariga xristianlar (sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qaramog'i ostidagi Falastin va Shomdan ko'chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma, Yasrib, Makka va Toifda ham talaygina xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijralari dalolat beradi.

Qadimgi Arabiston jamiyatida «haniflar» nomi bilan ma'lum bir jamoa mavjud edi. Bu jamoa vakillari diniy tasavvurlarini fanda «noma'lum monoteizm» deb atash qabul qilingan. Ular sanamlarga sig'inmas, balki yagona Xudoga ibodat qilar hamda ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilishar edi. Ular bir yerda muqim turmay, o'lka bo'ylab darbadar hayot kechirardilar. Ushbu toifa kishilaridan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayyidolarni keltirish mumkin. Ular keyinchalik ilk islom jamoasida ma'lum mavqega ega bo'ldilar.

Sosoniylar Eroni ta'siri haqida adabiyotlarda kam gapiriladi. Vaholanki, zardushtiylik va manixeizm ta'siri bu mintaqalarda kuchli edi. O'zini «Payg'ambarlar muhri» (*Xotam al-anbiyo*) deb atagan Moni va uning «o'zga dinlar ta'limotini to'g'rilovchi» dini atrof hududlarga yetib ulgurgan edi. Sosoniylar ta'siri ostida bo'lgan Laxmiylar davlati va islom paydo bo'lishi arafasida Eronning Yamanni zabt etganligi faktlari e'tibordan tashqarida qolmasligi lozim.

Yangi dinning paydo bo'lishida mazkur omillarning albatta ta'siri katta bo'ldi. Ammo bu jarayonlarda birinchi arab davlati vujudga kelishi va uning ideologiyasining shakllanishi muhim o'rin tutadi. Ularni to'laqonli idrok etishda Muhammad payg'ambar hayoti, uning yangi din targ'ibotchisi va davlat arbobi sifatidagi faoliyati asosiy o'rinni egallaydi

Qirq yoshlarida, 610 - yillardan boshlab Muhammad (s.a.v) hayotlarida diniy fikr etish va yangi ta'limot axtarish kuchaya boshlaydi. U kishidagi his tuyg'ular misli ko'rinmagan darajaga ko'tariladi. Muhammad (s.a.v) ba'zan Makkaga yaqin Hiro g'origa borib, o'z diniy g'oyalari bilan vaqtni yolg'iz o'tkazadilar. aholi odaticha ramazon oyini u yerda ibodat bilan o'tkazardi. G'amlagan ozuqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytib, bir oz vaqtdan so'ng yana o'sha g'orga ketar edi. U yerda o'zini sukunatga berib, chuqur o'yga tolar, g'oyibdan quloqlariga «Sen Allohning

elchisisan» degan tovushlar eshitilar edi. Ko'p tush ko'rar, tushida ko'rgan narsalari o'ngida to'g'ri chiqar edi.

Shunday paytlardan birida Jabroil kelib, u zotga odamlarga haq Allohning gapini «o'qib ber» deb buyuradi. Bu payg'ambarlik vahiy kelishi edi. Shundan keyin ul zot Makkaga diniy ta'limotni boshlaydilar va o'zlari Allohdan vahiy olayotganlarini e'lon qiladilar.

Ularning payg'ambarligini birinchi bo'lib Xadicha tan oladi, keyin amakivachchalari Ali ibn Abu Tolib, asrandi o'g'illari Zoyid Hriz e'tirof etishdi. Ko'p o'tmay Makkaning eng nufuzli savdogarlaridan Abu Bakr, az-Zubayd, Talxa, Sa'd ibn Abu Veqqos, Abdurahmon ibn Avf, Usmon ibn Affonlar payg'ambar (s.a.v) ta'limotlariga qo'shiladilar. Muhammad (s.a.v) izdoshlari jamoasi dastlab ellik kishidan oshgan. Makkaning qolgan aholisi, ayniqsa nufuzli qurayshiylar Muhammad(s.a.v) ta'limotiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar. Buning natijasida u kishining tarafdorlaridan 11 xonadon (oilasi bilan) tezda Habashistonga ko'chib ketishgan.

Ochiq da'vatdan so'ng Makka mushriklari Abu Bakr, Usmon ibn Affon kabi islom qabul qilgan ulug' va badavlat zotlarga hech narsa deya olmas ham, ammo zaif, kambag'al, himoyasiz musulmonlarni qattiq siquvga oldilar. Habashistonga borishni istagan 11 erkak va 4 ayoldan iborat bo'lgan birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo'ylab ketdi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqayya (Payg'ambarning qizi), Abu Huzayfa va xotini, Zubayr ibn al-Avom, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Mas'ud bor edilar. Guruh boshlig'i Usmon ibn Maz'un edi. Bu 15 kishi vahyning beshinchi yili Habashistonga (Oqsum podshohligi) yetib keldilar. Ularni Habashistonda xristianlar juda yaxshi kutib oldilar. U yerda yaxshi, sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechirayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so'ng ikkinchi guruh holida u yerga hijrat etdilar. Bu guruhning boshida Ja'far ibn Abi Tolib (Alining akasi) bo'lib, ular 80 kishi edilar. Habashiston xalqi va uning podshohi Najoshiy muhojirlarga juda yaxshi munosabatda bo'ldilar.

Makkaliklarning qattiq qarshiliklaridan ko'p ozor chekkan Payg'ambar Toifga yo'l oldi. Biroq toifliklardan hech kim islomni qabul qilmadi. Shu qiyinchilik yillarida «Isro va Me'roj» voqeasi yuz berdi. Qur'ondagi «*Isro*» va «*Najm*» suralarida bu hodisa haqida so'z yuritilgan.

Da'vatning o'ninchi yili haj mavsumida Payg'ambar Makkaning shimolida «Aqaba» deb ataladigan bir tepalikda Yasrib (Madina) shahridan kelgan olti kishini uchratib, ularni islomga da'vat etdilar. Ular islomni qabul qildilar. Ushbu uchrashuv islom tarixida «Birinchi Aqaba bay'ati» deb nom oldi. Unda As'ad ibn Zarora, Rafi' ibn Molik, Avf ibn Horis, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdullohlar Payg'ambarga din shartlarini bajarishga «bay'at» (qasamyod) qildilar. Keyingi ikki haj mavsumida ham Aqaba bay'ati bo'lib o'tdi. Ikkinchi uchrashuvda madinaliklardan

12 kishi, uchinchisida esa 75 kishi ishtirok etdilar. Bu voqealar so'ng Payg'ambar Madinaga hijrat qilmoqlikka qaror qildi.

Yangi diniy jamoaga jasurligi, kuch-g'ayrati bilan mashhur bo'lgan Hamza bilan Umarning qo'shilishi uning mavqeini oshirdi. Shu bilan birga quraysh zadagonlarining Muhammaddan (s.a.v) va ularning tarafdorlariga dushmanligi ham kuchaydi. 610 – 620 yillar davomida Makkaning an'anaviy butparast jamoalari bilan yangi din tarafdorlari orasida to'xtovsiz kurash ketdi. Bu kurash 620 yilda Xadicha so'ngra Abu Tolibning vafotidan keyin yanada keskin tus oldi. Yaqin yordamchilaridan judo bo'lgan va o'z qabilasi tomonidan rad etilgan Muhammaddan (s.a.v) Makkadan 100 km Sharqda joylashgan Toifda o'zlariga yordamchi topishga urindilar. Lekin bu foyda bermadi. Makkaga har yilgi an'anaviy butparastlik ziyoratiga kelgan Yasrib (Madina)lik avs va xazraj qabilalari vakillaridan 12 kishi payg'ambar (s.a.v) bilan uchrashib, ularga sodiqlik bildirishadi. U kishining ta'limotini qabul qilishadi., yordam berishga va'da qilib Yasribga ko'chib ketishga da'vat etishadi. Keyinchalik bular ansorlar (paygambar yordamchilari) deb ataladilar. Navbatdagi ziyoratda 70 ta yasribliklar Muhammadga (s.a.v) qasam ichib Islomni qabul qiladilar va uni jonlari bilan saqlashga qasamyod qiladilar. Payg'ambarga Islom g'oyalari Yasribda qulay sharoit topgani ochiq-oydin bo'ladi va u yerga ko'chib ketishga qaror qiladilar. Chunki Makkada payg'ambar va tarafdorlari hayoti xavf ostida bo'lib, ular jismoniy yo'q qilinishi mumkin edi.

Muhammad (s.a.v), izdoshlari o'z oilalari bilan ko'chib ketadilar. U mashhur hijrat 26 iyul 622 yili yuz berib shu yil musulmon oyining birinchi kuni deb qabul qilinadi. Muhammad (s.a.v) Yasribga ko'chib kelganlaridan keyin bu shahar Madina an-nabiy (payg'ambar shahri) nomini oldi. Bu yerda musulmonlar jamoasi ummat vujudga keldi. U yagona diniy ta'limot asosida vujudga keldi. Ummat diniy ruhdagi tashkilot bo'lib, Muhammad (s.a.v) uning ham diniy, ham dunyoviy, ham harbiy rahbari edilar. Hijratning ikkinchi yili payg'ambar qiblani o'zgartiradilar, avval Baytulmuqaddas (Ierusalim)ga qarab nomoz o'qigan bo'lsa endi Makka ibodatxonasi Ka'bagga qarab nomoz o'qishga targ'ib qildilar. Bu faqat Madina Yahudiylariga qarshi kurash natijasi bo'lib qolmay shu bilan birga Muhammadning (s.a.v) butun g'arbiy Arabistonning bosh shahri Makkani o'ziga bo'ysundirish uchun bo'lgan maqsadni aks ettiradi.

630 yili Makka jangsiz Muhammadga (s.a.v) taslim bo'ldi. Makka Islomning diniy markaziga aylandi, bu yerga haj qilish Islomning asosiy farzlaridan biri deb e'lon qilindi.

Islomning Madinadan keyingi davri uning tarixida juda katta ahamiyatga ega. Musulmonlar birinchi marta alohida diniy jamoa (Umma) bo'lib yashay boshladilar. Bu esa o'z navbatida diniy qoidalarning shakllanishini tezlashtirib yubordi. Asta-sekin namoz, azon va boshqa amallar tartibga solindi. Payg'ambar bu shaharga uchinchi taraf vakili sifatida taklif etilgan edi. Avval, murosasiz Avs va Xazraj arab qabilalari hamda *Banu Qurayza*, *Banu Qaynuqo'*, *Banu Nadir* yahudiy qabilalari bilan o'zaro sulh tuzildi.

Hijratning ikkinchi yili ramazon oyida (mil. 624 y.) musulmonlar ummasi qo'shinlari va makkaliklar o'rtasida *Badr* jangi bo'ldi. Bu jang Madinadan 80 mil (taxminan 150 km.) uzoqda Suriya karvon yo'lida joylashgan Badr qudug'i yaqinida bo'lib o'tdi. Murosasiz kechgan jang musulmonlar g'alabasi bilan tugadi. Bu jangdan so'ng Umma mavqei Madina ahli orasida beqiyos o'sdi. Shu davrdan boshlab Muhammad payg'ambar yetakchiligidagi islom jamoasi kuchli bir davlatning vazifalarini bajara boshladi. Madina ichidagi Payg'ambar muxoliflari *munofiqun* nomini oldi. Barcha arab qabilalari *mushrik* deb e'lon qilindi. Ular yoki islom dinini qabul qilishlari yoki ochiq maydonga jangga chiqishlari shart edi. Bu jamoa-davlat qisqa va uzoq muddatli sulh shartnomalarini tuzish orqali turli arab qabilalari va qabilalar ittifoqlarini o'z hukmiga bo'ysindira boshladi. Bo'ysingan qabilalar har yili jonivorlari hisobidan Madina davlatiga Umma-davlat xarajatlari uchun *sadaqa* (mol to'lovi) bermoqlari lozim edi. *Sadaqa* bermaganlarga qarshi harbiy yurishlar tashkil etilardi. O'ljadan to'lovga o'tish (Makkaning fathidan so'nggi davrda) davlatning shakllanishi haqida dalolat beradi.

Yahudiy, xristian va *sobi'lar ahl al-kitob* mavqeiga ega bo'lishdi. Ular Madina davlati xazinasiga har bir voyaga yetgan erkak boshidan to'lov (*jizya*) yig'ib berib, o'z ijtimoiy-diniy avtonomiyalarini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldilar. Ammo Madina davlatining asosiy muxolifi Makka jamoasi bo'lib qolaverdi. Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim g'alabalardan biridir.

Makka fathidan (630 y.) so'ng islom davlati Arabiston yarim orolida to'la g'alabaga erishdi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shundan so'ng musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida yetakchi davlat va siyosiy kuchga aylandi.

Shu bilan bir qatorda Madina diniy qoida va tartiblar bir tekis shakllana boshladilar. Diniy masalalarga oydinlik kiritishga yahudiy qabilalari bilan bo'lgan mojarolar albatta o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Qiblaning Quddusdan Makkadagi Ka'bage o'zgartirilishi, *ahl al-kitobga* (yahudiylar, xristianlar, sobiylar) *ahl az-zimma* (musulmon davlati himoyasi ostidagi diniy jamoa) mavqei berilishi va islomda arabiy unsurlarning kuchayishi shu voqealar bilan bog'liqdir. Payg'ambar Umma hayotini ko'p hollarda atrofdagi odamlar uchun odatiy bo'lgan qoidalar asosida boshqardi. Muhim hollarda yangi diniy va ijtimoiy qoidalar *vahy* orqali kiritildi. Bu masalalarda biz Madina davlatini teokratik davlat deb atashimiz mumkin.

Hijratning o'ninchi yili muqaddas zulhijja oyining 8 - kuni (632 yil 7 mart) Muhammad (s.a.v) hamma oila a'zolari bilan birga birinchi va oxirgi marta Madinadan Makkaga haj ziyoratiga bordilar. Bu ziyorat Islomda «Buyuk haj havz al-hajjal-akbar» nomi bilan tilga olinib, tarixda «vidolashuv haji» (al-haj al-vado') deb yuritiladi. Payg'ambarning bu ziyoratlari Makkaning Islom diniy markazi sifatidagi mavqeini uzil kesil hal etdi. U Islomning boshqa dindagilarga man qilingan diniy haj marosimi o'tkaziladigan muqaddas shahri bo'lib qoldi.

Shu ziyoratdan 3 oy o'tgach 11 hijriy yil 12 rabi' I/632 milodiy yil 8 iyun kuni Payg'ambar vafot etdi. Bu bilan islom tarixida ilk davr – Qur'oniylar davri yoki teokratiya davri tugadi. Bundan buyon musulmon-arab davlati tarixida podshohlar – *xalifalar*, islom dini normalarini shakllantirish va rivojlantirishda diniy ilmlar bilimdonlari – ulamolarning roli tobora oshib boraverdi.

Muhammad (s.a.v) Madinada vafot etadilar va o'z hujralariga dafn qilinadilar. Keyinchalik payg'ambar maqbaralari shu yerda qurilgan katta masjid ichiga olingan va musulmonlarning ziyoratgohiga aylantirilgan.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:

1. Muhammad payg'ambar qachon va qaerda dunyoga keldi?
2. Islom dinining asosiy aqidasi nimalardan iborat?
3. Yangi din da'vati taxminan qachon boshlandi?
4. 622 yildagi *Hijraning* mohiyati nimalardan iborat?
5. Makka va Madina davrlaridagi dinga da'vat mavzularida qanday asosiy farqlar bor?
6. Ilk islom davrida din va siyosat masalalari qay darajada bog'liq bo'lgan?

Adabiyotlar:

1. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Sayid Mahmud Taroziy-Oltinixon to'ra tarjimai. T.: Mehnat nashriyoti, 1991.
2. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992.
3. Textual Sources for the Study of Islam. Edited and Translated by Andrew Rippin and Jan Knappert. Chicago, 1990.
4. Ibn Xisham. Sirat Sayyidina Muhammad Rasul Allax // Xrestomatiya po islamu. Per. s arabskogo, vved. i primech. M., 1994, B. 12-24.
5. Axmad b. Faris ar-Razi. Audjaz as-siyar li-Xayr al-bashar // Xrestomatiya po islamu. Per. s arabskogo, vved. i primech. M., 1994, B. 26-32.
6. Bol'shakov O.G. Istoriya Xalifata. 1. Islam v Aravii (570-633). M., 1989.

3-mavzu: Islom dinining Movarounnahrda kirib kelishi

Reja:

1. Islom dini kirib kelguniga qadar O'rta Osiyodagi vaziyat.
1. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va yoyilishi.
2. O'rta Osiyoda Islom dinining o'rni va unga munosabat.

Kishilik jamiyati rivojlanishi nihoyatda murakkab va ziddiyatli, unga turli ichki va tashqi, moddiy, iqtisodiy va g'oyaviy-mafkuraviy omillar ta'sir qiladi. Ma'naviyat tarixi va qonuniyatlarini o'rganishni o'rta asrlar bilan cheklab bo'lmaydi. O'rta asrlardan keyin esa renessans (G'arb uyg'onish davri) va ayniqsa ma'rifatparvarlikdan boshlab diniy-falsafiy omillar ma'naviyat rivojlanishida belgilovchi mavqei yo'qotadi. Sharq xalqlari ma'naviyatida bu hol bir oz keyinroq va boshqacharoq sodir bo'ladi. Hozirgi zamonda jahonning deyarli barcha xalqlari

ma'naviyati ko'proq dunyoviylik negizida rivojlanmoqda, garchi dinlarning ta'siri juda kuchli bo'lsada, shu sababdan ma'naviyatning umumtarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlashda bir tamoyilga emas, birdaniga ikki-uch tamoyilga suyangan ma'qulroq. Masalan, diniy-falsafiy, ijtimoiy, tarixiy, nazariy kulturologik tamoyillar asosida kompleks yondashish samarali bo'ladi.

XX va XXI asrlar tutashi davrida hatto ijtimoiy-siyosiy tamoyillar ham me'zon sifatida olinishi mumkin. Zero bu davrda aparteid, irqchilik, milliy zulm va notenglikning har qanday ko'rinishlariga barham berish kabi talablar, inson huquqlari, erkinliklari, demokratik qadriyatlar, global muammolarni hal qilish zarurati butun insoniyatning dunyoqarashi, siyosiy madaniyati va umuman ma'naviyatini o'zgartiryapti.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'zbek xalqi ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishi tarixiy bosqichlarini quyidagicha tasavvur etish mumkin:

- Eng qadimgi davr (arxeik) va ilk zardushtiylik bosqichi.
- Islomgacha bo'lgan diniy-mafkuraviy plyuralizm bosqichi.
- Islom tamadduning gullab yashnashi va temuriylar davrida qayta uyg'onish bosqichi.
- An'anaviylikning qaror topishi va ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy tanazzul bosqichi.
- Mustamlakachilik davri madaniyati.
- Istiqlol davri madaniyati.

Demak, O'rta Osiyoda Islom dini kirib kelgunga qadar ma'naviyat shakllanishi va rivojlanishiga tarixiy bosqichlarini 2 ta, ya'ni, eng qadimgi davr va ilk zardushtiylik bosqichi va islomgacha bo'lgan diniy-mafkuraviy plyuralizm bosqichi.

Birinchi bosqich ma'naviyati neolit, ya'ni, Yangi tosh asri oxiridan to Yunon istilosigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu bosqich ma'naviyati haqida tasavvurlarimiz unchalik chuqur va yaxlit emas. Bu tosh asrida yashagan ajdodlarimizning qarashlari, e'tiqodlari, olamga munosabati, turmush tarzi to'g'risida qoyalardagi suratlar, turkiy xalqlar og'zaki ijodida saqlanib qolgan arxaik unsurlar, qoldilar, o'g'iznoma, asotirlar, hamda arxeologik qazuvlarda topilgan moddiy-siyosiy va e'tiqod ibodatga oid ashyoviy dalillar orqali bilamiz.

Ta'kidlash lozimki, bu davrda dastlab narsalarga va sanamlarga sig'inish (fetishizm) s'ngra turli hodisa va ruhlarga sig'inish (animizm – tabiatni jonlantirish), so'ngra tangri, Ko'k, Axuramazda kabi bosh xudo, ezgulik va xayot timsollariga ularning turli ko'rinishlariga – g'ayritabiiy kuchlar, ma'budalarga sig'inish qaror topgan. Mis va bronza asridan bizgacha umumturk asotirlari va O'g'izxon haqidagi asotirlar, «Avesto»ning eng qadim qismida aks etgan asotirlar («Alpomish») hamda Shiroq va To'maris haqidagi afsonalar yetib kelgan, aniq aytish mumkin.

Lekin afsuski, turli sabablarga ko'ra, o'sha davrning mamlakatimizda yaratilgan yirik yozma yodgorliklari, yilnomalari va diniy-falsafiy bitiklaridan birortasi bizgacha to'liq yetib kelmagan. (Xatto «Avesto»ning eng qadimgi bizgacha etib kelgan nusxasi ham bizning mintaqada emas, dastlab Hindiston parsiylardan topilgan.) Yunonlardan keyin ming yil o'tgach, arablar ham

ajdodlarimiz yaratgan yozma yodgorliklarni johiliyani targ'ib etadi deb yo'q qilganlar.

O'rta Osiyoda ma'naviyat shakllanish bosqichi birinchi davrida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bir necha qadimgi davlatlar bo'lgani tilga olinadi. Bular katta Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona davlatlaridir. Ma'naviyatimiz rivojlanishining birinchi bosqichidayoq ajdodlarimiz ezgulik va yovuzlik, burch va or-nomus, vatanparvarlik va ozodlik, mardlik va fidoiylilik kabi yuksak amallarni, abadiy qadriyatlarni chuqur idrok etganini va ijodlarida muxrlab qoldirganining guvoxi bo'lamiz. Birinchi bosqichning oxirgi choragida sug'oriladigan dehqonchilik ancha rivojlandi. Bu ajdodlarimiz falsafiy ta'limotlar va ibodat amaliyotida ilohiylashtirishga, muqaddaslashtirishga sabab bo'ldi.

Ikkinchi bosqich ma'naviyati islomgacha bo'lgan diniy-mafkuraviy plyuralizm bosqichi Bu bosqich Iskandar Zulkarnayn istilosidan arablar istilosiga qadar, ya'ni taxminan ming yildan sal ko'prok davom etdi. Bu davrda xalqlarning madaniyatining qorishuvi, aholi migratsiyasi va tarkibi o'zgarishi avvalgi bosqichga nisbatan ancha kuchaygan va tezlashgan.

Ikkinchi bosqichda biz Markaziy Osiyoda juda rang-barang madaniyat, boy shaharlar, yuksak ma'naviyat vujudga kelganini ko'ramiz. Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Termiz, Navtoka (Nasaf), Kesh, Asxikent, Varaxsha, Marv, Balx, Nisa, Xarayva (Xiro), Urva (Tus) shaxarlari gullab yashnadi. Zardushtiylik Bilan bir qatorda Yunon ko'pxudochilik dini, buddaviylik, moniylik keyinchalik esa xristianlikning nestoriy (nasroniylik) mazhabi kirib keldi. Animizm unsurlari ham turli shomonlar, kushnochlar tomonidan irim-sirimlar, ruhiy davolash orqali targ'ib etib turildi.

Faraz qilish mumkinki, bu davrda mintaqamizda diniy mo'tadillik, xayrixohlik va murosago'ylik qaror topgan. Dinlar ortasidagi raqobat mutanosiblikka yirik ijtimoiy ixtiloflarga, to'qnashuvlarga olib kelmagan. Har qanday tarixiy manbalarda, rivoyat va afsonalarda bizning mintaqada yashagan maxalliy axolii o'rtasida ichki diniy to'qnashuvlar, urushlar tug'risida maxsus qayd etilgan ma'lumotlar uchramaydi. Arxeologik kazuvlar dalolat berishicha, bu davrda ajdodlarimiz hunarmandchilikda, amaliy bilimlarda san'atning barcha turlarida haykaltaroshlik, rangtasvir, musiqa, teatr, raqsdan yuksak yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Beruniyning xorazmliklar arboblarga nisbatan burjlarni, yil hisoblari va umuman yulduzlar ilmini yaxshiroq bilganliklari to'g'risida ma'lumoti Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa, Panjokent, Ajinatepa freskalari, Sopollitepa, Yerqo'rg'on, Quyqirilgan qal'a, Ayritom, Xolchayon, Dalvarzintepa va boshqa ko'plab arxeologik qazilmalardan chiqqan surat chizilgan sopol idishlar, tangalar, san'at buyumlari, xaykalchalar, zargarlik va ibodat buyumlari buni tasdiqlab turibdi. Bu bosqichda yakka hukmronlik qiladigan, hatto yaqqol yetakchilik qiladigan biror dinni ko'rmaymiz. Avvalgi bosqichda turli dinlar e'tiqodlar ancha – muncha uchrasa-da, o'troq xalq e'tiqodida yetakchilik vazifasini Zardushtiylik o'ynagan, deyish mumkin. Ikkinchi bosqichning birinchi, choragi oxirida Surxon voxasi va Farg'ona vodiysida buddaviylik, o'rtalarida esa moneylik zardushtiylikdan kam mavqega ega emasdi.

Olimlarning taxmin qilishlaricha, bizning mintaqamiz buddaviylikning eng ilg'or va estetiklashgan dzenbudizmning vatani bo'lgan. Budan Xitoy, Koreya va Yaponiyaga tarqalgan. Moniylik ham tugal ta'limot darajasiga yetish uchun o'ziga Turon tuprog'ida nisbatan kengroq ijtimoiy tayanch topgan. Demak, Markaziy Osiyoda Islom dini vujudga kelguniga qadar bir qancha diniy e'tiqodlar o'ziga xos shakllangan madaniyat va ma'naviyatni qoldirgan. Madaniyat va ma'naviyat ko'p qirrali, bir necha diniy-falsafiy qarashlar, rang-barang g'oyalar asosida shakllangan mujassamlashgan plyuralistik madaniyat va ma'naviyat deyish o'rinlidir. Movarounnahrda islom uzil-kesil VIII asr boshida qaror topdi.

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablar ko'p asrlik hukmronligining o'rnatilishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoga arab yurishlari qariyb 643-644 yil atroflarida boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida O'rta Osiyo ikki qismga bo'lindi: 1) Movarounnahr («Ikki daryo oralig'i») va 2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.

Movarounnahrning islomlashuviga quyidagi ikki omil bevosita o'z ta'sirini o'tkazdi. Abu Muslim (747-755) qo'zg'oloni davrigacha O'rta Osiyo islomdan oldingi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) o'z mavqelarini saqlab turdilar. Jumladan, ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig'ish vazifalarini bajardilar. Umaviy hukmdorlari mamlakat ichki ishlariga bevosita aralashmasdan, mahalliy sulolalardan o'lpon olish bilan cheklanardilar. Ba'zida bu o'lpon mahalliy aholidan yig'ilgan jizya (boshqa din vakillaridan yig'iladigan soliq) sifatida qabul qilinar edi. Bu esa keyinchalik islom dinini qabul qilgan aholidan oddiy soliq yoki jizya yig'ish masalasida chigallikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. **Ikkinchi omil** Umaviylar davrida (661-750) arablarning mahalliy aholi tarafidan islom dinini qabul qilishga monelik qilishlari bilan bog'liqdir. Chunki arablar ilk davrda talay imtiyozlarga ega edilar. Bu davr qoidalariga ko'ra, islom dinini qabul qilgan kishi «arab»ga aylanar, ya'ni jamiyatda arablar kabi imtiyozlarga ega bo'lardilar.

Bu holda mahalliy musulmonlardan jizya olmaslik, arab va arab bo'lmagan musulmonlarning teng huquqliligi uchun kurash olib borgan islom dini ichidagi murji'iyalar diniy-siyosiy harakat g'oyalari Movarounnahrda keng tarqalish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Chunki o'lkada arab bo'lmagan musulmonlarning haq-huquqlari arablar tomonidan poymol etilardi. Murji'iyalarning faol harakatlari VII asrning 20-40 yillariga to'g'ri keladi. Murji'iy al-Horis ibn Surayj qo'zg'oloni (734-746) Movarounnahr aholisi tarafidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. I/VII asrda shakllana boshlagan murji'iyalarning aynan imon va amalning ayri-ayri ekanligi haqidagi qarashlari bu hududda yerli aholining hech bir qiyinchiliksiz islomni qabul qilishlariga, shuning barobarida, yangi shakllanayotgan islom jamiyatida teng

huquqlilikka erishishlariga qulay sharoit yaratib berdi; keyinchalik esa – ular garchi arab tilini, qiyin diniy amallarni, o'zlariga butkul yot muhitni to'la anglab yetmasalar-da, ijtimoiy mavqelari va milliy-madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Abu Muslim (749 yil) harakati g'alabasi oqibatida arab bo'lmagan musulmonlarning arablar bilan teng huquqlilikka erishishi natijasida murji'iylik g'oyalari siyosiy-ijtimoiy sohadan ilohiyot fani jabhasiga ko'cha boshladi.

G'arbda Shom va Misrning Sharqda Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlarining islom ta'siriga o'tishi Yangi tamaddun shakllanishini tezlashtirdi. Zero, bu mamlakatlarda ma'naviy madaniyat, ayniqsa, ilm-fan, adabiyot va san'at hamda iqtisodiyot, savdo-sotiq, hunarmandchilik va siyosiy institutlar Xijozga nisbatan ancha rivojlangan va qadim an'analarga ega edi. Arab xalifaligi bu borada o'z tarkibiga kirgan mamlakatlarda ilgari erishilgan yutuqlarning ko'pchiligiga voris bo'ldi. Ular islom mafkurasiga moslashtirilib Yangi tamadduning asosiga qo'ydi.

Islom tamadduning shakllanishi va ravnaq topishiga bizning ajdodlarimiz ham munosib hissa qo'shdilar. Bu moddiy madaniyatning dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlarning ba'zi sohalarga, geodeziya, yer o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, sug'orish inshootlari qurish, shaharsozlik bilan bog'liq ayrim yutuqlarga tegishli. Ipakchilik, paxtachilik, to'qimachilik, polizchilik, bog'dorchilik, qishloq xo'jaligi va chorvachilik maxsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ajdodlarimiz to'plagan tajriba, shuningdek parvarish qilinadigan o'simliklarning ba'zi turlari arab mamlakatlariga tarqaldi.

Davlat boshqaruv va harbiy san'atni rivojlantirishga ham ajdodlarimiz qo'shgan hissa benihoya katta. X asr oxiridan boshlab XVII asrgacha islom mamlakatlarining aksariyati (aholisi turkiy bo'lmaganlari ham), ayrimlarini esa XIX-XX asrgacha turkiy sulolalar boshqargan, Mahmud Gaznaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalar bobokalonlarimiz orasidan chiqqani buning dalilidir. Somoniylar, Gaznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlarning davlat tizimi, Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si, Temurning «Tuzuklar»i, Temur va temuriylar davrida yer, mulk munosabatlari, suvdan foydalanish tartibi, bojxona va soliq tizimi, savdo yo'llarining, bozorlarning davlat himoyasida bo'lishi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi davlat vazifalarini kengayishiga va takomillashuviga xizmat qildi.

Islom ilmi birdaniga yetuk holda shakllanib qolmagan. Muhammad payg'ambar (s.a.v) vafotidan keyin bir oz muddat o'tkach, islomning asosi bo'lmish Qur'oni Karimni kitob holatiga keltirib, unga tartib berish, so'ngra Qur'onga, payg'ambar ko'rsatmalariga muayyan misollar bo'yicha bildirilgan fikrlar, mulohazalari, amaliy qarorlariga tayanib, islomiy dunyoqarashni hamda islom ibodati, axloq huquq me'yorlarini, ya'ni shariatni va fiqhni yaratish zarurati tug'ildi.

Islom bizga yetib kelib, bir ikki avlod davomida xalq ongida mahkam o'rnatilgan qadar, Qur'onga tartib berilgan fiqh maktablari (mazxablar), shariatning ko'pchilik me'yorlari belgilangan va jadal sur'atlarda rivojlanishi, boyishi, takomillashuvi davom etmoqda edi. Bu davrda islom olimlarining asosiy

e'tibori payg'ambar hadislarini to'plab, ular negizida ibodat, axloq va huquq, ya'ni shariat masalalarini yoritishga qaratilgan edi.

Yuksak madaniy, ilmiy-intellektual salohiyatga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari islomni qabul qilgach, ular orasidan yetishib chiqqan olimlarning bir qismi islom ilmini rivojlantirish bilan shug'ullana boshladi va ulardan eng buyuklari o'z sohalarida yetakchi o'rinlarga chiqib oldi.

Xadis ilmida tan olingan 6 ta buyuk muhaddisning to'rttasi Markaziy Osiyodandir. Ular orasidan uchtasi Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy (824-898), Abu Abduraxmon an Nasa'iy (830-915) aynan hozirgi O'zbekiston hududidan yetishib chiqqan.

Imom al-Buxoriy to'plagan xadislari «Al Jome' as-saxix» yoki «Saxixi Buxoriy» deb ataladi va dunyo musulmonlarining 90 foizi uchun Qur'ondan keyingi eng mo'tabar va asosiy manba hisoblanadi. Al-Buxoriy, at-Termiziy, an-Nasafiy xadislari to'plamlari va boshqa asarlari ham kamida 12 asrdan buyon necha avlodning dunyoqarashi, axloqi, imon-e'tiqodi, hayotga munosabati – ma'naviyati shakllanishiga, takomillashishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Fiqh (islom huquqi) ilmini rivojlantirishda katta xizmat qilgan Burxoniddin Marg'iloniy (1197 y vafot etgan), Abu Lays Samarqandiy, Abdul Hasan Xorazmiy, Najmiddin an-Nasafiy va boshqalar nomi mashhur. Ayniqsa, Burxoniddin Marg'iloniyning «Hidoya-fil-furuz» asari xanafiya mazxabi bo'yicha islom huquqshunosligining eng teran asarlaridan biri sifatida nafakat islom olamida balki, G'arbda ham mashhur.

Islom ilohiyot ilmi (islom diniy-falsafiy ilmi) kalom – yakka xudolik, tavhid, olam, borliq, inson ularning yaratilishi, mohiyati, mavjudligi, e'tiqod mazmuni, olamning, insonning o'zgarishi, taqdiri va h.k. masalalarni qamrab oladi. Shu bois «At –tafsir al-Qur'on» ilmi dastlab kalomning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kalom ilmini rivojlantirishda ajdodlarimiz munosib hissa qo'shdilar. Muhaddislik va fiqh sohaları kabi kalom ilmi borasida atoqli va daho olimlarni mutakallimlari yetishtirdi. Bu daho olimlardan Abu Mansur al-Moturidiy va Abul Mu'in an-Nasafiy nomlarini eslash kifoyadir.

Diniy ta'lim tizimi. Musulmon dunyosida diniy ta'limning tashkil etilmagan shakli asosiy bo'lib, unda ustoz-shogird binomi muhim rol o'ynaydi. Maktab-madrasa tizimi vujudga kelishida metsenatlik (homiylik) hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Davlatning yoki shahar boylarining homiyligi bu tizim bitiruvchilariga o'ziga xos ijtimoiy buyurtma vazifasini o'tar edi. Avvaliga ijtimoiy vazifa hisoblangan o'quv jarayonini tashkil etish ustidan nazorat etuvchi shayx al-islom mansabi ham ko'p o'tmay davlat e'tiborini o'ziga qaratdi. Natijada diniy ta'lim tizimini tashkil etish jamiyat hayotida strategik omillardan biriga aylandi. Kim bu jabha ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqara olsa, u jamiyat rivojlanishi yo'nalishlarini belgilay boshladi.

O'rta Osiyodagi diniy ta'lim tizimi mazmunan ikki davrga bo'linishi mumkin: 1) Mo'g'ullar istilosidan avvalgi davr; 2) Mo'g'ullar istilosidan keyingi davr. Bu ikki davr darsliklar ro'yxati, ta'limning maqsadi, undagi o'qitish darajalariga qarab bir-biridan ancha farq qiladi. Temuriy Shohrux (1405-1447) davrida ikkinchi davr yangi

diniy ta'lim tizimining tamal toshi qo'yildi. Mazkur tizim, ba'zi kichik tafsilotlarni hisobga olmaganda, to XX asr boshlarigacha o'zgarmay keldi. Uning negizini Movarounnahr va Huroson ulamolari yaratgan asar-darsliklar qurdi. Bu yerda Moturidiya-Ash'ariya kalomi qorishmasi, hanafiy fiqhi, ahl al-hadis to'plamlari, arab filologiyasi, mantiq bo'yicha darsliklar asosiy o'rinda turar edi.

Islahotlar. Yevropa madaniyatining nisbatan kech – XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoga kirib kelishi jamiyat hayotining turli jabhalarida, shu jumladan, din sohasida ham islohotlarning boshlanib ketishiga turtki bo'ldi. *Usul-i jadid* tarafdorlari diniy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish jamiyatni isloh qilishda hal qiluvchi omil bo'la oladi deb hisobladilar. *Usul-i qadim* tarafdorlari esa an'anachilik mavqeini egalladilar. Diniy ta'lim islohchilaridan kommunistlar darajasiga bo'lgan yo'lni bosib o'tgan jadidchilar dunyoviy ta'lim tizimini yaratishni diniy ta'lim tizimini batamom yo'q qilish orqali amalga oshirish amaliyotini ma'qulladilar. Bu esa o'sha paytda olib borilgan sekulyarizm (hayotning barcha jabhalarini din ta'siridan to'lig'icha tozalash) siyosatiga mos kelardi. Natijada islohchilik harakati din va din peshvolarini ta'qib etish siyosatiga aylanib ketdi. Qatag'on yillarida uch karra olib borilgan «katta tozalash»lar («chistka» – 1927, 1936-37, 1949 yillar) oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talafotlar yetkazildi.

Nazariy islom va xalq islomi. Mazkur xatti-harakatlar salbiy oqibatlaridan eng asosiysi – diniy madaniyatning nazariy qismi daf etilib, diniy hayot dinning quyi darajasi – xalq islomi bilan cheklanib qoldi. Natijada ma'naviy qashshoqlashish chuqurlashib, milliy madaniyat bir taraflama rivojlana boshlanadi. Diniy hayot oilaviy marosimlar (janoza, xudoyi), tabibchilik, folbinlik, muqaddas joylarga ziyorat (mushkil-kushod) kabi amallar chegaralandi. Oilalarda, hujralarda noqonuniy (illegal) xususiy diniy ta'lim berish kuchaydi. Tabiiyki, tez orada bu sohalardagi faoliyat nazorat qilib bo'lmaslik darajasiga yetdi. Ba'zi diniy faollar siyosiy muxolifat mavqeini egalladilar. Mayda tovar ishlab chiqarish (tomorqa, savdo-sotiq, mayda va o'rta biznes) kapitalistik rivojlanishning negizidir. Bu iqtisodiy muhitning mafkurasi aksar hollarda xalq islomidan ozuqa oladi. Mazkur ijtimoiy qatlamlarning kuchayishi yangi diniy ideologlarni maydonga olib chiqdi. Noto'liq, bir tomonlama bilim olgan, nazariy jihatdan zaif din peshvolari ikki yo'l o'rtasida turib qoldilar.

Milliy manfaatlar va mahalliy ulamolar. Islom madaniyati alohida olingan muayyan jamiyatlarda rivojlandi va buning natijasida ma'lum mintaqaviy shakllarga ega bo'ldi. Konkret islom faqat mintaqaviy shakllardan tashkil topgan. Mintaqaviy islom asosida milliy madaniyat, mafkura va manfaatlar yotadi. Uzoq asrlar rivojlanish natijasida O'rta Osiyoda ham islom dini milliy madaniyat bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Natijada O'rta Osiyo sivilizatsiyasi doirasida islomning to'la qonli, o'z-o'ziga yetarli, har taraflama boy shakli vujudga keldi. Unda umumislomiy unsurlar bilan birgalikda regional milliy xususiyatlar ham mavjuddir. Asrlar osha mazkur nazariy va amaliy bilimlar xazinasi saqlovchisi va uni o'zgargan davrga moslab turuvchi – yuksak darajada tayyorgarlik ko'rgan mahalliy ulamolar bo'lib kelgan. Bu ulamolar muhiti – mintaqaviy islomning muhim tashkil etuvchi qismidir. Keyingi ikki asr davomida bu

muhitning surunkali zaiflashib borishii oqibatida mintaqamizga islom dunyosining boshqa qismlaridan begona milliy manfaatlar vakillari, ifodachilari bo'lgan yot ulamolarning kirib kelib, faoliyatlarini boshlab yuborishiga sabab bo'ldi. Milliy tiklanish, rivojlanish shartlari diniy hayotda normal holatni shakllantirishni talab etadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:

1. O'rta Osiyo xalqlari diniy tajribasi tarixi qaysi davrdan boshlanadi?
2. Islomlashuv jarayonida milliy madaniy qadriyatlar ahamiyati qanday?
3. O'rta Osiyolik qanday olimlarni bilasiz?
4. Islom ta'limotini rivojlantirishda o'rta osiyolik ulamolarning roli qanday?
5. Yevropa madaniyati kirib kelishi bilan diniy hayotda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
6. Diniy ekstremizmga qarshi kurashda nimalarning ahamiyati bor?

Adabiyotlar:

1. Karomatov Q. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: FAN, 1993.
2. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T.: FAN, 1971.
3. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. A chronological and genealogical manual. Edinburgh: University Press, 1996.
4. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Parts I-III. Bloomington: Indiana University, 1995.
5. DeWeese D. Islamisation and Native Religion in the Golden Horde. Baba Tukles and the Conversion to Islam in Historical and Epical Tradition. Pennsylvania: Pennsylvania State University Press, 1994.
6. Kavakc?, Yusuf Ziya. XI ve XII. As?rlarda Karahanl?lar Devrinde Mavara' al-Nahr Islam Hukukcular?. Ankara, 1976.
7. Kurt H. Orta Asya'n?n Islamlashma Sureci (Buhara ornegi). Ankara. 1998 (Fecr Yay?nlar?, 58).
8. Madelung W. The Spread of Maturidism and the Turks // Actas IV Congresso de Estudos Arabes e Islamicos. Coimbra-Lisboa 1 a 8 de Setembro de 1968. Leiden: E.J.Brill. 1971, B. 109-168.
9. Madelung W. The Early Murji'a in Khurasan and Transoxania and the Spread of Hanafism // Der Islam, LIX (1982), B. 32-39.
10. Paul J. Doctrine and Organisation: The Khwajagan / Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin // ANOR. No. 1. Halle-Berlin, 1998.
11. Subtelny, Maria Eva and Khalidov, Anas B. The Curriculum of Islamic Higher Learning in Timurid Iran in Light of the Sunni Revival under Shah-Rukh // Journal of the American Oriental Society, 115 (1995), B. 210-236.
12. Babadjanov B.M. Politicheskaya deyatelnost' shayxov Nakshbandiya v Maverannaxre (1 pol. XVI v.). Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. T., 1996.
13. Bol'shakov O.G. Gorod v kontse VIII-nachale XIII v. // Belenitskiy A.M., Bentovich I.B., Bol'shakov O.G. Srednevekovyy gorod Sredney Azii. Leningrad, 1973, B. 132-352.
14. Ibragimov N. Ibn Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii. M., 1988.
15. Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Entsiklopedicheskiy slovar'. Pod redaktsiey S.M.Prozorova. Vypuski 1-3. M., 1998-2001.
16. Kamaliddinov SH.S. «Kitab al-ansab» Abu Sa'd Abdalkarima ibn Muxammada as-Sam'ani kak istochnik po istorii i istorii kul'tury Sredney Azii. Tashkent: FAN, 1993.

17. Kochnev B.D. Musul'manskiy chekan Sredney Azii // Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Vipusk 3 (2001), B. 69-71.
18. Radtke, Bernd. Teologi i mistiki v Xurasane i Transoksanii // Sufizm v Tsentral'noy Azii (zarubejnye issledovaniya). Sbornik statey pamyati Fritsa Mayera (1912-1998). Sostavitel' i otvetstvennyy redaktor A.A.Xismatulin. Sankt-Peterburg, 2001, B. 40-76.

4-mavzu: Dunyoviy davlatning dinga munosabati

Reja:

1. Din va davlat munosabati.
2. O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat.

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 31-moddasi

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Binobarin, uning zahirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umumijahon Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisa – turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi. Zero, odamlar doim turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. Har kimning o'z ichki dunyosi, o'z e'tiqodi bo'ladi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u ma'lum ijtimoiy vaziyatda albatta namoyon bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'ektiv va sub'ektiv omillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari «vijdon

erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda milliy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham albatta nazarda tutish kerak.

Shu jihatdan 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir fuqaro uchun vijdon erkinligi huquqining kafolatlanishi tabiiy holdir. Yana bir muhim tomoni – keyingi yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda salmoqli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Dinning jamiytdagi o'rni tiklanmoqda. Diniy uyushma va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyat yaratilmoqda. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi, yangi masjidlar ochilmoqda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi printsiplarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. 1998 yilda bu qonunning yangi tahriri qabul qilinib, 15 may kuni matbuotda e'lon qilindi va shu kundan e'tiboran u kuchga kirdi.

Mazkur qonun 23 moddadan iborat. Uning 1-moddasida ushbu qonunning maqsadi nimalardan iborat ekanligi ochiq va ravshan bayon etilgan: «Ushbu qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat».

Qonunning 3-moddasi vijdon erkinligi huquqi haqida bo'lib, unda har bir fuqaro dinga munosabatini o'zi mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanajagi ta'kidlandi.

4-moddada fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, teng huquqliligi haqida so'z boradi. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilot va diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat ishlariga aralashmasligi lozim. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtirok etish huquqiga egalar.

Shuningdek, mazkur moddada davlat turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga, xususan, bir diniy konfessiyadagi dindorni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlarga, missionerlikka yo'l qo'ymasligi ta'kidlangan.

Diniy tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasida diniy xarakterga ega bo'lgan partiyalar tuzish, respublikadan tashqaridagi diniy partiyalarning bo'lim yoki filiallarini ochish man etiladi.

Dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning bunday faoliyatlari taqiqlanadi.

Fuqarolar dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ta'limning xilma-xil turlari va darajalarini egallashi mumkin. Qonunning 9-moddasida ko'rsatilishicha, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylarni va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga muvofiq umumiy majburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy ta'lim beruvchilar maxsus diniy ma'lumoti bor kishilar bo'lib, bolalarni o'qitish uchun diniy boshqarmaning yoki markazning ruxsatnomasiga ega bo'lishi kerak. Xususiy diniy ta'lim berishga yo'l qo'yilmaydi. Bu qonun-qoidalarni buzganlar qonun oldida javobgardirlar.

Diniy tashkilotlar diniy ta'lim olish uchun fuqarolarni chet elga yuborishlari va chet el fuqarolarini ta'lim olish uchun qabul qilishlari mumkin.

Diniy tashkilot – bu ma'lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyushmasidir (masjid, cherkov, sinagoga, diniy o'quv yurtlari va h.k.). Uni tashkil etish uchun unga bir xil e'tiqodga ega bo'lgan kamida 100 kishi a'zo bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi 18 yoshga to'lganidan keyin ma'lum diniy jamiyatga a'zo bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlar o'z mulklariga ega bo'ladilar. Binolar, din bilan bog'liq buyumlar, ishlab chiqarish va xayriya ishlariga mo'ljallangan inshootlar, pul mablag'lari hamda diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulk diniy tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy xayriyalardan, shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag'lardan davlat solig'i undirilmaydi.

Ibodot, diniy rasm-rusum va marosimlar o'tkazish mahalliy hokimiyat tomonidan taqiqlanmaydi. Qonunning 3-moddasida ko'rsatilishicha, dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanish mumkin.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga haqlidirlar. Ular davlat, jamoat korxonalari va tashkilotlarining ishchi xizmatchilari bilan baravar soliq to'laydilar, ijtimoiy ta'minlanish va sug'urta qilish xizmatlaridan foydalanadilar. Umumiy asosda pensiya olish huquqiga egalilar.

Qonunning oxirgi 23-moddasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni buzgan kishilar qonun oldida javob berishlari ko'rsatilgan.

Konstitutsiyada hurfiylik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilgan. Unda dinning tarbiyaviy ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi lozimligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Uning hududida 15 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Yuqoridagi qonunda keltirilganidek, ular Konstitutsiya oldida huquq va majburiyat yuzasidan tengdirlar. Konstitutsiyaning 12-moddasida ta'kidlanishicha, hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Shunga ko'ra hech qanday konfessiya boshqalaridan ustun deb qaralishi yoki ularga o'z ta'sirini o'tkazishga intilishi mumkin emas.

Dunyoviy davlat bu din davlatdan ajratilgan davlat. Binobarin, din dunyoviy davlat ishiga, siyosatiga aralashmaydi. Ayni paytda davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi. Ularning davlat qonunlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Dunyoviy davlat – bu o'z fuqarolari uchun vijdon erkinligini e'lon qiladigan davlat. Bunday davlatning fuqarolari dinga munosabatidan qat'iy nazar qonun oldida teng bo'ladilar. Fuqarolarni dinga qanday munosabatda bo'lishiga qarab, ularning huquqlarini biron-bir tarzda cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, har bir fuqaroga diniy e'tiqodini, ro'kach qilib, davlat qonunida unga nisbatan belgilab qo'yilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga ham yo'l qo'yilmaydi.

Dunyoviy davlat – bu biror dinga imtiyoz berilmasligini, barcha diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligini e'lon qilgan va uni amalda ham ta'minlaydigan davlatdir.

Dunyoviy davlat dinning davlatga, amaldagi qonunlarga qarshi targ'ibotiga yo'l qo'ymaydi, diniy qarama-qarshiliklar, toqatsizliklarning yuzaga kelishiga ruxsat bermaydi.

Dunyoviy davlat bu – o'z ta'lim tizimini dindan ajratgan, o'quv dasturlari diniy fanlardan xoli bo'lgan hamda, ta'lim mazmuniga din singdirilmaydigan davlatdir.

Ayni paytda, dunyoviy davlat o'z fuqarolariga qonunlarga belgilangan tartibda diniy ta'lim olishni ham kafolatlaydigan davlatdir. Dunyoviy davlatda diniy tashkilotlarning faoliyati davlat hisobidan mablag' bilan ta'minlanmaydi. Binobarin davlat Konstitutsiyasi va qonunlari asosida uning amal qilish tartiblari belgilab beriladi.

Davlat va din o'rtasida o'rnatiladigan munosabat qonunlar asosida o'rnatiladi va diniy faoliyat davlat tomonidan doimo nazoratda bo'ladi. Diniy faoliyat olib boruvchi barcha muassasalar diniy tashkilot deb ta'riflanadi. Har bir dunyoviy davlatda diniy tashkilot faoliyati davlatning boshqaruv shakliga asosan davlat oliy organi hamda Konstitutsiyasiga binoan belgilanib uning asosida chiqariladigan qonunlar bilan tartibga solinib turadi.

Diniy tashkilot - diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga kumaklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtda u fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan hisoblanadi. Diniy tashkilotlarning ta'limoti, tarixiy an'analari, diniy uyushmalar tuzilishida tutgan o'rni va roli turli-tuman bo'lishi mumkin. Fuqaroning diniy tashkilotga a'zoligi uning huquqiy maqomini, jumladan boshqa shaxslar bilan tengligini cheklab qo'ya olmaydi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi ularning o'zini-o'zi boshqarishidir, ya'ni ular ma'muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan. Diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, davlat ularning ichki aqidaviy ishlariga aralashmaydi. Ular o'z ustav (nizom)lariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga egadirlar. Diniy tashkilotlarning ustavlari ularning tuzilishi, diniy ta'lim va faoliyatning boshqa masalalarini belgilab beradi. Ba'zi diniy tashkilotlar iyerarxiya tizimida tashkil topgan. Masalan, O'zbekiston musulmonlar idorasi, Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, masjidlar, cherkovlar, o'quv yurtlari mahalliy tashkilotlar va o'z boshqaruv organlariga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi qonunida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinogoglar, monastirlar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi. Tegishli ustav asosida faoliyat yurituvchi Respublika diniy uyushmalari O'zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Viloyat, tuman va shaxar, shaxarcha va qishloq hududida bo'lgan shaxar hokimligi adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Diniy tashkilot ro'yxatga olinganidan so'ng u yuridik shaxsga aylanadi. Diniy tashkilot yuridik shaxs sifatida qonunlarga va o'z nizomiga muvofiq holda huquqlardan foydalanadi, hamda majburiyatlarni o'taydi. Diniy tashkilot rahbarining tashkilot ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi qonun xujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi. Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'gan mansabdor shaxslar qonun xujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Diniy tashkilotlar faoliyati ikki holda: ular o'z nizomlariga muvofiq tugatilganda va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi qonun

–qoidalar yoki boshqa qonun hujjatlariga rioya qilinmaganda to'xtatiladi. Diniy tashkilot faoliyatini to'xtatish chog'idagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligining adliya boshqarmalari tomonidan qabul qilinadi. Diniy tashkilotlar qabul qilgan qaror ustidan xalk sudiga shikoyat qilish huquqiga ega, shikoyat fuqarolik ishlarini yurituvchi sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Diniy tashkilotlar tasarrufida binolar, ishlab chiqaruvchi korxonalari, ijtimoiy va xayriya ob'ektlari, diniy anjomlar, ular faoliyatini ta'minlash uchun zarur transport vositalari, pul va boshqa mulklar bo'lishi mumkin. Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqi qonun tomonidan himoya qilinadi.

2. O'zbekiston davlati o'z fuqrolarining diniy e'tiqodlarini hurmat qiladi.

Ayni paytda, dinlar va diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab qo'yilgan quyidagi talablarga ham rioya etishlari lozim.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish;
- Dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borish, millatlararo adovat uyg'otish va fuqarolararo totuvlikni buzish vositasi sifatida foydalanmaslik;
- Diniy tashkilotlarning davlat ro'yxatidan o'tishi;
- Diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslarning diniy tashkilot rahbariyati ruxsati bilangina o'ktish ishlarini olib borishlari;
- Dindorlardan majburiy pul yig'imi yig'imaslik va tulovlar undurmaslik;
- Ta'qiqlangan g'oyalarni, adabiyotlarni, kino, foto va video tasvirlarni tarqatmaslik va ishlab chiqarmaslik.

O'zbekiston davlatida yana quyidagilar man etilgan:

-Diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakatlarini tuzish. Bu haqda O'zbekiston Konstitutsiyasining 57-moddasida aniq ifoda qilingan.

Ayni paytda Respublikamizda chet davlatlarda tuzilgan diniy partiyalarning bo'limlari tuzilishi ham ta'qiqlanadi:

- Terrorchilik, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek, boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalarning faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi;
- Dindorlar va diniy tashkilotlarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyik o'tkazishi ta'qiqlanadi;
- Yashirin diniy faoliyat Bilan shugullanish ta'qiqlanadi;
- Davlat ro'yxatidan o'tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi;
- Diniy tashkilotlar xizmatchilarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodining ro'yxatga olinishi ta'qiqlanadi;
- Diniy tashkilotlar xizmatchilarining hokimiyat vakillik organlari deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinishi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar:

- Birinchidan, vijdon erkinligi masalasining, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasida munosabat masalasining mustahkam huquqiy negizi yaratildi. Bu huquqiy negiz –

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonundir.

- Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda fuqarolar va diniy tashkilotlar uchun kafolatlangan huquqiy imkoniyatlar to'la ro'yobga chiqarilmoqda. Dinning mavqeyi tiklandi, barcha diniy uyushmalarga, jamoalarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoiyati yaratilmoqda.

- Uchinchidan, O'zbekiston hukumati musulmonlarning xohish istaklarini inobatga olib, islom dunyosining muqaddas yodgorliklarini, tarixiy obidalarini diniy tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazdi.

- To'rtinchidan, yangi masjidlar ochildi, eskilari ta'mirlandi. Masjidlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi, hamda davlat oldidagi ma'suliyati belgilandi.

- Beshinchidan, din arboblari va ruhoniylar uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Diniy tashkilotlarga o'z davriy nashrlarini chop etish yo'lidagi to'siqlar olib tashlandi. Diniy adabiyotlarning chop etilishi sezilarli kupaydi. Xususan, Qur'oni Karim va hadislar o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

- Oltinchidan, hamyurtlarimiz hajga va umraga - Maka va Madina ziyoratiga, diniy farzni ado qilishga borib kelmoqdalar.

- Yettinchidan, Respublikamizda muqaddas Ramazon va Qubon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilindi.

- Sakkizinchidan, diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

- To'qqizinchidan, Vazirlar Mahkamasi huzurida diniy ishlar qo'mitasi tashkil etildi. Toshkent Islom universiteti, Xalkaro Islom tadqiqot markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

- Uninchidan, mashxur din arboblarning xotiralari ulug'lanmoqda, ularning tavalludiga bag'ishlangan yubiley va anjumanlar katta tayyorgarlik bilan keng ko'lamda nishonlanmoqda.

Prezident Islom Karimov buyuk ajdodlarimizni ulug'lash masalasi xususida shunday degan edilar : «Xalqimizning tarixiy xotirasi ajoyib nomlarga boy. Ko'pgina allomalarimiz ma'naviyati keng va Ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolardir. Ular o'zlarini haqiqatga tashna va o'zi haqiqat bo'lgan xalqqa bag'ishlaydilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug' nomlari, xalq xotirasi va uning taqdiri munosib davom etishga haqlidir».

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e'tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
2. Diniy e'tiqod erkinligi haqida Konstitutsiyaning qaysi moddasida so'z yuritiladi?
3. «Diniy tashkilotlar» deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Diniy tashkilotlarga kimlar a'zo bo'la oladi?
5. Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo'llaydi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2003. – 48 bet.
 2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) / O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son. T., Adolat, 1998, 224-234-betlar, Xalq so'zi, 1998, 15-may, 2-bet.
 3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992.
 4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
 5. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
 6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998.
 7. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 1998, 5-may.
 8. Readon B. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. T., 2002.
-

5-mavzu: Islom shariati manbalari

Reja:

1. Sha'riy hukumlar olinadigan manbalar
2. Qur'oni Karim - islom dinining bosh manbasi
3. Sunnat, uning ta'rifi
4. Ijmo' va uning ta'rifi.
5. Qiyos ta'rifi.

Olimlarning isbotlaricha, inson qilmishlarining hukmi asosan to'rtta sha'riy manbadan chiqariladi. Ular Qur'on, sunnat, ijmo' (ittifoq) hamda qiyosdir. Ushbu to'rt manbaning hujjat ekanligiga hamda darajalari ham shu tartibga ko'ra ekanligiga hama olimlar fikr bildirishgan. Bular usulul ahkom, ya'ni hukmlarning asli, asosi deb ham aytiladi. Masalan, muftahiddan biror ishning sha'riy hukmini so'ralsa, u avval Qur'oni Karimdan javob axtaradi, topsa, unga binoan hukm qiladi. Agar topmasa, undan so'ng sunnati nabaviyyaga murojaat qiladi, javobi topilmasa, demak, sunnatga suyanib hukm chiqaradi. Agar undan ham topilmasa, so'ralgan ish hukmiga Payg'ambar alayhissalom vafotidan so'ng muftahidlar aynan o'sha so'ralgan ish yuzasidan yakdil fikrga kelgan bo'lsalar, o'sha javob bilan hukm chiqaradi. (Rasullohning hayotliklarida ijmo' bo'lmaydi, chunki u zot har bir savolga o'zlari javob beradilar). Agar bunday ijmo' bo'lmagan bo'lsa, muftahid u ishning sha'riy hukmini chiqarish uchun qiyos yo'li ila mazkur ishga o'xshash ishlar yuzasidan shariatga berilgan javoblarda ilmiy asosda yondashib, har tomonlama mulohaza qilib taqqoslab, o'zining bor ilmini sarflab javob topadi. Mazkur to'rtta

asosiy manbaning haqqoniyligiga hamda shu tartibda kelishiga Qur'oni Karimning Niso surasi, 59-oyati dalil bo'ladi. Mazkur oyati karimda «Allohgga itoat qiling»dan Qur'onga ergashish tushunilishi lozim. Rasulga itoat qilinglar, deyilganida ulomalarga ergashish anglashiladi. Ammo bir fikrga kelisha olmagan masalani ollohgga va rasuliga qaytarish – olloh va uning rasuliga aytgan hukmlarga solishtirish, ya'ni, qiyos qilish demakdi.

Hukm chiqarishda mazkur tartibga, ya'ni avval Qur'on, keyin sunnat, so'ng ijmo va undan keyin qiyos kelishiga yana bir dalil janobi Rasulloh (s.a.v)ning Muoz ibn Jabalni, Yaman musulmonlariga ta'lim bermoq uchun yuborayotgan vaqtlaridagi ko'rsatmalaridir.

Yuqorida sanalgan to'rtta manbaadan tashqari bir qancha manbaalar ham mavjud. Ammo bu manbalarni ba'zi olimlar manba bo'ladi desalar ba'zilari bo'lolmaydi deydilar. Bularning eng mashxurlari – al istixson, al-maslahatul mursalax, al-istixsob, al-urf, mazhabus-sahobiy va sha'ru man qoblana.

“Ilm – ul fiqh” huquqshunoslik to'g'risidagi fan bo'lib Islom huquqini turli sohalarini o'rganadi. Fiqh fani o'ziga xos fan bo'lib, u birinchi navbatda din masalalarini o'z ichiga oladi. Lug'atda «al-fiqh» so'zi «aql ila anglamoq, tushunmoq» ma'nolarini beradi. Istilohda esa u «islom huquqi»ni anglatadi. Fiqh fani – G'arbda Islamic Law, Muslim Law (ingliz tilida), le Droit musulman (frantsuz tilida), islamische Gesetz (nemis tilida) kabi nomlar bilan yuritiladi. Dunyoviy huquq normalaridan farqli o'laroq fiqh o'z ichiga ko'proq ibodat masalalarini ham qamrab oladi. Buni Tavrot kitobining ibodat masalalarini jamlab olgan Talmudga qiyoslash mumkin. Shuningdek, fiqh fuqaroviy jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi ba'zi mulkiy, fuqarolik va boshqa masalalarni ham bahs etadi. Bu esa, o'z navbatida, fiqhni yurisprudentsiyaga yaqinlashtiradi. Aynan shu jihat davlat huquqi tarixini o'rganuvchilar bilan diniy huquqni tadqiq etuvchi islomshunoslar orasida turli talqinlarni keltirib chiqarmoqda.

Fiqh ilmining musulmonlar uchun amaliy diniy qoidalarni ishlab chiquvchi «furu' al-fiqh» («fiqh tarmoqlari») va sakral manbalardan amaliy qoidalarni chiqarish (*istinbot*) uslublarini tadqiq etuvchi «usul al-fiqh» («fiqh asoslari») degan asosiy sohaları mavjud.

Fiqh ilmi *ummaning* olim kishilari orasida shakllana boshladi. Avval u *Ilohiy Kitobni* aqliy tushunish va izoh berishni anglatgan. Bu ma'noda ilk davrda *fiqh* (aqliy tushunish) *'ilm* (naqliy tushunish) ning aksini bildirgan. Asta-sekin islomning amaliy masalalarini bahs etuvchi fan shakllanib, unga *'ilm al-fiqh* nomi berildi. Payg'ambar vafotidan keyingi davrda Arab davlati hududlari tez sur'atlar bilan kengaya bordi. Uning tarkibiga Andalus (Ispaniya), Shimoliy Afrika, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa o'lkalar kiritildi. Fiqhning mintaqaviy maktablarida islom amaliyoti masalalari tezlik bilan ishlab chiqa boshlandi. Ularning an'analari o'zlari faoliyat olib borayotgan muhit va mahalliy madaniyat ta'siri ostida bir-biridan farq qilar edi. Bir-biridan uzoq bo'lgan yerlarda mustaqil fiqh markazlari paydo bo'ldi. Ular orasida katta arab qo'shinlari turgan Iroq (Kufa, Basra), Misr, Shom, Hijozning (Madina, Makka) ahamiyati yuqori bo'ldi. Mazkur mahalliy

markazlarning urf-odatları, ehtiyoj va shart-sharoitlari turlicha edi. Yangi ko'tarilgan masalalarga kirishilganda (*ijtihad*), har bir faqih turli yechim (*fatvo*) qabul qilardi. Bularning barisi ma'lum o'lkalarda turli mazhablarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Ilk rivojlanish davrida fiqhga doir bo'lgan masalalar miqyosi, ularni muayyan boblar va fasllarga bo'lib o'rganish an'analari shakllanib ulgurdi. Shu davrning o'zidayoq fiqh islom fanlari orasida o'z o'rnini oldi.

Muhaddislar (traditsionalizm) harakatining boshlanishi fiqh ilmining rivojlanishida yangi davrni ochib berdi. Faqat Payg'ambardan maxsus texnika (muhaddislar texnikasi) asosida naql qilingan xabargina muqaddas (diniy) ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikr diniy ilmlar sohasida eski qoidalarni zudlik bilan o'zgartirdi. Traditsionalizmning VIII asr mobaynida kuchayib borishi kalom va fiqh sohasida keskin burilish yasadi. Bundan avval qabul qilingan qoidalar yangi talablar asosida ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bu ishlarni amalga oshirishda ash-Shofi'iyning «ar-Risola» asari muhim rolni o'ynadi. Unda *naqliy* va *aqliy* uslublar, muqaddas matnlar o'zaro munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qiluvchi metodologiya asoslanib berildi. Bu bilan usul al-fiqh fani dunyoga keldi. «Ar-Risola» fiqh olimlari orasida shu davrgacha olib borilgan «Ahl al-hadis» va «Ahl ar-ra'y» guruhlarining ziddiyat va ixtiloflariga barham berdi. Mintaqaviy maktablardan personalashgan mazhablarga o'tish boshlandi. IX-X asrlardagi sunniy mazhablarning soni kamayib, XII-XIII asrlarda ulamolarning o'zaro kelishuvi (*ijmo'*) asosida ular to'rtta deb e'lon qilindi. Shu bilan bir qatorda *ijtihad darvozalari* yopilganligi haqidagi noreal fikr ham tarqatildi.

Bunga oid ko'p asarlar yozilgan bo'lib, fiqh bo'yicha eng avvalo paydo bo'lgan kitoblar orasida Imom Molik ibn Annosning «Al Mutavvo», Zayd ibn Hasanning «Majmu' al – fiqh», Ahmad ibn Hanbalning «Al Musnod» asarlarini aytish mumkin.

Fiqh sohasida eng mashhur asar vatandoshimiz Burxoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil al - Farg'oniy al – Marg'inoniy ar – Rishtoniyning «al – Hidoya fi – l – Furu» (fiqh sohalari haqida hidoya) kitobi.

VIII asrning oxiri-IX asrning boshlarida Movarounnahrda hanafiyya mazhabi tarqala boshladi. Buxoro va Samarqand shaharlarida shu mazhab ta'limoti asosida Movarounnahr fiqh maktabi tarkib topdi. Movarounnahrlik faqihlar teran bilimlari, qimmatli asarlari bilan islom dunyosida katta shuhrat qozondilar. Faqihlarning davlat hukmron doiralari, xalq ommasiga ta'siri juda kuchli edi. Diniy hayotda uchraydigan muammoli masalalar faqihlar orqali yechilgan. Fiqh shaxs, oila va jamiyat hayoti turli shahobchalari masalalarini qamrab olganligi tufayli Movarounnahr maktabi namoyandalari bu o'lka xalqlari an'analari, urf-odatlarini umumislom mavqelaridan turib tahlil qilishdek vazifani bajarganlar. Movarounnahrlik faqihlarning bir necha avlodlari faoliyati orqali mahalliy xalqlarning tarixiy, huquqiy an'analari islom madaniyatida o'z aksini topdi.

VIII-X asrlarda Movarounnahrning ayrim shaharlarida hanafiylikka asoslangan ilmiy markazlar paydo bo'ldi. Buxoro maktabiga Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (v. 832 y.) asos solgan. Samarqand ilmiy markazining shakllanishiga Abu Muqotil as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Juzjoni, al-Atakiylarning ta'siri katta bo'ldi. Buxoro faqihlari bu davrda asosan fiqhning amaliy masalalari (furu' al-fiqh) bilan, samarqandliklar esa o'z ilmiy faoliyatlarini ilohiyot (usul ad-din) mavzui bilan shug'ullanishga qaratdilar.

XI-XIII asrlarga kelib, fiqh rivoji yuksak pog'onaga ko'tarildi. Qoraxoniylar (999-1212) davri faqihlari umumislom darajasida shoh asarlar yaratib, hanafiya mazhabi klassiklari mavqeiga erishdilar. Haqiqatan ham Movarounnahr hanafiy mazhabining «qal'asi» edi, desak adashmaymiz. Sadrlar, ar-Rig'damuniy, az-Zaranjariy, al-Mahbubiy, as-Saffor, al-Pazdaviy, Samarqand sayyidlari, al-Xayzoxaziy, al-Aqiliy, al-Marg'inoniy oilalari ilm va ijtimoiy hayotda kuchli mavqega ega bo'ldilar.

XI-XII asrlarda faoliyat olib borgan Movarounnahr faqihlaridan Abu Zayd ad-Dabusi (v. 1037 y. dan avval), al-Halvo'iy (v. 1056 y.), as-Saraxsiy (v. 1088-1089 y.), al-Pazdaviy (v. 1089 y.), as-Sadr ash-Shahid (v. 1141 y.), Abu Hafs an-Nasafiy (v. 1142 y.), Alo' ad-din as-Samarqandiy (v. 1144-45 y.), Burhon ad-din al-Kabir al-Buxoriy (v. 1174-75 y.), al-Attobiy (vaf. 1190 y.), al-Kosoni (v. 1191 y.), Qozixon (v. 1196 y.) va Burhon ad-din al-Marg'inoniy (v. 1197 y.) kabi ma'lum va mashhur faqihlarning nomlarini keltirish mumkin.

2. Qur'oni karim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy (sakral) kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri *ahl as-sunna va-l-jamoa* ta'limotiga ko'ra, Qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliy ilmidir.

Muqaddas Yozuv ko'p nomlaridan biri bo'lgan «Qur'on» so'zi – arabcha «qara'a» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Boshqa fikrga binoan, u suryoniy tilidagi «kerain» – «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on mantlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu har xillik Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turli qiro'at maktablarining (ularning soni 14 dan ortiq) an'analari bo'yicha turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

Qur'ondagi suralar o'z mazmuniga yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko'ra – avval katta, so'ng kichik suralar tartibida Payg'ambar vafotidan ancha keyin yig'ilib, joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmli ikkinchi surada 286 oyat bor bo'lsa, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.

Islomshunoslik va qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

1. Birinchi Makka davri (610-615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan saj' janridagi suralar o'qilgan. Yevropa olimlari ularga «Nazmiy suralar» deb nom berganlar.

2. Ikkinchi Makka davri (616-619 yillar). Bu suralar Muhammad payg'ambar va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchiligi Habashistonga ko'chib ketgan vaqtda o'qilgan. Bu suralarda Allohning «Rahmon» sifatida ko'p tilga olinganligi sababli Yevropa olimlari ularni «Rahmon suralari» deb ataganlar.

3. Uchinchi Makka davri (619 yil boshlaridan – 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad payg'ambar va uning izdoshlari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida payg'ambarlar haqidagi asotir-hikoyatlarga keng o'rin berilganligi sababli, yevropalik olimlar bularga «Payg'ambarlik suralari» deb nom berganlar.

4. Tarixiy voqealarni aniqroq aks ettirishini e'tiborga olgan holda Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo'lish davrini quyidagi besh bosqichga ajratish mumkin:

A. I davr (622 yil oktyabridan 624 yilgacha). Muhammad payg'ambar Madinaga ko'chib o'tganlaridan so'ng to makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv – Badr jangigacha o'qilgan 4 sura bu davrga kiradi.

B. II davr (624 yil martidan 625 yil martigacha). Bu davr Badr jangidan to Uhud jangigacha o'tgan bir yil mobaynida o'qilgan 3 surani o'z ichiga oladi.

V. III davr (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhuddagi mag'lubiyatdan to Xandaq jangigacha o'tgan ikki yil ichida beshta sura nozil bo'lgan.

G. IV davr (627 yil aprelidan 630 yil yanvarigacha). Bu davrga Xandaq jangidan to Makka fathigacha o'tgan salkam uch yil ichida o'qilgan 8 sura kiradi.

D. V davr (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fathidan Muhammad payg'ambarning vafotigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida yana to'rtta sura nozil bo'lgan.

Muhammad payg'ambar vafotidan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg'ambardan so'ng musulmonlarga Abu Bakr boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634) mo'minlar va murtaddlar (*dindan qaytgan*) o'rtasida shiddatli janglar (yuqorida eslatilgan *Ridda* voqealari) bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Qur'onni to'liq yod olgan *muqri'lar* (qorilar) ko'plab *shahid* bo'ldilar. Shunda bo'lajak xalifa Umar ibn al-Xattob (634-644) Abu Bakrga: «Barcha qorilar shu zaylda o'lib ketaversa, Qur'on nuqsonli bo'lib qolishi mumkin, shu sababli

uni jamlab kitob holiga keltirish zarur», - degan maslahatini beradi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi, chunki bu ish Payg'ambar hayotlik paytlarida qilinmagan edi. Bu hol bid'at deb qabul qilinishi mumkin edi. Keyinroq Abu Bakr ham Qur'onni kitob shakliga keltirib qo'yish zarurligini anglab yetdi va Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib bu ishni unga topshiradi. Shunday qilib, Zayd va boshqa qorilar mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'onni kiyik terisidan bo'lgan sahifalarga yozib chiqdilar va bog'lab Abu Bakrning uyida saqlab qo'ydilar. Bu jamlanma keyinchalik «as-Suhuf al-bakriya» – «Abu Bakr sahifalari» deb nomlandi. Abu Bakr olamdan o'tgandan keyin jamlanma Umar ibn al-Xattob uyiga, u olamdan o'tgandan so'ng, uning qizi – Payg'ambar ayoli Hafsa qoldi.

Vaqt o'tishi bilan islom davlatida turli siyosiy guruhlar paydo bo'ldi. Ular o'rtasidagi ziddiyatlar xalifa Usmon ibn Affon (644-656) davrida o'tkirlashdi. Har bir guruh o'z siyosiy iddi'olarini Qur'on orqali asoslashga urinar edilar. Qur'onni o'qishdagi turli ixtiloflar bunga asos yaratar edi. Bu ixtiloflarni bartaraf etishni istagan xalifa Qur'onning yangi tahririni ko'chirishga buyruq beradi. Xalifa Usmon ibn Affon topshirig'iga binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur'on qismlarini yig'ib, taqqoslab chiqib, qaytadan Qur'on karim matnini jamladi. Qur'onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yilda xalifa Usmonga taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib undan yana uchta, ba'zi manbalarga ko'ra yettita nusxa ko'chirtirilib, arab askarlari turgan yirik shaharlardan – Basra, Damashq, Kufaga jo'natiladi. «Imon» deb nomlangan asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko'chirilgan nusxalar «Mushafi Usmon» deb ataldi.

Ilk Qur'on nusxalaridagi arab yozuvi nomukammal bo'lib, ularni Qur'onni to'liq yod biluvchi usta qorilargina o'qiy olar edilar. Hammaga faqat Qur'onning shu nusxasidan ko'chirishga buyruq beradilar. Saqlangan ilk nusxalar *hijoziy* va *kufiy* xatlarida ko'chirilgan. Mutaxassislarining fikricha, Arab davlatining poytaxtini 749 yilda Suriyadan Iroqqa o'zgartirilishi *hijoziy* xatining yo'qolib ketishiga olib keldi. Qur'on yozuvining hozirgi ko'rinishi faqat X asrga kelib to'liq shakllangan. Qur'onning shu kunimizgacha saqlanib qolgan nodir nusxalari arab yozuvi rivojining bebaho yodgorliklari hisoblanadi.

Arab tarixchilarining xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur'onni mutolaa qilib o'tirganida fitnachi musulmonlar tomonidan o'ldirilgan. U kishining qoni Qur'on sahifasiga to'kilgan, degan naql xalq orasida keng tarqalgan. Bundan Kufadagi kitob savdogarlari foydalanib, ko'p nusxada «qonli» Qur'on nusxalari tayyorlab sotganlar. Hozirgi paytda jahon muzey va kutubxonalarida bunday nusxalar saqlanadi. Ulardan biri Toshkent shahrida O'zbekiston musulmonlar idorasida saqlanadi. Unda ham qon izlari bo'lib, shu nusxa aynan xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Mazkur Qur'on 353 varaqdan iborat bo'lib, varaqlar o'lchami 68x53 sm., matn yozilgan qism hajmi 50x44 sm. Sahifalar kiyik terisidan ishlangan bo'lib, har biriga 12 qatordan chiroyli *kufiy* xatida yozuv bitilgan. Ko'p varaqlari yo'qolgan va keyinchalik qog'oz sahifalar bilan to'latilgan.

Tataristonlik mashhur olim Shihobuddin al-Marjoniyni (1818-1889) aytishicha, Qur'onni qayta tiklash Samarqandda joylashgan «Mug'ak masjidi» imomi Abdurrahim ibn Usmon al-O'tiz-Imoniy (vaf. 1838 y.) tarafidan bajarilgan.

Usmon Qur'oni ruslar O'rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo'ja Axror madrasasida saqlanar edi. Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham mutaxassislar orasida har xil taxminlar mavjud. Ulardan birida muqaddas kitobni Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy (976 yili vafot etgan, Toshkentda dafn qilingan) Bag'doddan olib kelgan, deb hikoya qilinadi. Avlodlar osha Abu Bakr Qaffol Shoshiy merosxo'rlaridan Xo'ja Ahror qo'liga o'tgan bo'lishi mumkin. Xo'ja Ahror va uning avlodlari bu nusxadan zamonalarining boshqa sufiy tariqatlari shayxlari bilan bo'lgan raqobat kurashida unumli foydalanganlar. Bu nusxa vositasida ular o'zlarining islom sarchashmalariga yaqinroq ekanliklarini isbotlamoqchi bo'lganlar. Chunonchi, Ishqiya tariqati shayxlari ahroriy naqshbandiylarga qarshi Qur'onning o'z qadimiy nusxalariga – Katta Langar Qur'oniga ega bo'lganlar.

Ikkinchi bir rivoyatda esa, Xo'ja Ahror muridlaridan biri Makkadan haj qilib qaytayotganida Istambulga kiradi va sultonni og'ir hastalikdan davolaydi. Sulton minnatdorchilik bildirib, unga Qur'onni hadya qiladi.

Ko'pchilik arabshunos olimlarning fikricha, bu Qur'on Amir Temur (1370-1405) tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va Temurning mashhur kutubxonasiga qo'ydirilgan. Temuriylar davridagi (1405-1506) o'zaro kelishmovchiliklarda Temur kutubxonasi yondirilib yuborilgan. Tasodifan shu nusxa omon qolgan. Bu fikr haqiqatdan uzoqroq. Chunki Amir Temurning kutubxonasi haqidagi farazlar hali isbotlangani yo'q. Ikkinchi tarafdin, Amir Temur zamonida boshqa bir Qur'on nusxasi hukmdorlar diqqat-e'tibori markazida edi. Bu Samarqand jome-masjidi (keyinchalik bu masjid Bibi-xonim masjidi nomini olgan) sahniga qo'yilgan Boysung'ur Qur'onidir.

Toshkent Qur'onini ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan Sankt-peterburglik sharqshunos olim A.F. Shebunin fikricha, Qur'on Basradan Amir Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan. Chunki, A.F. Shebunin Parij, Berlin va Makkadagi boshqa nusxalariga solishtirib, bizdagi Qur'onning Basra nusxasi ekanligini isbotlashga harakat qildi. Darhaqiqat, bu muqaddas kitob eski nusxalardan hisoblanib, u VIII asr oxiri-IX asr boshlarida yaratilgan.

1868 yilda rus askarlarining Samarqandga kirishi bilan Usmon Mushafiga e'tibor kuchaydi. Musulmonlar Qur'onni yashirinchalik Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramov qulog'iga yetib, «fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslikning hamma chorasi ko'rilsin», deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga yetkazadi. U, o'z navbatida, 1869 yil 24 oktyabrda Usmon Qur'onini Sankt-Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar nazoratida jo'natdi.

Bu Qur'on nusxasi ustida tadqiqotlar boshlandi. Masalan, 1895 yili mazkur Qur'onning bir varag'i 2 ming nusxada chop etildi. 1905 yili esa Ilyos ibn Ahmad-shoh «Yosin» surasining fotonusxasini chiqardi. Shu yili S.I. Pisarev va F.I. Uspenskiy Qur'onni faksimile uslubida 50 nusxa chop etib, 25 nusxasini sotuvga chiqardi. Har bir nusxasiga 500 so'm baho qo'yildi. Ular faksimileni asl nusxasiga o'xshatish uchun hajmini ham o'shandayligicha qoldirdilar. Hozir bu faksimile nusxadan jumhuriyatda bir nechta bo'lib, biri O'zbekiston musulmonlarining diniy idorasi kutubxonasida, ikkinchisi – O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanadi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To'qumboev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur'onini o'z egalariga, ya'ni musulmonlarning o'lka s'ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur'on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podshoh kutubxonasining «Nodir qo'lyozmalar» bo'limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U. To'qumboev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo'natiladi. Qur'on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo'mi Usmon Qur'onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. Komissiya tarkibida sharqshunos olim Sultonxo'ja Qosimxo'jaev, professor A.E. Shmidt va din peshvolaridan 3 vakil bor edi. Komissiya maxsus vagonda, qurolli kuchlar kuzatuvida Qur'onni Toshkentga keltirdilar. Shundan keyin Qur'on 1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo'ja Ahror jome' masjidiga topshiriladi. Lekin ko'p o'tmay Qur'onni Toshkent eski shahar muzeyiga keltiradilar va u maxsus po'lat sandiqda saqlana boshlanadi. Eski shahar muzeyi birinchi o'zbek muzeyiga aylantirildi. Muzey 1926 yilning 1 yanvarida ochildi. 1926 yilning faqat bir oyi ichida muzeyni 4000 kishi kelib ko'rdi.

Qur'oni karimga ko'plab olimlar tomonidan turli *tafsirlar* yozilgan. Qur'on XII asrdan boshlab Yevropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. XVIII asr boshlarida Yevropa xalqlari tillaridan, XIX asr o'rtalarida arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilingan. G.S. Sablukovning arabchadan dastlabki tarjimasini Qozonda uch marta (1878, 1894, 1907 yillarda) nashr qilingan. Akademik I.Yu. Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan Qur'onning ilmiy izohlari bilan rus tiliga tarjimasini hanuzgacha mashhur. Bu tarjima uning vafotidan (1951 y.) keyin, 1963 va 1986 yillarda to'liq nashr etilgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo'lganidan so'ng Qur'oni karimni o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. Movarounnahr Diniy boshqarmasi vakillari Qur'onning o'zbek tilidagi tarjimasini nashr etishda bir qancha tarjimalar bilan tanishib chiqib, Alouddin Mansur tarjimasini muvofiq topdilar. 1992 yilda Qur'on o'zbek tiliga tarjima qilindi va «Cho'lpon» nashriyotida ko'p nusxada chop etildi. Shuningdek, «Zvezda Vostoka» jurnali Qur'on matnlarini akademik I.Yu. Krachkovskiy tarjimasida falsafa fanlari

doktori, professor, islomshunos olim M.A. Usmonovning tuzatishi va qisqa sharhi bilan «Qadimiy adabiyot yangiliklari» – «Drevniy pamyatnik literatury» turkumi ostida 1990 yildan boshlab berib bordi.

Qur'onga o'zbek tilida tafsir yozish ishlari shu bilan to'xtab qolmadi. 2001 yilda taniqli olim Abdulaziz Mansur tomonidan Qur'oni karim ma'nolarining izohli tarjimasini nashr etildi. Islomning ilk davridan to shu kunga qadar Qur'oni karimga turli tillarda, har xil yo'nalishlarda minglab tafsirlar bitilgan. Ularda Qur'oni karimni turli davrlar va muhitlarda tushunish o'z aksini topgan. Binobarin, vaqt o'tishi bilan Qur'onning yangidan-yangi ma'nolari kashf etila boradi. Shuning barobarida yangi tafsirlar ham maydonga kelaveradi.

Qur'oni Karim Olohning so'zi. Arabcha Qur'on «qiroat» o'qimoq degani. Islom dinining asosiy muqaddas kitobi va shariatning eng asosiy manbaidir. Islom an'anasida Qur'on Ollox tomonidan Muhammad (s.a.v) ga 23 yil mobaynida (610-632) hazrati Jabroil alayhissalom orqali vaxiy qilingan deb tasavvur etiladi. Qur'onda islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquq va axloq me'yorlari, inson uchun foydali bo'lgan har bir zamonga to'g'ri keladigan hikmatli hukmlar yozilgan. Qur'oni Karimning asosiy mavzusi va maqsadi, bashariyat tafakkurida ko'pxudolikka barham berish, yakka xudolikni targ'ib qilish va islom dinining o'rnatishidir.

Qur'oni Karim 30 pora, 114 sura 6236 oyatdan iborat bo'lib, oyatlarning 63 foizini Makkada, 37 foizini Madinada nozil bo'lgan oyatlar tashkil etadi. Ya'ni Qur'on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makkada shahrida nozil bo'lib, makkiy suralari deb ataladi. Ularning 19 tasi esa 622 yili yuz bergan hijratdan keyin 10 yil davomida Madinada nozil bo'lib, madiniy suralar deb qabul qilingan. Bu ikki turkum suralarining farqi shundaki, makkiy suralar asosan e'tiqod, ibodat masalalarini oliy axloqiy fazilatlar, erkin fikrlik, ilmu tafakkurni targ'ib qilishga qaratilgan bo'lsa, madiniy suralar fiqhiy axkom-muomalot, jinoyat va jazo, ommaviy munosabatlar, sulhu tinchlik bitimlari va musulmonlararo boshqa aloqalarga tegishlidir. Makkiy suralarda ko'pincha «Ey imon keltirganlar, ey mo'minlar!» deb, Madiniy suralarda esa asosan «Yo ayyuxannos!» (ey odamlar, ey insonlar) deb xitob qilinadi. Makkiy suralar 4780 ta, madiniy suralar 1456 ta oyatdan iborat.

Qur'onning boshqa ilohiy kitoblardan farqi shundaki u faqat aqidaviy g'oyaviy manba emas, balki qonun va axlok huquqidir. Qur'onning tilovati ibodat hisoblanadi. «**Al-fotiha**» surasidan boshlanib, «**An-Nos**» surasi bilan tugaydi. Bizga ham yozma va ham og'zaki ravishda mutavotir ya'ni, uning shu ko'rinishida boshidan oxirigacha aynan Jabroil alayhissalom keltirgan ilohiy kitob ekanligiga hech shubxa tug'dirmaydigan tarzda yetib kelgan. Har qanday o'zgarish va soxtalashtirishdan saqlangan. Chunki Alloh taollo o'zi uni saqlashni zimmasiga olgan. Ya'ni Qur'onning Hij surasi, 9-oyatida «Biz bu Qur'onni nozil qildik. Va biz uni saqlaguvchimiz» deb aytiladi.

Qur'onning xususiyatlaridan biri – uning lafzi ham, ma'nosi ham Ollohdan ekanligidir. Payg'ambar alayhissalom uni faqat o'quvchi va boshqalarga yetkazuvchi bo'lganlar xolos. Bu xususiyatdan quyidagilar kelib chiqadi:

A) Payg'ambar alayhissalomga Olloh tomonidan ilhom qilingan ma'nolar ham bor, lekin ularni payg'ambar o'z lafzalari ila so'zlaganlar. Ular **quddusiy** hadislar deyiladi va Qur'on hisoblanmaydi, ularga Qur'on hukmi berilmaydi, hujjat jihatidan Qur'on bilan barobar bo'la olmaydi.

B) Qur'on suralarini yoki biror oyatini arabcha aynan oyat beradigan ma'noni bildiradigan so'zlar bilan tafsir qilingan bo'lsa, Qur'on ma'nosini qanchalik aynan bera olsa ham, tasfir Qur'onga qanchalik muvofiq bo'lsa ham unga Qur'on hukmi berilmaydi;

V) Qur'on suralarini yoki biror oyatini arab tilidan boshqa tilga tarjima qilinsa, tarjimada Qur'on bergan ma'noni berishga qanchalik diqqat qilingan bo'lsa ham, unga Qur'on hukmi berilmaydi. Ollox taollo Qur'oni Karimni o'z payg'ambariga uning payg'ambarligiga dalil hamda kishilar uchun dastur qilib yuborilgan. Ilmiy kashfiyotlarni tasdiqlash ilohiy kitobning asosiy maqsadlaridan emas. Lekin xudoning borligi va birligiga dalil sifatida osmon va yerdagi jismlar harakati, ularning yaratilishi haqida Qur'onda ayrim ma'lumotlar bo'lib, u nozil bo'lgan davrda, ya'ni bundan 14 asr oldin bunday ilmlar bo'lmagan sharoitda ularning bildirilishi Qur'onning Ollox tomonidan nozil bo'lganligiga yana bir dalildir.

Masalan: «Allox taollo aytadiki: biz shamollarni urchituvchi kilib yubordik» (Hijr surasi, 22-oyat). Ma'lumki o'simliklar hosil berishi uchun erkak hujayra bilan urg'ochi hujayra bir-biriga qo'shilishi lozim. Buni o'simlikshunoslik fanida changlatih deyiladi. Daraxtlar gullagan paytda ko'pincha bahorda ko'prok shamol kelib, daraxt novdalarini qimirlatadi va o'simliklar gullarining bir-biriga chatishi hosil bo'ladi. Buni o'simliklar ilmi tasdiklaydi. Bunday misollarni Qur'oni Karim oyatlaridan ko'plab keltirsa bo'ladi.

Qur'oni Karimda keltirilgan qoida va me'yorlar uch xil bo'ladi:

1 - E'tiqodga taalluqli qoida va me'yorlar: bunga oqil kishi e'tiqod qilishi lozim bo'lgan narsalar kiradi. Allohga uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, o'lganidan so'ng tirilishiga ishonish;

2 - Axloqqa taalluqli qoida va me'yorlar. Bunga kishi qanday go'zal xulqlar Bilan ziynatlanishi va qanday yomon, yaramas xulqlardan uzoq bo'lishi ko'rsatilgan.

3 - Amaliyotga taalluqli qoida va me'yorlar. Bular insonning ishlari va so'zlari berilgan hukmlar bo'lib, boshqacha aytganda, Qur'on fiqihidir.

3. «Sunnat» arabcha «Yo'l» ma'nosini bildiradi. U yo'l yaxshi bo'lsin, yomon bo'lsin - sunnat deyiladi. Sunna Muhammad (s.a.v) ning so'zlari, qilmishlari, hatti-harakatlari, fe'llari (amallari) tasdiqlari, shuningdek saxobalarining so'zlari va amallari majmuidan iborat. Sunna haqidagi rivoyatlar hadislarida berilgan. Hadislar, to'plamiga sunna deyiladi. Hadis arabcha **rivoyat** degan so'zdan olingan bo'lib, islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Hadislar Muhammad (s.a.v)ning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Qur'on musulmonlar jamoasining barcha huquqiy va axloqiy masalalarini qamrab ololmaganligi sababli VII asr oxiri VIII asr boshlari hadislar yozila boshlandi va asta-sekin tizimga solindi. IX-X asrlar dindorlar orasida obro'li deb tanilgan hadislarining 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: Muhammad Al-Buxoriyning «Al-jome' as-Saxix» kitobi, Muslim An-Nishopuriyning «As-Saxix» kitobi, Ibn Mojaning «Sunan» to'plami Abu Dovud

As-Sijistoniyning hadislar to'plami, Muhammad At-Termiziyning «Al-jome' al-Kabir» kitobi, An-Nisoniyning «Sunnan» kitobidir. Ulardan «Saxixi Buxoriy» va «Saxixi Muslim» ko'proq e'zozlanadi. Sunna va Payg'ambar hadislarini to'plab, ularni ja'miy (to'kima) hadislardan ajratib olishda vatandosh allomamiz Imom Muxammad ibn Ismoil Buxoriy (810-892) unutilmas hissa qo'shib o'zidan abadiy va barhayot asarlar qoldirgan. Ko'pgina hadislar Qur'onning turli qoidalarini tushuntirib beradi va to'ldiradi. Ular ko'plab Amaliy masalalarni hal etishda muhim ijtimoiy vazifani bajaradi, ular haqida Qur'onda hech narsa aytilmagan hollarda esa hadislarining ahamiyati yanada ortadi. Lekin hadislar Qur'onga zid kelib qolgan taqdirda ular manba kuchiga ega bo'lmaydi.

Dastlabki xalifalarning an'analari huquqiy xarakterda bo'lib, payg'ambarimizning obro'si bilan bog'lik bo'lib kelgan. X asrdan buyon yuqorida ko'rsatilgan sunniylikning oltita mashhur to'plami o'zida islom an'analarni aks ettiradi. Islom amaliyoti ularni shunchalik muvofiqlashtirganki, oltita to'plamning hammasida mavjud bo'lgan hadislar muqaddas qonun mavqeiga ega bo'lgan. Islomshunos olim **A.Sh.Juzjoni**y ko'rsatishicha, tadqiqotchi olimlar sunnani ikki xilga bo'lib o'rganadilar.

Birinchi turi shundan iboratki, agar biror ish qilinmokchi bo'lsa, yaratuvchi tomonidan o'sha ishga tegishli fikr Payg'ambarga vaxiy orqali bildiriladi. Payg'ambar uni o'z so'zlari orqali bayon etadi. Bu vaxiy, ya'ni vahyi xafiyning Qur'on oyatlari, ya'ni vaxiy Jaliydan farqi shundaki, Qur'on oyatlarining ham mazmuni va ham iborasi Allox tomonidan Jabroil orqali yuborilgan.

Sunnaning ikkinchi turi shuki, agar musulmonlar hayotida tegishli biron bir yangilik kiritilishi zaruriyati sezilsayu, lekin uni hal qilish uchun Payg'ambarga vaxiy kelmasa, bunday axvolda Payg'ambarga ijtixod qiish, ya'ni masalani o'z shaxsiy fikri asosida yechish uchun ruxsat berilgan hisoblanadi.

Payg'ambar Qur'onning sharxlovchi sifatida tashri' qilish(qonun tuzish) vakolatiga ega bo'lgan. Shunga binoan Sunna tashri' (qonun tuzish) bo'yicha ikki asosiy sohani qamrab oladi. Birinchi soha Qur'onda zikr etilgan hukmlarni yoritib berishga bog'lik. Ikkinchi soha Qur'onda ko'rsatilmagan hukmlarning tashri' (qonuniy shaklda chiqarish)ga bog'lik bo'ladi.

Birinchi sohada sunna Qur'oni Karim oyatlarini tafsir va ta'vil qiladi, mujmal iboralarini izoxlaydi, umumiy ma'noga ega bo'lganini xoslashtiradi, mutloq ya'ni qaydu shartsiz oyatlarga qaydu shart qo'yadi. Ba'zi bir misollar: Qur'onda «Namoz o'qinglar» deb amr qilingan lekin namozlarning soni, sifati, rak'atlarining soni Payg'ambar tomonidan belgilab va amalda ko'rsatib berilgan bu esa mujmal iboralarni izohlash misolidir.

Umumiy mazmunini xos qilishga misol: Qur'onda meros tizimi, umumiy ma'noda kelgan, lekin Payg'ambar meros olish uchun din birligi, qotil bo'lmaslik va qul bo'lmaslikni shart qilib qo'yib, uni xoslashtirgan. Masalan otasini o'ldirgan yoki nohak yo'l bilan uning ulishiga sabab bo'lgan farzand otasidan meros olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Ikkinchi sohada Sunnaga tegishli bahs: zarurat chog'ida Qur'onda aytilmagan Biron bir yangi hukmni Sunna belgilab beradi. Bu o'rinda ba'zi hukmlar Payg'ambardan vahiy xafiy (ilxomga o'xshagan holat) orqali sodir bo'lgan va

ba'zilarining uning ijtihodi va shaxsiy fikridan kelib chiqqan. Masalan: nikoh bitimining to'g'ri bo'lishi uchun guvohlar shartligi.

4. Vaqt o'tishi bilan musulmonlar jamoasi – ummada vujudga kelgan vaziyat va muammolarni Qur'on va sunna to'liq qamrab olalmagan. Ular musulmonlar jamoasi-ummada ro'y bergan barcha muammolar va vaziyatlarga to'liq javob bera olmay qolgan. Shu tariqa shariatning yangi manbaga zarurat tug'iladi va ijmo' islom huquqining asosiy manbalardan biri sifatida tasdiqlanadi. Ijmo'(arabcha-yangilik)-Qur'on va hadislariga aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqih va muftahidlarning to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi (fatvo berishi)dir. Shariatga shunday yo'l bilan chiqarilgan hukm shar'iy (qonuniy) deb qabul qilingan. Ijmo'ga fiqh manbai sifatida qarash Arab xalifaligida feodalizm tartib topa boshlagan davr(VIII asr oxiri-IX boshlari)da kelib chiqdi. Muftahid tomonidan aytilgan fikrgina hal qiluvchi fikr hisoblanadi. Oddiy musulmonlar fikrini esa ijmo'ga hech qanday aloqasi yo'q. Muftahid deb diniy olimga aytiladi. Muftahid (arabcha – intiluvchi, g'ayrat qiluvchi) o'rta asrlarda islomda ijtehad huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs. Suniylarda diniy huquq mazxablarining asoschilari, shialarda yuqori martabali ruhoniylar va diniy huquqshunoslar muftahid deb yuritiladi. Muftahid musulmonlar orasida obro' – e'tibor qozongan bo'lishi lozim. Shuningdek shariat muftahidning boshqa xislatlarini, masalan, arab tilini to'la bilishini, shariatga qat'iy rioya qilishini, hozirgi zamonga doir chuqur saviyaga ega bo'lishi va hokazolarni belgilab beradi.

Misrlik olim Abdulvahob Xalof ijmo'ga quyidagicha ta'rif beradi: Ijmoning lug'aviy ma'nosi "qasd qilmoqdir".muftahidlarning bir hukmga qilgan ittifoqiga "ijmo" deyilishining boisi – mazkur hukmning sha'riy hukm deb qasd qilishlaridir. Usul ulamolari istilohila esa, ijmoning ta'rifi bundaydir: Musulmonlardan bo'lgan muftahidlarning Rasululloh (s.a.v) vafotlaridan so'ng, biror davrda, shar'iy hukmga qilgan ittifoqiga ijmo' deyiladi.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ijmo' bo'lishi uchun to'rtta rukn lozim: avvalo, muftahidlardan bo'lishi kerak, muftahid bo'lmagan olimlarning ittifoqi ijmo emas; ikkinchidan, ular musulmonlardan bo'lishi shart; uchinchidan, Payg'ambar (s.a.v) vafotidan so'ng bo'lishi kerak, chunki hayotlik vaqtlarida barcha shar'iy masalalarda Payg'ambar(s.a.v) ning o'zlariga murojat qilingan, shuningdek ijmo ittifoq ko'pchilik tomonidan bo'ladi, yakka kishidan ijmo' sodir bo'lmaydi, to'rtinchidan, ijmo' qilinadigan masala shar'iy masala bolishi kerak, dunyoviy masalalarda bunday ijmo' qilinmaydi.

Demak,Payg'ambar alayissalomdan so'ng biror voqeaning hukmi Qur'ondan ham, sunnadan ham topilmasa, o'sha davrning mujdahidlaridan masalaning shar'iy hukmi so'raladi.Ularning mazkur masala yuzasidan bir fikrga ittifoqi ijmo' bo'lib ,u shar'iy qonun hisoblanadi va unga itoat qilish lozim, qarshi chiqish mumkin emas. Ijmo' qilingan masala ikkinchi bor keyingi davr mujdahidlari uchun ijtehad mavzui bo'lishi mumkin emas. Chunki ijmo' bilan sobit bo'lgan hukm qat'iy bo'lib, unga qarshi chiqish hamda uni nasx (hukmini bekor qilish)qilish mumkin emas.

Islomning ilk davrlarida Muhammad (c.a.v.) muxlislari va izdoshlari ijmo'ga katta e'tibor berdilar. Barcha hollarda bu tushuncha diniy-huquqiy masala bilan

bog'liq ravishda belgilab berildi va ular bilan tasdiqlanadi: ijmo' ulamolarning bir ovozdan roziligi olingach amalga oshirilgan.

5. Qiyos – fiqhning to'rtinchi manbai. Qiyos arabcha so'zdan olingan bo'lib, “taqoslash”, “solishtirish” degan ma'noni anglatadi. Bunga ko'ra biror huquqiy masala o'ziga o'xshash ikkinchi huquqiy masala bilan taqoslanadi, solishtiriladi va ular bir-biriga tenglashtiriladi. Demak, bunga binoan Qur'on va sunnada berilmagan bir huquqiy masala ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqoslash yo'li bilan sharhlanadi. Qiyos faqihlar huquqini kengaytirib, shariatning turli huquqiy masalalarga tadbiiq etilishiga imkon yaratdi.

Qiyosni fiqhning to'rtinchi klassik manbai sifatida e'tirof etilishi hadisga borib taqaladi. Unga hikoya qilinishicha, Muhammad(s.a.v.) bir kun o'z sahobalardan biri Muoz ibni Jabal raziyallohu anhuri Yamanga dindan ta'lim berishga yuborayotganida uning odil sudlovni amalga oshirishida nimalarga tayanishini so'raydi. U kishi quyidagicha javob beradi: “allohning kitobi bilan. Agar undan topmasam, ijti hod qilaman, va ijti hodda nuqsonga yo'l qo'ymaslikka harakat qilaman”.¹ Payg'ambar(s.a.v.) bunday fikrni maqullagan ekanlar. Ijtixod arabcha “intilish”, “g'ayrat qilish” so'zlaridan olingan bo'lib, diniy va huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil fikr yuritish prinsipidir. O'rta asrlarda faqat yirik musulmon faqlari va islohiyotchilari - mujtahidlar ijti hod huquqiga ega edilar. X asrda sunniylik yo'nalishidagi shariat mazhablari shakllanib, islom aqidalari ishlab chiqilgach, “ijti hod eshiklari yopilib qo'yiladi”, islohiyot, huquq, ahloq, ijtimoiy ta'limotga faqat ilgarigi islohiyotchilarga taqlid qilish mumkin, deb hisoblangan. Taqlid konsepsiyasi birinchi o'ringa chiqqan. XIX asr oxiridan islom diniy islohiyotchilari ijti hod huquqini yana tiklaganlar, Qur'onni va islom ta'limotini yaxshi bilgan har bir musulmon ijti hod qilishi mumkin deb hisoblagan.

Qiyos huquqiy atama sifatida hukmi aniq bo'lmagan masalalarni hukmi aniq bo'lgan masala bilan solishtirib, oralarida mushrarak sabab mavjud bo'igan suratda ikkinchi masala hukmini aniq bo'lmagan masalaga ko'chirishdan iborat. O'shanda ikkinchi masala islom qonuniga muvofiq bo'lsa, birinchi masala ham qonuniy bo'ladi yoki aksincha.

Qiyos uslubi ayniqsa Abu Xanifa va uning izdoshlari – xanifiylar tomonidan keng asoslantirilgan. Qiyosga hanbaliylar qarshi chiqqanlar. Shialar esa qiyosni umuman huquq manbasi sifatida tan olmaganlar.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. «Fiqh» istilohining shakllanishini tushuntirib bering?
2. Fiqh ilmi nimalar bilan shug'ullanadi?
3. Usul al-fiqhning ob'ekti nima?
4. Ilk fiqh maktablari qachon vujudga keldi?
5. *Ijti hod* qilish huquqi kimlarga beriladi?
6. Qanday fiqhiy mazhablar mavjud?
7. Movarounnahr fiqh maktabining asosiy namoyandalari kimlar?

¹Abdolvahob Xallof. Fiqh. (Islom qonunshunosligi asosi) 1 – 2 qismlar. T.: “Adolat” 1997. 50 – 51 b.

Adabiyotlar

1. Jo'zjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
2. Mo'minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik, № 9, 1999, B. 40-44.
3. Mo'minov A. Imom-i A'zam Abu Hanifa // Muloqot, № 7-8, 1994, B. 37-40.
4. Qodirov Z. Imom A'zam hayot yo'li va fiqh usullari. T.: Movarounnahr 1999.
5. Goldziher I. Introduction to Islamic Theology and Law. Princeton, 1981.
6. Hallaq W. A History of Islamic Legal Theories. An Introduction to Sunni Usul al-Fiqh. Cambridge, 1997.
7. Schacht J. An Introduction to Islamic Law by Joseph Schacht. Oxford, 1964.
8. Schacht J. The Origins of Muhammadan Jurisprudence. Oxford, 1950.
9. Abu Yusuf Ya'qub b. Ibraxim al-Kufi. Kitab al-Xaradj. Sankt-Peterburg, 2001.
10. Islam. Entsiklopedicheskiy slovar'. Moskva, 1991. B. 254-259.
11. Syukiyaynen L.R. Musul'manskoe pravo: Voprosy teorii i praktiki. M., 1986.

6 – mavzu. Islom dinidagi mazhab va oqimlar.

Reja.

1. Islom dinida e'tirof etilgan yo'nalish va mazhablar.
2. Shialik va uning mazxablari.
3. Xorijiylar.
4. E'tirof etilmagan mazxablar hamda zamonaviy diniy siyosiy partiya va oqimlar.

1. Islom hayot falsafasi ekani, u jamiyaqt a'zolarini eng yuksak bashariy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashni, insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, halollik, boshqa dinlarga ehtirom, oliyjanob axloqni targ'ib etishni yaxshi anglab, yetmoq bu muqaddas dinimiz tarixidan xabardor bo'lib, vatandosh ulamolarimizning islom taraqqiyotiga qo'shgan buyuk xissasini bilmoq – har birimiz uchun ham farz, ham qarz.

Mazhab (arabha – yo'nalish, oqim, yo'l, ta'limot). Mazhablar keng tarqalgan barcha dinlarga xos bo'lib, u dinlarda asrlar davomida yuz bergan ixtiloflar bo'linishlardan yuzaga kelgan. Dinlarda vujudga kelgan yirik ajralishlar fanda oqim deb nomlanadi.

Islomdagi diniy mazhablar diniy e'tiqod va marosimchilik masalalarida shariat mazhablaridan va diniy ilohiyot oqimlaridan keskin farq qiladi.

Islomda ilk davrda paydo bo'lgan eng birinchi yirik muammo – oily hokimiyatni egallashga pauyg'ambarlardan keyin kim haqliroq degan masala bo'ldi.

Ali tarafdorlari “Shia” nomini olib, Islomda birinchi bo’linishni boshlab berdi. Ikki taraf sunniylik va shialik o’rtasidagi kurash asnosida xorijiyalar deb atalgan uchinchi yo’nalish ham paydo bo’ldi.

Sunniylik yo’nalishi “Ahli sunna va – l - jamoa” deb ataladi va to’rtta fiqhiy mazhabdan iborat:

1. Xanafiy
2. Shofiiy
3. Molikiy
4. Hanbaliy.

Sunniylikda ikkita aqidaviy ta’limotga amal qilinadi: Motrudiya, Ashariya

Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1 mlrd. 300 mln musulmonning 92.5 foizini sunniylar tashkil etib, ular mazhablar bo’yicha quyidagi nisbatda bo’linganlar:

1. Xanafiylar – 47%
2. Shofiiylar – 27%
3. Molikiylar – 17%
4. Hanbaliylar – 1.5%

Shia yo’nalishi ismoiliy, ibodiy, ja’fariy, zaydiy mazhablarini o’z ichiga olib dunyoda musulmonlarning 7.5 foizini tashkil qiladi.

Xanafiy mazhabi. Xanafiya islomdagi eng ko’p tarqalgan mazhab. Uning asoschisi Abu Xanifa 669 – 767 yillarda yashagan. Imom Abu Xanifa butun umri mobaynida 55 marta haj qilganligi ma’lum. Olim sifatidagi bilimlarini savdo ishlarida kundalik hayotida amaliy jihatdan tadbqiq etish imkoniyatiga ega bo’lib, qonun-qoidalarini “qiyos” va “istihson”ni ishlatish orqali boyitadi. Qiyosni shakllantirishda “ra’y” (fikr)ga tayanish tufayli uning maktabi “Ahl – ur – ra’y ” nomini oladi. Hadislarga tayanganlarni “Ahl ul-hadis” deydilar. Biroq Abu Xanifa maktabi an’anani yaxshi bilgan va tan olgan. U: “bizning bu boradagi eng a’lo bilimimiz ra’ydir. Bu – biz erisha olgan eng a’lo narsalardir”, degan. Umumiy tarzda Abu Xanifaning huquqiy nazariyasi shaxs erkinligini hurmatlagan va shu bilan o’zga huquqshunoslardan farq qilgan.

Xanafiylik fatvolar chiqarish va shaxs masalalari yuzasidan hozir ham Usmoniylar imperiyasining sobiq elatlari, jumladan, Misr, Suriya, Livan, Iroq, Iordaniya, Falastinda rasmiy mazhab. Bolqon, Kavkaz, Afg’oniston, Pokiston, Hindiston, Markaziy Osiyo mamalakatlari va Xitoyda ham ustuvor mazhab. Bu mazhab musulmonlar dunyosining deyarli yarmiga yoyilgan.

Molikiya mazhabi. Bu mazhab Arabiston yarim orolida rivoj topib, dastlab Hijoz yoki Madina mazhabi sifatida nomlangan. Asoschisi Molik ibn Anas Asbahiy 713 yili Madinada kamon o’qlari yasovchi oilasida tavallud topib, shu yerda 795 yili vafotiga qadar yashagan va uni faqat Makkaga hajga boorish uchungina tark etgan. Shu tufayli u Madina ahlining ramziga aylangan. Madina imomi sifatida tan olingan. Molik hech bir siyosiy oqimga aralashmagan va biron rasmiy mansabni egallashga rozi bo’lmagan. Baxslar va ilmiy munozaralarda ishtirok etmagan, chunki u “ilm – xo’rozlar va qo’chqorlar orasidagi urush emas”, deb hisoblagan. Payg’ambar, sahobalar va tobeinlarining fiqhga oid qarashlari, qarorlari va qavmlarini o’zining “Al – Muvatta” kitobida jamlangan.

Molikiy mazhabi boyicha Qur'on va Hadis huquq asoslari sifatida tan olinadi. Payg'ambarlarga oid hadislarga ular tomonidan sahih deb e'tirof etiladi. Qur'on va Hadis bir manba – "nass"ni tashkil etadi. Bunga qo'shimcha ravishda madina jamoasining umumiy tajribasi qo'shiladi. Bular haqida yozma manbalar qolmagan, lekin ular payg'ambar davridan me'ros va odat tarzida xotirada saqlanib keladi. Bunday jamoa xotirasiga jamoa hadisi sifatida qaralgan. Shulardan keyingina Madinalik bo'lmagan sahobalar tajribasi hamda tobeinlar tajribasiga murojat etilgan. Hech qayerda mazkur masalaga yechim topilmasa, "almasolih al-mursala", ya'ni manfaat yo'lidagi mustaqil fikrga murojat etish mumkin bo'lgan. Ammo bu fikr jamoa manfaatiga qaratilgan, nass aqidalariga zid bo'lmasligi va shariat ahkomlariga mos kelishi lozim hisoblangan.

Shofiiy mazhabi. Bu mazhab jug'rofiy mintqa mahsuli bo'lmasdan, ikki o'zga mazhab bilan yaqindan tanishish natijasida payg'ambar ajdodi – Hoshimning akasi Mutallib avlodidan bo'lgan Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon ibn Shofiiy uning asoschisi bo'ldi. Shofiiy 767 yil Falastin (G'azna)da tug'ilib, 820 yili Misrda vafot etadi. Shayboniy rahbarligida Iroq fiqhini o'rgandi.

Shofiiy nazariyasini ifoda etgan "risola" Bog'dodda yozilib, 814 -815 yillarda Misrda qayta ishlanadi. Qonun sohasida Shofiiy o'zini Madina mazhabining izdoshi sifatida ko'radi. Behisob bahslarda o'zga mazhab izdoshlarini o'z fikriga o'tkazishga harakat qiladi. Biroq ular o'z qarashlarida qolib, uning ba'zi huquqiy jihatlarinigina o'zlashtiradilar, xolos. Shu asosida yangi mazhab yuzaga keladi. Birgina inson tomonidan ishlab chiqilgan mazhab avvaliga Bog'dodda, keyin Misrda shakllana boradi. Misr mazkur yangi mazhabning vatani bo'lgani uchun u yerda bu ta'limot chuqur ildiz ortgani tabiiy.

1517 yil Usmoniy turklar tomonidan Misrga Xanafiy mazhabi kiritiladi. Hozirgi kunda sud mahkamalarida shaxsiy maqom borasida Xanafiy mazhabi tasdiq etilmasada, ko'p Misrliklar (ayniqsa, qishloq joylarida) o'z diniy urf-odatlarida Shofiiy an'alariga sodiq qolganlar. Falastin va Iordaniyaning aksariyat musulmonlari Suriya, Iroq, Hijoz, Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Eron va Yamandagi sunnniy musulmonlar ham shunday qiladilar.

Hanbaliya mazhabi. Bu shaxsiy mazhab, chunki u asosan bir shaxs – Axmad ibn Hanbalning huquqiy qarashlari, qavl va fatvolarini namoyon etadi. Ibn Hanbal 780 yili Bog'dodda tug'ilib, 855 yili shu yerda vafot etadi. Hadis to'plash niyatida Suriya, Hijoz, Yaman, Kufa va Basraga ko'p sayohat qilgan va 40 mingdan ortiq hadisni jam etgan 6 jildlik "Musnad al-Imom Ahmad" asarini yaratgan. Shuning uchun va fiqh bo'yicha hechqanday kitob yozmagani tufayli ko'plab musulmon ulamolari uni fiqh emas ko'proq muhaddis sifatida ko'radilar. Biroq shogirdlari uning huquqiy qarashlari va fatvolarini to'plab, bu mazhabga aloqador huquqiy tamoyillar va qonunlarni shakllantiradilar. U "Islomni bid'atlardan qutqaruvchi" degan nom olgan, mu'taziliylarga qarshi ochiqdan – ohiq kurashchilarining tashabbuskori bo'lib maydonga chiqdi.

Bu mazhabning o'zgalarga nisbatan ko'proq hadislarga tayanishi qonun asoslari jihatidan farq qiladi. Ular hadislar mohiyatini Qur'on oyatlari darajasigacha ko'tarishgan. Hadislarga "qanday?" deb javob bermasdan, to'g'ridan to'g'ri ishonish zarur deganlar. Hanbaliylarga binoan fiqh asoslari beshta:

1. Qur'on va sunna matnlari;
2. Sahobalarning fatvolari;
3. Ayrim saxobalarning Quron va sunnaga muvofiq bo'lgan qavllari;
4. Istinodi zaif yoki xabar beruvchilari soni kam bo'lgan hadislar;
5. Mutlaqo ilojisiz qolganda qiyos bo'yicha hukm chiqarish.

2. Shialik yo'nalishidagi mazhablar.

Shialik yo'nalishidagi mazhablar asosan beshta bo'lib, ularga quyidagilar kiradi : Ismoiliiy, Karomatiy, Ravofiziy, Zaydiy, Jafariy mazhablari.

Shia yo'nalishining Ismoiliiy mazhabi VIII asro'rtalarida shakllanib, X-XI asrlarda yaqin va o'rta sharqda keng tarqalgan. Mazkur mazhabning vujudga kelishi arab xalifaligida sinfiy ziddiyatlarni hamda feodal guruhlar o'rtasida kurash va xalq qo'zg'alonlarining kuchayishi bilan bog'liq. Abbosiylarga qarshi kurashni davom ettirish tarafdori bo'lgan bir guruh shialar 6 – imom Ja'far Sodiqning katta o'g'li Ismoil atrofida jipslashadilar. IX asr oxiriga kelib Ismoiliiy oqimi mustaqil mazhab sifatida tashkil topadi. Uning ta'limoti avvalo, ikkiga – zohiriy (ochiq) va botiniy (maxfiy) yo'nalishiga bo'linadi. O'rta asr mobaynida ismoiliylar orasidan Nazariy (Hashshoshiy),

Musta'liy, Druz, Qirmitiy oqimlari ajralib chiqqan, hozirgi davrda Nizoriy mazhabi Suriya, Eron, Pokiston, Avg'oniston shimolida, Pomirda Musta'liy mazhabi esa, Yaman, Hindiston, Pokiston, Misrda, Druz mazhabi Suriya va Livanga saqlanib qolgan.

Qaromatiy mazhabi. Qaromatiylar shia mazhabidagi Ismoiiylarning asosiy shaxobchalaridan biri bo'lib, IX asr oxirida Iroqda vujudga kelgan, Suriya va Yamanda tarqalgan. Ularning rahnamosi Hamdosh ibn Ash'asning o'g'li Abu Tohir Sulaymon (914-943) davrida qaromatiylar 930 yil haj vaqtida Makkaga bostirib kirib, shaharni talon- taroj qilganlar, bir necha ming hojini va makka aholisini qatl etib, asrga olganlar. Ka'bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo'lib, Bahroinga olib ketganlar. Faqat 20 yildan keyin katta to'lov evaziga u makkaga qaytarib berilgan.

Zaydiy mazhabi. Zaydiya firqasining asoschisi Zayd ibn Ali Zayn al-obidin (698-740) Madinada tug'ilgan. Imom Zayd otasi qo'lida tahsil oladi. Otasining vafotidan so'ng diniy ilmlarni akasi Muhammad Boqirdan o'rganadi. Shuningdek, o'z tengqurlaridan bo'lgan Ja'far as-Sodiqdan hadis va fiqh ilmlarini o'rgandi. Zayd ibn Ali ilm yo'lida Basraga borib, mu'tazila, qadariya, jahmiya va boshqa turli firqalar aqidalari asoslarini o'rgandi. U vaqtda Basra va Kufada mazkur firqalar kabi xristian va fors falsafasidan ta'sirlangan oqimlar ko'p edi. Bu yerda Vosil ibn Ato (mu'tazila kalom maktabi asoschisi)dan aqida ilmini mukammal egallagach, o'zi uchun mu'taziliylar yo'lini tanladi.

Keyinchalik Zayd ibn Ali *imomat* masalasida o'rta yo'lni tanladi. Uning fikriga ko'ra, imomlik bir shaxs tomonidan tayin qilinmaydi va u o'z avlodlariga imomlikni vasiyat ham qilmaydi, balki Fotimaning zurriyotidan bo'lgan shijoatli, mujtahid, haqiqatni baralla aytuvchi kishi saylanadi.

Zaydiylar e'tiqodiga ko'ra:

- bir vaqtning o'zida ikki o'lkada ikki imomga bay'at qilish joiz;
- imomlar begunoh emas, *taqiya* (sharoit og'irlashgan paytda e'tiqodni sir tutish) nojoiz;
- sahobalar haqida noloyiq so'zlarni aytish mumkin emas;
- Abu Bakr, Umar va Usmonlar ham xalifalikka loyiq bo'lganlar.

Mazkur e'tiqod paydo bo'lishida Zayd ibn Alining tutgan siyosiy mavqei sabab bo'lgan. U Umaviylarga qarshi urush ochdi va Kufada xalifa etib saylandi. Uning fikricha, xalifalik faqat ma'lum kishilargagina (masalan, Imom Muhammad al-Boqir) emas, balki Fotimaning ikki o'g'li al-Hasan va al-Husayn avlodlaridan bo'lgan har bir olim, taqvodor, shijoatli, urushga qodir, podshohga qarshi chiqa oladigan kishiga o'tishi hamda u xalifa saylanishi ham mumkin.

Imom Zayd ibn Alining «al-Majmu'» nomli kitobida bayon etgan fikrlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi. U ham boshqa mazhab faqihlari kabi birinchi o'rinda Qur'onni, keyin esa sunna, ijmo', qiyos, istihson, so'ngra esa aqlni shariat asoslaridan deb hisoblaydi.

Zaydiya fiqhining o'ziga xos tomonlari quyidagilar:

- Ahl al-kitob (samoviy kitobga ega bo'lgan boshqa din vakillari: yahudiylar, xristianlar, sobilar) tomonidan so'yilgan hayvon go'shtini yeyish, lekin ular bilan quda-andachilik qilish harom;
- mahsi (oyoq kiyim)ga mash tortish joiz emas.

Zaydiya mazhabiga mansub asosiy manbalar – Zayd ibn Alining «al-Majmu'» asari va unga sharh sifatida yozilgan Sharafaddin al-Husayn ibn Ahmadning «ar-Ravd an-nodir» kitobi hisoblanadi. Zaydiylar Shimoliy Afrikada Idrisiylar (789-926), Tabaristonda Zaydiylar (863-928), Yaman (901-1962) davlatlariga asos solganlar.

Zaydiya firqasi vakillari hozirgi kunda Yaman Arab Respublikasi, Saudiya Arabistonida, Pokistonda yashaydilar. Bu firqa bir necha mayda firqachalarga bo'lingan. Ular orasidan jorudiya, sulaymoniya, butriya (solihiya), qosimiya, nosiriya, hoduviyalarni zikr etish mumkin.

VIII asr o'rtalarida shialikda vujudga kelgan oqim bo'lib, shialarning 5-imomi Muhammad Bakirning ukasi Zayd ibn Ali nomi bilan atalgan. Ular Zaydni 5- imom hisoblab, undan keyingi shia imomlarini tan olmaydilar. Zaydiylar o'z aqida va marosimlari jihatidan shialar va sunniylar o'rtasida turib, har ikkala oqimga nisbatan murosasizlik yo'lini tutadilar. Ular yashiringan imom Mahdiyga ishonmasliklari, Alidan oldingi 3 xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon)ni la'natlamasliklari, mut'a nigohini inkor etishlari bilan shialardan avliyolar va mazorlarga sig'inishni hamda darvishlik va zohidlikni inkor etishlari bilan sunniylar ajralib turadilar. Yaman

aholisini yarmidan ko'pini Zaydiy mazhabi nomoyondalari tashkil qiladi. Shuningdek, ularning vakillari Saydiya Arabistoni, Pokiston va boshqa davlatlar ham bor.

Ja'fariy mazhabi-Shia yo'nalishidagi diniy huquqiy tuzumga kirib, 12- imomga e'tiqod qiluvchi ismoiliylarning asosiy oqimi Ismoiliylar 6-imom Ja'far Sodiqni(vafoti 765) shialik fiqh tuzimining asoschisi deb biladilar. Aslida, bu tuzim bir qator mujtahid va ilohiyotchilar tomonidan IX-X asrlarda ijtihod qilingan bo'lib, bunda imom Jafarning deyarli o'rni bo'lmagan, undan fiqh va ilohiyotga oid hech qanday asar qolmagan. Shunga qaramay shialik diniy-huquq majmuasi hozirgacha ham Ja'fariya deb nomlanadi. Ja'fariya XVI asr boshlarida Eronda hukmron diniy-huquqiy tizimga aylangan. Eron va Iroqdagi shialar o'rtasida bu mazhab hozirda ham kuchli ta'sirga ega.

3. Xorijiyilar.

Xavorijlar. Usmon ibn Affon (644-656) davriga kelib islom jamoasi (*umma*) ichida fitnalar paydo bo'ldi. Usmonga uyushtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o'ldirilgach, uning o'rniga o'z tarafdorlari tomonidan Ali ibn Abi Tolib (656-661) saylandi. Ana shu davrdan *umma*-davlat ichida birinchi fuqarolar urushi boshlanadi (656-660).

Talha ibn Ubaydulloh, az-Zubayr ibn al-Avommm va Mu'oviya ibn Abi Sufyon kabi guruh rahbarlari Aliga qarshi chiqib, bu holatni shunday talqin qildilar: «Ali qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda Usmonga yordam bermadi, qodir bo'la turib odamlarni bu ishdan qaytarmadi, bundan tashqari u xalifalik mansabiga ko'tarilganidan keyin Ibn Affonning qasosini olmadi, balki u Usmonni qatl etilishidan manfaatdor bo'ldi».

Bu uch sahobaning bu fikrga kelishlariga har biri xalifalikka Alidan ko'ra o'zini loyiqroq deb hisoblashi turtki bo'ldi. Ular o'z da'volari haq ekanligini turli yo'llar bilan isbotlardilar: Talha va az-Zubayr «Umar (634-644) vafotidan oldin xalifa saylash xususida kengashga (*sho'ro*) chaqirilgan olti kishidan birimiz», deyishsa, Mu'oviya esa Usmonga yaqin qarindosh (ularning ikkisi ham Quraysh qabilasining Umayya urug'idan edilar) va uning qasosini olishga loyiq ekanligini ro'kach qildi.

Talha va az-Zubayr «al-Jamal» («*Tuya*») jangida halok bo'ldilar. Shundan so'ng Ali o'rniga xalifalikka da'vogarlardan birgina Mu'oviya ibn Abi Sufyon (660-680) qoldi. 657 yili Suriyada Mu'oviya va Ali o'rtasida bo'lib o'tgan Siffin jangi Ali tarafdorlarining ikki guruhga ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu jangda Ali ibn Abi Tolib qarshi tomon (Umaviylar, 660-749) bilan o'zaro bitim tuzib, urushni to'xtatishga rozi bo'ldi. Alining tutgan bunday murosasozlik siyosatidan uning qo'shini orasidagi bir guruh kishilar norozi bo'lib, ajralib chiqdilar. Aliga itoat etishdan bosh tortganlar «xavorij» deb, Mu'oviyaga qo'shilmay Ali atrofiga to'planganlar, keyinchalik, «shia» deb nomlana boshlandi. Bu guruhlar keyinchalik islomdagi ikki katta oqimiga asos soldilar. O'z navbatida har bir toifaning o'ziga xos diniy-siyosiy nuqtai nazarlari, ta'limot va amaliyotlari shakllana boshladi.

Xavorijning kelib chiqishi. Ali bilan Mu'oviya o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning qo'lidadir», degan shior bilan qo'shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xypyj» (bo'ysinmaslik) voqeasi ularning «Xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura qishlog'ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o'zlarini «Shurot» («Jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar») deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning qo'lida» deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.

Xavorijlar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni *amir* etib saylab, Ali va Mu'oviyani yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda Xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo'lga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.

Xavorijlar ta'limotlari asosi quyidagilardan iborat:

- ular gunohkorni «kofir» deb e'lon qildilar. Shunga ko'ra xalifa Usmonni Abu Bakr va Umar yo'lidan yurmagan uchun kofir deyishadi. Ali, Mu'oviya, Abu Muso al-Ash'ariy, Amr ibn al-Oslar muxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;
- «zolim» podshohga qo'lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (*vojib*) deb biladilar. O'z e'tiqodini yashirish printsipini (*taqiya*) rad etadilar. O'zlari harbiy jihatdan zaif bo'lsalar ham, qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish *vojib* bo'laveradi, deb hisobladilar;
- xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo'lishligidan qat'i nazar musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma'lum jamoat (sulola) ichida cheklanmagan;
- namoz, ro'za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo'lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barcha amallarni bajarmaguncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchun kifoya emas.

Xavorij oqimlari. VII asr ikkinchi yarmida xavorijlar orasida yigirmaga yaqin turli guruhlar paydo bo'ldi. Ular ichida eng yiriklari – ibodiyalar, azoriqalar hamda sufriylar bo'lib, ular o'z yo'l boshchilari nomi bilan shunday atalganlar.

Ibodiya. Ibodiya boshqa xavorij guruhlari orasida eng mo'tadili hisoblanib, bizning davrimizgacha saqlanib qolgan yagona xavorij firqasidir. Bu mazhabning asoschisi umaviy xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705) davrida vafot etgan Abdulloh ibn

Ibod (yoki Abod)dir. Mazkur mazhabning ta'limoti mo''tadil bo'lib, u qolgan musulmonlar bilan qiz olib-qiz berishdan, ular bilan meros ulashishdan qaytarmaydi. Shuningdek, ularning ta'limoti hujjat va isbot keltirib e'lon qilgandan so'nggina boshqa musulmonlarga qarshi urush ochishga ijozat beradi. Buning aksi o'laroq boshqa xavorijlar esa o'zlaridan boshqa oqimdagi musulmonlardan uylanishni, ular so'ygan hayvon go'shtini yeyishni, ular bilan o'zaro meros ulashishni man etib, e'lonsiz ularga qarshi urush ochishni joiz deb bilishadi. Gunohi *kabira* (katta gunoh) qilgan odamni kofir deb, tovon (*jizya*) to'lab yurgan boshqa din vakillarini (*ahl az-zimma*) o'ldirishni va mol-mulkini tortib olishni mumkin deb bilishadi.

Al-Ibodiya fiqhiy mazhabi ahl as-sunna mazhabi bilan ko'plab amaliy diniy masalalarda (*furu'*) o'zaro kelishadi. Bu mazhabning ta'limoti ko'plab qo'lyozma va bosma kitoblarda jamlangan. Eng muhim chop etilgan kitobi Muhammad ibn Yusuf ibn Utfoishning o'n jildda chop etilgan «Sharh an-nil» asaridir. Mazkur mazhab vakillari Marokash, Umonda istiqomat qilishadi.

Azraqiylar. Azraqiylar (Azoriqa) guruhining asoschisi Nofi' ibn al-Azraqdir (v. 685 y.). Xavorij guruhlarida orasida eng murosasiz va beshafqat sanalgan bu jamoa hozirgi kungacha yetib kelmagan.

Azoriqa ta'limotiga xos bo'lgan jihatlar quyidalar:

- Xalifa Alini «*kofir*» deb hisoblaganlar;
- gunohi *kabira* qilgan musulmonlarni *kofir* deb e'lon qilganlar;
- azoriqalardan bo'lmagan musulmonlar, ularning qariyalari, ayol va bolalari qonini to'kishni (*istiroda*) *halol* deb hisoblaganlar;
- *hayz* ko'rgan ayollarga ham namoz o'qish va ro'za tutishni farz deb hisoblaganlar;
- mayda o'g'rilik uchun ham qo'lni butunlay yelkadan kesib tashlashni buyurganlar.

Sufriya. Sufriya ham xavorijlarning bir guruhi bo'lib, Ziyod ibn al-Asfar degan kishi nomidan shunday deb ataldilar.

Sufriylar ta'limoti o'zining nisbatan mo''tadilligi bilan ajralib turadi. Bu guruhning ajralib chiqishiga xavorijlar orasida ko'tarilgan *imon* masalasidagi tortishuvlar sabab bo'lgan. Ular azoriqadan farqli o'laroq qo'zg'olonlarda qatnashmagan o'z dindoshlarini kofirga chiqarmaganlar. Raqiblarning qariya, ayol va bolalarini o'ldirishdan qaytarganlar. Ongli ravishda *taqiyaga* – o'z imonini amalda emas, faqat og'zaki ravishda yashirishga yo'l berganlar. Bu firqa VIII asrgacha o'z faoliyatini davom ettirganligi haqida ma'lumotlar bor.

“Xaraja” fe’li “chiqmoq” ma’nosida keladi. Xorijiylar ajralib chiqqanlar, ya’ni islomchilar degan ma’noni anglatadi. U islomdagi ilk diniy-siyosiy oqim hisoblanib, xalifa Ali ibn Abu Tolib va Muaviya tarafdorlari bilan xalifalikdan hukmronlik uchun

kurash ketayotgan bir davrda vujudga keldi. Ular xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va unga bo'ysunadi; har qanday taqvodor musulmon xalifa bo'lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl qilinadi; e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim, deb hisoblaydilar. E'tiqodsiz va gunohkor kishilarni jazolashda murjiylar (jazo muddatini kechiktirishni istovchilar) tarafdorlariga qarshi turganlar.

VIII asrning 2-yarmiga kelib, bu oqim o'z rahbarlari nomi bilan ataluvchi bir necha guruhlariga – Azraqiy, Ibodiy, Sufiriy kabilarga bo'linib ketdi. Olimlarning fikricha, ichdan bo'linishi hamda Ummaviy hamda Abbosiy halifalar VII-IX asrlarda Xorijiylarga qarshi keskin kurash olib borishi natijasida ularning katta qismi qirib tashlandi, qolganlari shimoliy Afrikada o'z davlatini vujudga keltirdi. Hozirdan Xorijiylarning Ibodiy sektasi Mag'rib mamlakatlarida (Jazoir, Tunis) Ummon va Tanzaniyada uchraydi.

4. Islom dinida o'z g'oya va qarashlarini ilgari surgan e'tirof etilmagan mazhablar hamda muayyan bir guruhni manfaatini ko'zlagan uning orzu intilishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida tuzilgan diniy-siyosiy oqimlar paydo bo'lgan. Bularga: Murjiylar, Mu'taziyilar, Jabariylar, Jahmiylar, Qadariylar, Mushabbihalar yoki ahli At-tashbeh, As-Sifatiya, Salafiya, Vahobiylik, Ahmadiya harakati "Hizbat-tahrir Al-Islomiy" diniy tashkiloti, Tablihchilar jamoasi, Akromiylar, Nurchilar jamoasi, "Tavba", Islom uyg'onish partiyasi, "Islom lashkarlari", "Adolat" harakatlari kiradi. Murjiylar alohida bir yo'nalish bo'lib emas, balki, mazhablar ichidagi oqim sifatida tarkib topgan. Ular asosida yana bir qancha kichi-kichik oqimlarga, ya'ni firqalar vujudga keldi. Murjiylar bu dunyodagi inson halokati muhokama qilishni "orqaga surib", insonning hatti-harakati, imonini yolg'iz Allohning o'zigina va faqat uning o'zi inson ustidan hukm qila oladi, deb hisoblaydilar. Bu g'oyani xalifa Ali bin Abu Tolibning nevarasi – Hasan bin Muhammad VII asrning 90-yillarida Kufalik Ali tartafdorlariga yozgan nomalarida ifodalanadi. Xuddi shu kabi nomalar xalifalikning boshqa shaharlariga ham yuboriladi. Ularning ta'limotida har qanday momin haqida hoh tiriklik bo'lsin, hoh o'lgan bo'lsin uni hukm qilish, muhokama qilish qoralanadi. VIII asrning 1-yarmida bu ta'limotga asos solingan edi.

Mu'taziyilar. Birinchi yirik yo'nalish vakillari hisoblanib, Damashq va Bog'dod xalifaligi hayotida VII-IX asrlarda muhim o'rin tutgan. Ularning aqidalari qat'iy Allohning yagonaligiga sig'inish, xudo o'z va'dasiga turishi lozim, oraliq holat, yaxshilikka dav'at va yomonlikdan qaytarish.

Jabariylar. Arabcha "jabr"dan olingan bo'lib, bu oqim VII asr oxiri, VIII asr boshlarida Islom ilohiyotida paydo bo'lgan ilk yo'nalishlardan hisoblanadi. Jabariylar inson taqdirini xudo mutloq oldindan belgilab qo'yadi, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q. Bular faqat ollohdagina mavjud, inson esa anashu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta'limotni ilgari suradi.

Qadariylar. Bu oqim tarafdorlari "taldir" so'zining inson o'z hatti-harakati, taqdirining hukmdori deb talqin qilishadi. Bu – ilk ilohiyot oqimlaridan biri "ular inson o'z hatti-harakatining yaratuvchisi" deb tushuntiradi.

Mushabbihalar. Arabcha "o'xshatuvchilar, o'xshatish tarfdorlari" degani, ya'ni antropomorfistlar. Bu yo'nalish vakillari Allohni inson qiyofasi shaklida tasavvur qiladilar. Ilk islom davrida "zohiriylar" deb yuritilgan.

As-sifatiya. “sifat” arabcha belgi, xususiyat, tabiat degani. Bu oqim Alloh xususiyatlarini ifoda etishning biri bo’lib, Mutaziyliklar tomonidan qo’llangan. Allohda insonlar nazdida ijobiy hisoblangan sifatlarni tan olish g’oyasi tarafdorlari.

Salafiya. Bu XX asr boshida Jamolliddin Afg’oniy va Muhammad Abdu asos slogan islomiy harakat. Asosiy maqsadi musulmonlarni asrlab davom etgan taqlid va turg’unlikdan holi etish, hayotni ma’naviy, madaniy va siyosiy jihatdan isloh etish. Bulardan tashqari Vahobiylar, Ahmadiy harakati, “Hizbat- tahrir Al-islomiy” diniy tashkiloti, “Tablighiyat” jamoasi, Akbariyalar nurchilar jamoasi, Islom uyg’onish partiyasi “Islom lashkarlari”, “Adolat” jamoalarini aytish mumkin.

O’tilgan mavzu bo’yicha savollar

- Shialikning kelib chiqishi qanday tarixiy voqea bilan bog’lanadi?
- Shialikda imomat masalasi qanday o’rin tutadi?
- Shialik haqida qanday manbalar ma’lumot beradi?
- Shialikning qanday firqalari mavjud?
- Shialik ta’limotining sunniylikdan farqlanadigan qanday asosiy jihatlari mavjud?
- Ismoililarning siyosiy faoliyatini yoritib bering.
- Taqiya nima?
- Alaviylarning diniy hayotida qanday xususiyatlar bor?

Adabiyotlar

1. Husniddinov Z.M. Islom – yo’nalishlar, mazhablar, oqimlar. T.: Movarounnahr, 2000.
2. Daftary F. The Isma‘ilis, Their History and Doctrines. Cambridge, 1990.
3. Halm H. Le chiisme. Paris, 1995.
4. Belyaev Ye.A. Musul’manskoe sektantstvo. M., 1957.
5. Petrushevskiy I.P. Islam v Irane v VII-XV vekax (kurs lektсий). Leningrad, 1966.
6. Pigulevskaya N.V., Yakubovskiy A.Yu., Petrushevskiy I.P., Stroeva L.V., Belenitskiy A.M. Istoriya Irana s drevneyshix vremen do kontsa XVIII v. Leningrad, 1958.
7. Prozorov S.M. Shiitskaya (imamitskaya) doktrina verxovnoy vlasti // Islam: religiya, obshchestvo, gosudarstvo. M., 1984, B. 204-211.
8. Churakov M.V. Narodnoe dvizhenie v Magribe pod znamenem xaridjizma. M., 1990.

7- Mavzu: Markaziy Osiyo mutaffakkirlarining ma’naviy me’rosi.

Reja:

1. Islom dinining manbalarini o'rganishda Mavorounnahr olimlarining o'rni

2. Markaziy Osiyoda Islom dini madaniy-ma'naviy me'rosi

1. Islomning Markaziy Osiyoga tarqalishi tufayli bu yerda juda ko'p mahalliy islom olimlari – hadisshunos, Qur'on tavsifshunoslari va islom dini qonun qoidalari, yo'l-yo'riqlari bilan shug'illanuvchi yuzlab mashhur, Islom dunyosi tan olgan olimlar yetishib chiqdilar. Bular Islom dini borasida jahon faniga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shib ketdilar. Ularning asarlari hozirgacha Islom dini hukmron yoki xalqi shu dini qabul qilgan davlatlardagi diniy madrasa va institutlarda asosiy qo'llanma sifatida o'qitirib kelinmoqda. Ular Markaziy Osiyo shuhratini musulmon dunyosi miqyosiga ko'targan mashhur olimlardir.

Mumtoz (klassik) Islom davrida Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Balx diniy va dunyoviy ilmlarning markaziga aylangan. Najmiddin Nasafiy "Kitob al-qand fi-zikri ulamoi Samarqand" asarida bu shaxarda "O'rta asrlarda yashagan ko'pdan-ko'p (mingdan ortiq)fiqh olimlari, hadis rivoyatlari va boshqa ko'p sohalarda qalam tebratgan ilm ahllari haqida mukammal ma'lumot beradi ". birgina Samarqandda mingdan ortiq ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan.

Buxoroda ham bu davrda Samarqantdan kam ijodkor yashamagan. Bu madaniy va ma'naviy taraqqiyotimizning qay darajada sermahsul va yuksak bo'lganini ko'rsatib turibdi. Buxoro haqqoniy ravishda Xanafiya mazhabi va Naqshbandiya ta'limotining butun Islom dunyosidagi yetakchi nazariy va uslubiy markaziga aylandi. Shosh, Termiz, Nasaf, Urganch, Xiva va yurtimizning boshqa shaharlarining ham Islom ta'limotida, madaniyati va ma'naviyatiga qo'shgan hissasi yetishtirib bergan allomalari beqiyosdir.

Jug'rofik jihatdan o'rta asrlarda bizning mintaqamiz islom dunyosining chekkaroq hududi bo'lsada, ilmiy, madaniy va ma'naviy jihatdan uning eng qudratli markazlaridan biri edi. Bejiz bu davrda "Samarqand yer yuzining sayqalidir, Buxoro islom dinining quvvatidir"degan naql paydo bo'lmagan.

Markaziy Osiyoda Islom ta'limotini o'rganish hamda uni ijobiy yo'lda sarflagan 56ta alloma, 59ta mashhur fan arboblari, 25ta adib, shoir va tilshunoslar va 50dan ortiq hattodlar Islom ta'limotini, manbalarini o'rganishda o'zining katta hissalarini qo'shgan.

Bu o'rinda Islom manbalarini o'rganishda o'zining buyuk xizmatlari bilan iz qoldirgan bir necha olimlarni aytish mumkin: Imom Al Buxoriy (810-870 Payg'ambar s.a.v) vafotlaridan keyin u zotning aytgan so'zlari (hadis) va sunnalari (hayot tarzlari va qolgan ishlari)ni to'plash, kitob shakliga keltirish VIII asr oxiridan boshlanib, X asrga kelib butun Islom olami tan olgan oltita hadislar to'plami vujudga keldi. Bular asosan Markaziy Osiyolik muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Muslimiy, Imom Termiziy, Imom Nasoiy, Imom Abu Dovud va Imom Mijjalar qalamiga mansub. Bular qatoriga yettinchi qilib Imom Doriniy Samarqandiyini ham qo'shadilar. Hadis olimlarining rahnamosi, alloma, imomlar imomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriydir.

Imom al-Buxoriyning mashhur asarlari 15ta bo'lib, eng buyuk asari "Al-Jomiy-as-Sahih" bo'lib, bu kitob "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan yuritiladi.

Imom Abul Husayn Muslim ibn al-Hojjaj ibn Muslim. Asli Nishopurlik. Bu kishi ham “as – Sahih” asarini va boshqa hadis haqidagi bir qancha qimmatli asarlarni yozgan. U ham hadis to’plash uchun Hijoz (Makka, Madina), Iroq Shom (Suriya), Misr va boshqa mamlakatlarni kezzagan. Nishopurda Imom Buxoriy bilan uchrashib, undan dars olgan. Eng muhim asarlari 11 ta. Ya’ni “Al – Jome as – Saxih”, “Al – Musanad al – kabir ala-r-rijal” (erkaklar uchun eng katta ko’rsatkich), “Kitob al-asmo’ ba-l-kunya”(ism va kunyalar haqida kitob).

Abu Iso Muhammad ibn Iyso ibn Savra at-Termiziy. Mashhur muhaddislardan biri, bir necha asarlar muallifi. “Kitob al-Jome” (hadislar majmuasi kitobia), “Kitob ilol” (Illatlar kitobi), “Kitobi tarix”, “Kitob ash-shomoil an – noboviya” (Payg’ambarlik alomatlari) kitoblari mashhur sanaladi.

Imom Nisoiy. Asl ismlari Abu Abdurahmon Ahmad. Hadis ilmida zamonasining imomi bo’lgan. Hofizi Qur’on, Shayx – ul-Islom unvonlariga zazovor bo’lgan. Xurosonning Niso shahrida tug’ilgan (830-915y). nisoiy bir qancha asarlar yozib qoldirgan, ulardan eng muhimlari: 1- “as-Sunnan al-kubro” (Payg’ambar sunnatlari haqida katta kitob), 2- “as-Sunnan al – Sug’ro” (Payg’ambar sunnatlari haqida kichik kitob), 3- “al – Xasos” (xos narsalar). Bu asarlarning ichida eng mashhuri “as – Sunan al – kubro” asari.

Imom ad-Dorimiy - mashhur hofiz, shayxulislom Abu Muhammad Abdulloh ad-Dorimiy. Samarqandning Dorim degan joyida tug’ilgan(797 – 869). yetuk mufossir foqih va olim. Uning mashhur asarlari: 1- “at-Tafsir”, 2- “al – Jome” (majmua). Bandor degan olimning aytishicha, duneoning hofizi to’rtta bo’lgan ekan: Rayda- Abu Zar’a, Nishopurda – Muslim ibn Hojjaj, Samarqandda – Abdulloh ibn Abdurahmon ad – Dorimiy va Buxoroda Muhammad ibn Ismoil.

Marvaziy (736-798y) mashhur hadis va fiqh olimi, Marvda tug’ilgan. Fiqh va hadis ilmi bilan shug’ullanuvchilar uchun ikkita alohida bino qurdirgan. “Kitob az-zuhd va raqoiq” (Zohidlar va xo’rlanganlar uchun kitob) va “Kitob al-jihad” (jihod haqida kitob) asarlari bilan Islom olamida mashhur.

Hakim Termiziy IX asrda yashab faoliyat ko’rsatgan. Tarix, Islom falsafasi, fiqh va tasavvuf sohasida bir qancha asarlar yozib qoldirgan mashhur olim, Hakimiya nomli darvishlik tashviqotining asoschisi. 1.”Kitob an-nahj” (yo’l-yo’riq kitobi), “Kitob al-furuq ” (Kattiq qo’rquvchi uchun kitob yoki farqlar kitobi) 3.”Xatm al-viloyat” (valiylilik xatmi-muhri), 4.”navro’znomai” asarlarida muchal yili hisobi bilan dehqonchilik ziyorat ishlari, tabiiy ofatlar, ob-havo sharoitlari, farovonchilik masalalari, tug’ilish va vafot etish masalalarini yoritgan.

Al-Matrudiy - Islom dinining nazoriy(usul ad-din), fiqh asoslari va manbalarini o’rganadigan (ilm usul- al-fiqh) sohasi bo’yicha hanafiya mazhabining yirik faqihi(qonunshunosi), kalom ilmida yangi bir yo’nalish – maktab yaratgan yirik alloma. Samarqand yaqinidagi Moturid mahallasida 870 yilda tug’ilgan. Samarqandda hanafiya mazhabi qonunshunoslaridan fiqh ilmini o’rgandi. Matrudiy Qur’on tafsiri, kalom, fiqh ilmi usullari sohasida bir qancha kitoblar yozib qoldirgan. Ulardan: “Kitob al-usul”(fiqh asoslari kitobi), “Kitob ta’vilot al-Qur’on”(Qur’on tafsiri), “Sharh Fikh al-Akbar”, “at-Tavhid”(xudoning

yagonaligi haqida), “Kitob al-maqolat”(maqolalar kitobi), “Ma’kuz ash-shari” (qonunshunoslikdagi yetishmovchilik) asarlarini yozgan.

Matrudiy kalom sohasida ixtiro etgan ta’limoti keyinchalik “Matrudiya” nomi bilan shuxrat topgan va Mavorounnahrda keng tarqalgan, uning asarlarida qarmotiyalar, ravofiziylar, mu’taziliylar ta’limotlari rad etilgan.

2. Islom dini O’rta Osiyoga keng tarqalgandan keyin ilm fan tarraqqiyotiga ijobiy ta’sir etgan va ko’plab jahonga mashhur aniq fanlar olimlari, tarixchilar, tilshunoslar, adib va shoirlar yetishib chiqqani va bular jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa qo’shganlarini yuqorida aytib o’tdik. Markaziy Osiyolik din olimlari Islom dinini o’rganish, Qur’on va hadislarini ta’lqin qilish va ommaga yetkazib berish sohasida arablar qila olmagan ishlarni bajardilar va Islom olamini hayratga qoldirdilar. Bu haqda yuqorida aytib o’tdik.

Islom dini Markaziy Osiyoga tez tarqalib, xalq hayotining hamma sohalariga keskin ta’sir eta boshladi. Ibodat qiluvchilar soni kundan-kun ko’payishi va Islomni o’rganish uchun qiziqish ortib bo’rishi bu yerda masjid va madrasalar qurilishini rivojlantirib yubordi. Islom yo’lida jonbozlik qilgan va uning rivojlanishiga hissa qo’shgan muhaddis, mufassillar va ayrim hukmron shaxslar qabriga maqbaralar qurish avj olib ketdi. Xalq me’morlari va ustalari IX asrdan boshlab yaratgan buyuk me’morchilik va san’at obidalari hozirgacha faqat bizni emas, balki minglab horijdan keladigan mehmonlarni ham o’ziga jalb qilmoqda.

Markaziy Osiyoda bunyod etilgan butun arxitektura va san’at obidalari Islom dini tufayligina bunyod etilgan, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida esa xristianlik dini tufayli cherkovlar vujudga kelgan.

Orta Osiyodagi Islom bilan bog’liq bo’lgan arxitektura va san’at obidalari XX asrgacha bunyod etildi va xalq ularni imkon boricha avaylab, ilm dargohi, ziyoratgoh, muqaddas joy deb saqlab keldi. Masjidlarga ibodat qilingan bo’lsa, madrasalarda bir yo’la uch tildan (arabcha, forsiy va o’zbek) ta’lim olib, zamonasining ilg’or ziyolilari bo’lib yetishdilar.

Masjid – arabcha “Sajada” egilish, itoat etish, sajda qilib yuzini yerga tegizish. Ya’ni ibodat qilinadigan joy ma’nosini bildiradi. Mahallalardagi masjidlar shu yer aholisi kundalik namoz o’qish uchun, jamoa masjidlari esa kundalik namoz bilan birga juma va hayit namozlari uchun mo’ljallangan va ularga shaharni markazidan eng yaxshi joylar ajratib berilgan. Ba’zi masjidlar qoshida boshlang’ich maktab bo’lib, bolalar o’qitilgan. Masjidlar diniy targ’ibot vazifasini o’tagan bo’lsa ham, ularda turli masalalar ham hal etilgan.

Shu o’rinda aytib o’tish kerakki, Islom mamlakatlarida juda katta, hashamatli masjidlar qurilgan, ular minng yillar davomida saqlanib kelmoqda: Makkadagi Masjid ul-haram, Baytul muqaddas (Ierusalim)dagi masjid ul-aqsoq, Madinadagi Payg’ambar masjidi eng yirik masjidlardir.

Yirik, hashamatli masjidlar Bog’dod, Damashq, istambul, Qohira, Isfahon, Tehron, Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda ko’plab qurilgan. Masjidlar yonida baland minoralar bittadan to’rttagacha qurilgan. Bular ko’proq masjidning bezagi uchun bunyod etilgan.

Madrasa – “darasa” (arabcha)so’zidan olingan bo’lib, joy nomi, ya’ni dars oladigan, o’qiladigan joy. Madrasalar musulmonlarning o’rta va oily o’quv yurti. Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida hozirgi vaqtda madrasalarda davlat muassasalari hodimlari ham tayyorlanadigan bo’ib ketdi.

Madrasalar dastlab VII-VIII asrlardan islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo bo’ldi. Keyinchalik masjidlar qoshida ilohiyot markazlari tashkil topdi, madrasa deb atala boshladi. IX-XIII asrlarda madrasalar Islom dini tarqalgan mamalakatlarda, jumladan, Markaziy O’siyoda paydo bo’lib, madrasa uchun maxsus binolar qurila boshladi.

Markaziy Osiyo madrasalarida arab va fors tilida yozilgan diniy kitoblar o’rgatilgan. Dastlab fors tilida yozilgan “Avval ilm” kitobi, keyinchalik arab grammatikasi chuqur o’rgatilagan (“Bidon”, “Kofiya” kitoblari asosida) undan keyin “Hidoya”, “Fiqh Kaydoniy”, “Muxtasar viqoya”, “Shahri viqoya” kabi kitoblar asosida shariat aqidalari o’qitilgan.

Madrasalar o’z davridan fan va madaniyat markazi hisoblangan. Ular diniy ta’lim berish bilan birga, dunyoviy bilimlar berilgan asosiy o’quv yurtlari vazifasini o’tagan.

Madrasalar musulmon olamida dininy inshootlar sifatida X-XI asrlarda paydo bo’lgan.

Oktyabr to’ntarilishidan keyin Markaziy Osiyoda masjid, madrasa, maqbara IX-XIX asrlarda qurilgan. Bulardan eng mashhurlari 90ga yaqin bo’lib Markaziy Osiyoda Islom dini ma’naviy me’rosidan darak berib turadi.

8-mavzu: Hadisshunoslik

Reja

1. Hadislarning yaratilishi va hadis ilmi.
2. O’rta Osiyo hadisshunoslik maktabi.

Hadis arabcha – “xabar”, “yangilik”, hodisalar ma’nolarini anglatadi. Payg’ambar Muhammad (s.a.v) aytgan so’zlari, qilgan ishlari ko’rsatmalari to’g’risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo’ladi: Matn va Isnod.

Hadis ikki turga bo’linadi:

- 1 - Hadisi qudsiy
- 2 - Hadisi naboyi.

Hadislar e’tiborga olinishi jihatdan yana 3 qismga bo’linadi:

- 1 – Sahih
- 2 – Hasan
- 3 – Zaif.

Qur’oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan, ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish uchun payg’ambar Muhammad (s.a.v) o’z hadislarini aytgan.

Bu hadislarini payg'ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilgan. Muhammad (s.a.v) hayotlik chog'larida sahobalarining Qur'oni karimga hadislarini almashtirib yuborishlarida qo'rqib hadislarini yozishdan qaytargan. Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin hadislarini naql qilish odat tusiga kirgan. Shu munosabat bilan bir guruh musulmonlar payg'ambarimiz (s.a.v) hadislariga begona so'z aralashib qolishidan hadislarini naql qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan hadislar yo'qolib ketishidan qo'rqib, uni yozma shaklda to'play boshladilar. Bu odamlar turli yurtlarga tarqalib ketganlar. VII asr o'rtalaridan boshlab ularni topib, hadislarini og'izlaridan yozib olishga harakat qilganlar.

Keyinchalik "Hadis" Qur'oni karimdan keyin turuvchi muqaddas manbaga, shariat ahkomlarining asosiga aylangan.

Qur'oni karim qanchalik mukammal muqaddas kitob bo'lmasin, u baribir musulmonlar hayotining barcha huquqiy va axloqiy masalalariga davr nuqtai nazaridan to'la javob bera olmagan. Arab xalifaligi kengayib bogan sari bu hol yanada yaqqol sezila boshlagan.

Urug' qabilachilik sharoitlarida vujudga kelgan Qur'oni karim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy hayoti ancha murakkab bo'lgan yangi musulmon dunyosidagi mavjud jamiyatning ko'pgina hodisalariga javob bera olmasligi tabiiy hol edi.

Shunday qilib, hayot, yangi vaziyat kun tartibiga o'zgaruvchan, davrga moslashuvchan lekin qonunlashtirilmagan yangi manbaga ehtiyojni vujudga keltirdi.

Natijada sahobalar tomonidan yod olingan payg'ambar Muhammad Rasulollohning so'zlari, amallari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari qog'ozga tushirila boshlandi. Shu tariqa hadisshunoslik ilmi vujudga kelib, hadislarini jamlash, ularni tasniflash mustaqil fanga aylandi. Bu ish bilan shug'illangan ilohiyot olimlari muhaddislar deb atalgan.

VII-VIII asrlardan boshlab hadislarini jamlab, yozma to'plamlar tuzish jatayoni boshlandi. Hadislarning aksariyati huquqiy me'yorlarni, ilm olishga da'vatlarini, marosimlar va urf-odatlariga oid ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Shuning bilan bir qatorda Muhammad Rasulolloh tarjimai holi, xalifalar, sahobalar faoliyati bayoniga bag'ishlangan hadislar ham mavjud.

Dastlabki hadis to'plamlari ishonarli bo'lgan. Biroq vaqtlar o'tishi bilan milliy, siyosiy ixtiloflar, o'z maqsadlari yo'lida dindan foydalanishga urinuvchilarning Muhammad payg'ambar nomlaridan yolg'on hadislar to'qishlari, shariat qoidalarini qo'llashda kelib chiqadigan ziddiyatlar, hukmdorlarga hushomadgo'yliklar oqibatida ko'plab ishonarsiz hadislar ham yuzaga keldi. O'zlarining butun bilim va hayotlarini to'g'ri ishonchli hadislarini aniqlash, ularni ajratib olib, alohida to'plashdek muborak ishga bahshida etishga bel bog'lagan mo'tabar zotlar paydo bo'ldi. Natijada Islomda "Sahiyh", ya'ni "ishonarli", "g'ayrisahiyh", ya'ni "ishonchsiz" hadis to'plamlari vujudga keldi.

Islomda taniqli va nufuzli hisoblangan kishilar tomonidan yetkazilgan hadislar "ishonarli" deb e'tirof etilgan. Agar hadislarini yetqazganlar orasida hurmat va ishonchga loyiq bo'lmagan odamlar kirib qolgan bo'lsa bunday hadislar "ishonchsiz" deb hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir hadis ikki qismdan iborat bo'lgan. Uning birinchi qismida Muhammad Payg'ambarning hikmatli so'zlarini shaxsan eshitgan

roviy, ya'ni ushbu hadisni yetkazgan kishilarni nomlari sanab ko'rsatilgan. Ikkinchi qismida esa hadisning mazmuni keltirilgan.

Suniylikdan farqli ravishda shialikda hadis to'plamlari "Axbor"(xabarlar) deb ataladi. Hadis to'plashning ulardagi o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zlarining imomlarinigina va avval boshidan Xalifa Alini hamda uning avlodlarini qo'llab quvvatlagan arboblarning hadislarini nufuzli deb hisoblaydilar. Xalifa Ali va uning avlodlariga qarshi kurashgan shaxslarning hadislarini inkor etadilar.

Muhammad al-Qumiy va Muhammad al-Qulayniy tomonidan (X asr) tuzilgan hadislar to'plami shialik ta'limotiga e'tiqod qiluvchilar uchun eng obro'li to'plamlaridir.

Hadislarning shariat uchun (musulmon qonunlari majmuasi) Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanishining o'ziyoq uning musulmonlar hayotida nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Ma'lumki, shariat – Islom dini huquqi, ya'ni barcha musulmonlar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qonunlar, huquqiy – axloqiy ko'rsatmalar majmuasi. Shariat ham dunyoviy, ham diniy talablarni o'z ichiga oladi.

Uning ko'rsatmalari huquqiy, axloqiy va diniy marosimchilik munosabatlariga birday taaluqlidir. To'g'ri, dunyoviy davlatlarda shariat qo'llanilmaydi. Biroq uning asoslaridan birini tashkil etuvchi hadisning axloqiy ko'rsatmalari dinga munosabatidan qat'iy nazar barcha musulmon fuqarolari uchun beqiyos ahamiyatga ega. Chunki Islom axloqiga oid hadislar umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan axloqiy me'yorlardir. Ularda Vatanparvarlik, odamiylik, xushxulqlik, ota-ona va qarindosh urug'larni e'zozlash, inson shani, qadr-qimmatini oyoq-osti qilmaslik, insonlarning bir-biriga o'zaro hamdard bo'lishi, zaiflarni himoya qilishi, xotin-qizlarni hurmatlash, oilani muqaddas saqlamoqlik, halollik, poklik, do'stlik, sadoqat, ibo, xayo, ilm olish g'oyalari da'vat va targ'ib etiladi.

2. Hadislar asosan Muhammad payg'ambar vafot etganlaridan keyin yozila boshlangan. Hadislarni saqlab kelajakka yetkazish bilan birinchi navbatda sahobalar shug'ullanganlar.

Sahobalar Muhammad rasulullohni ko'rgan ko'rgan, u bilan suhbatda bo'lgan har bir musulmondir. Manbalarda aytilishicha hadislarini dastlab qog'ozga tushurgan sahobalar orasida:

Abu Hurayra (5374 hadisni rivoyat qilgan);

xalifa umarning o'g'li Abdulloh (2630 ta hadisni rivoyat qilgan);

Abdulloh ibn Abbos (1660 ta hadis rivoyat qilgan);

Jodir ibn Abdulloh (1540 ta hadis rivoyat qilgan);

Abu Said al Xudriy (1170 ta hadis rivoyat qilgan) alohida o'rin tutadilar.

Xalifalar Umar va Ali ham hadis rivoyat qilganlar. Muhammad rasulullohning xotinlari hazrati Oisha ham hadis rivoyat etuvchilar orasida e'tibor qozonganlar.

Qur'onni o'rganish tafsir ilmini vujudga keltirgan bo'lsa, hadislarini to'plash va ularni o'rganish rivoyat ilmini vujudga keltirgan. Keyinchalik bu ikki muqaddas manba asosida ilohiyot va musulmon diniy qonuni – shariat vujudga kelgan.

VIII asr boshlarida hadis ilmida 3 ta maktab – Madina, Iroq, Damashq maktablari shakllangan.

Demak yuqorida ta'kidlanganidek hadislar ikki qismdan iborat bo'ladi;

- 1 – Isnod (tayanch), ya'ni u yoki bu hadisni yetkazgan kishilarning ro'yxati;
- 2 – matn, yani yetkazilgan hadisning teksti.

Barcha hadislarini ishonchli, haqiqatan Muhammad rasulullohga tegishligiga hech qanday shubha yo'q deb qaralmagan. Chunki hadislar ichida amalda payg'ambarimiz tomonidan aytilmaganlari ham bo'lgan. Shuning uchun ular dastlab aytkanimizdek uch guruhga ajratilgan:

- a) Saxiyh (to'la ishonchli) so'zlari to'g'ri so'z, ishonchli, adolatli, obro' – e'tibor qozongan shaxslar to'plagan hadislar;
- b) Hasan (go'zal, ishonchli, yaxshi) hadislar, biror bir hadisni naql qilgan, to'plagan shaxslarning ayrim nuqsonlari bolsa (masalan u kam ta'minlangan bo'lsa) yoki hamma hadisshunoslar uni benuqson deb topmagan bo'sa, bunday hadislar "Hasan" deyilgan. Ular to'la qimmatga ega deb tan olinmasa, lekin u butunlay inkor etilmagan, binobarin amalda bunday hadisdan foydalanilgan.
- s) Zaif (ishonchsiz) hadislar. Hatti – harakati, taqvodorligi, xulq – atvori shubhali kishilar tomonidan to'plangan hadislar.

Tarixchilar IX asrni hadis ilmining "oltin asri" deb ataydilar. Aytish mumkinki, bu "Oltin asr"ga hadis ilmining O'rta Osiyo maktabi asos slogan. Bu maktabning rahnomosi Imom al-Buxoriy edi.

Imom al-Buxoriy 810 – yil 20 – iyulda Buxoro shahrida tug'ilgan. 20 dan oshiq asar qoldirgan, jami 6000 hadis to'plagan. "Al – Jome' as - Sahiyh" to'rt jildidan iborat hadislar to'plami kitobiga 7275 ta eng "Sahiyh" (ishonarli) hadislar kiritilgan.

Hadis ilmi O'rta Osiyo maktabining boshqa yirik vakillari Abu Dovud Sulaymon, Muslim an-Nishopuriy, Abu iso – at – Termiziy, Imom Nasoiy hamda Imom ibni Mojalardir. Bu ulug' allomalar hadislarining 6 ta to'plamini yaratganlar.

Hadis – Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko'rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so'zining lug'aviy ma'nosi – «so'z, xabar, hikoya, yangi».

Hadislar islom dini ta'limoti va qonunlari uchun, ba'zi mazhablar nazdida, Qur'ondan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Hadislar tarkib jihatidan ikki qismdan: aynan xabar beruvchi *matn* va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – *isnoddan* iborat.

Hadislar o'zidagi ma'lumot xarakteriga qarab, xilma-xildir:

- al-hadis al-qudsiy (bu kabi hadisda ma'no – Allohdan, lafz – Payg'ambardan deb hisoblanadi);
- al-hadis an-nabaviy (bunda ma'no ham, lafz ham Payg'ambarniki deb hisoblanadi) va boshqalar.

Hadislar ilk davrda faqat og'zaki ravishda avloddan-avlodga uzatilar edi. Yozma ravishda hadislarini to'plamaslik haqidagi Payg'ambar va xalifalarning ko'rsatmalari, asosan, ilk islom davriga taalluqli edi. Keyingi davrda paydo bo'lgan muhaddislarning fikricha, Payg'ambar o'z so'zlarini yozib olishdan odamlarni qaytarishlariga sabab –

hadislarning Qur'on oyatlariga aralashtirib yubormaslik lozim edi. Boshqa hadisda esa Payg'ambar (bu ahl al-hadis muhitiga tegishli bo'lsa kerak): «Bu og'izdan – deya o'z og'izlariga ishora qildilar – faqatgina haq so'z chiqadi» – deb, o'z so'zlarini yozib olishga buyurganliklari haqida rivoyat qilingan.

VII-VIII musulmon siyosiy guruhlari o'rtasidagi shiddatli kurash davomida, ta'qiqqa qaramasdan, juda ko'p sonli hadislar dunyoga kela boshladi. Bunga javoban *ilm al-jarh va-t-ta'dil* (hadislarni tanqid qilib o'rganuvchi) maxsus fani paydo bo'lib, rivojlana boshladi.

Keyinchalik soni tobora osha borgan hadislar alohida to'plamlarga yig'ila boshlandi. Ularda maxsus tekshirish orqali «tozalanib» olingan hadislar jamlana boshladi. Shunday ilk to'plamlardan biri Madinadagi Urva ibn az-Zubayrga (v. 94/712 yoki 99/717 y.) va ikkinchisi Suriyaga ko'chib ketgan Muhammad ibn Muslim az-Zuhriyga (v. 741 y.) tegishli.

Ilk tuzilgan to'plamlar har bir sahoba nomidan rivoyat qilingan hadislarni o'zida jam qilganligi uchun *musnad* deb ataladi. Keyingi davrlarda tuzilgan at-Tayolisiy (v. 818 y.) va Ahmad ibn Hanbalning (v. 855 y.) to'plamlari mazkur uslubda yozilgan. Biroq undan foydalanish ancha noqulay. Chunki bunda bir mavzu haqida ma'lumot olish uchun bir necha to'plamlarni ko'rib chiqish kerak.

Ikkinchi turdagi to'plamlarda hadislar shu paytdagacha shakllanib ulgurgan fiqh fani mavzulari bo'yicha joylashtirildi. Bu turdagi to'plamlarga Madina regional fiqh maktabi vakili Molik ibn Anasning (v. 795 y.) «al-Muvatto'» asari misol bo'la oladi.

IX asr mavjud hadis to'plamlari qayta ishlangan holda ularni boblar bo'yicha tasnif qilib, *musannaflar* yozish davri bo'ldi. Musannaflar tuzilishi mobaynida hadislar, asosan ularning isnodlari tanqidiy o'rganilib, *sahih* (ishonchli)lari *hasan* va *zaif* (ishonchsiz)laridan ajratildi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi XII-XIII asrlardan boshlab alohida e'tiborga molik deb sanala boshlandi. Ular orasida katta nufuzga ega bo'lgan Imom al-Buxoriy (v. 870 y.) va Imom Muslimning (v. 875 y.) «al-Jomi' as-sahih» to'plamlari; undan keyingi muhim to'plamlar: Abu Dovud, at-Termiziy (v. 892 y.), an-Naso'iy (v. 915 y.) va Ibn Mojjaning (v. 886 y.) «as-Sunan» asarlaridir. «Al-Jomi' as-sahih» kitoblari o'z ichiga biografik ma'lumotlar, Qur'on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini qamrab oldi. «Al-Jomi' as-sahih»ning ishonchlilik darajasi sunniylar orasida boshqa to'plamlardan ko'ra yuqoriroq hisoblanadi.

Hadis to'plamlarining qay darajada ishonchli ekanligini aniqlab beradigan maxsus nazorat bo'lmaganligi bois ularning mavqeini jamiyatda egallagan obro'siga qarab belgilash mumkin. Al-Buxoriy va Muslimning asarlari X asrdayoq e'tirof etila boshlagan bo'lsa, qolgan to'plamlar vaqt o'tishi bilan asta-sekin tan olina bordi. Masalan, molikiy Ibn Xaldun (v. 1406 y.) o'z asari «al-Muqaddima»da Ibn Mojjaning «as-Sunan» asarini tan olmagan holda faqat besh to'plam haqida so'z yuritadi. Vaqt o'tishi bilan u oltinchi to'plam sifatida tan olindi. Biroq ba'zi ulamolar

Molikning «al-Muvatto'»sini Ibn Mojjaning «as-Sunan»idan yuqori qo'yadilar. Bu qabildagi e'tirozlar har bir olimda topilishi mumkin. Shialar va xavorijlar bu to'plamlarni umuman tan olmaydilar. Chunki ulardagi isnodlar shialar va xavorijlar uchun ishonchsiz bo'lgan shaxslar nomlaridan iboratdir.

Yana sunniy muhaddislar qatorida Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy Samarqandiyini (798-869) aytib o'tish joiz. U olim Samarqandda yashab, ijod etgan bo'lib, hadis ilmini rivojlantirishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Imom ad-Dorimiy «as-Sunan» to'plami tuzuvchisidir.

Keyinchalik islom olamida turli darajadagi soxta hadislarning ko'payib ketishi muhaddis-olimlar oldiga katta mas'uliyatli vazifani – mana shu to'qima va sahih hadislarni ajratib berish vazifasini qo'ydi. Qissanavislar (*qussoslar*) inkor etib bo'lmaydigan isnodlar bilan hadislar to'qish bobida eng «ilg'or» kishilar bo'lib, bu hikoyalari uchun sodda kishilar ularga yaxshigina haq to'lar edilar. Ko'pchilik soxta hadislarni osonlikcha aniqlash mumkin edi. Hadislar turli maqsadlarda to'qilar edi. Ba'zilar siyosiy manfaatlar yo'lida, ijtimoiy mafkuralarni tarqatish maqsadida yangi hadis to'qisalar, mashhur hadislarni qisman o'zgartirsalar, boshqalar o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab turli hadislarni muomalaga kiritdilar.

Xususan, hadislar orasida to'qima hikoyalar ko'p uchraydi. Ularda Arabistondan uzoqdagi keyin bosib olingan o'lkalar (masalan, Buxoro, Samarqand, O'sh) va hatto Payg'ambar davrida hali asos solinmagan shaharlar, keyinchalik paydo bo'lgan masalalar, mavzular haqida so'z boradi. Islom tarixining navbatdagi bosqichlarida vujudga kelgan *xorijiy*, *murji'iy*, *qadariy*, *jahmiy*, *shi'a*, *abbosiy* kabi oqim va guruhlar haqida gapiriladi. Umaviylar (661-749), Abbosiylar (749-1258) va alaviylarning «benuqson» xalifalari, imomlari, ularning bobokalonlari Payg'ambarning «hamfikir» yordamchilari sifatida zikr qilinadilar.

Turli kishilarning hadis to'qishga bo'lgan urinishlari hadislarning jamiyat hayotida, undagi nufuz, muayyan siyosiy-ijtimoiy maqsadlarga erishishda naqadar katta ahamiyatga ega bo'lganligini isbotlaydi. Hadislar islom ta'limoti rivoji va uning turli davr mintaqalardagi ko'rinishlarini o'rganishda qimmatli manbadir.

VIII-XII asrlar Movarounnahrda hadis ilmi sohasida olg'a siljish davri bo'ldi. Bu davrda yashagan olimlar faqatgina ma'lum bir chegaralangan doirada ijod qilish bilan kifoyalanmay, balki imkon qadar ilmning ko'proq qirralariga ega bo'lishga intilganlar. Shunga ko'ra biror olim, masalan, faqatgina mufasssir yoki faqihning o'zi emas, balki bir vaqtning o'zida muhaddis ham bo'lgan. Chunki bu davrda, yuqorida aytib o'tilgandek, diniy ixtiloflar kuchaygan edi. Shunga ko'ra ulamolar mavjud ixtiloflarni oldini olish, bartaraf etish uchun har taraflama kuchli bilimga ega bo'lishlari lozim edi.

Hadis sohasida keyinchalik *kompilyativ* (ko'chirma) ishlar ham ko'payib bordi. Ular mazkur olti to'plam darajasiga ko'tarilmasa-da, o'quv jarayonida asosiy qo'llanmalar sifatida foydalanilardi. Ulardan al-Bag'aviyning «Masobih as-sunna» va yana xalq

orasida ommalashib ketgan Valiy ad-din al-Xatib at-Tabriziyning «Mishkot al-masobih» asarlaridir. Hadis to'plamlariga ham ko'plab sharhlar yozildi. «Arba'un» («qirqlik») janridagi hadis to'plamlari tuzish xalq orasida sharaflari va sevimli ishga aylandi. Masalan, Abdurrahmon Jomiy (v. 1492 y.), Alisher Navoiylar (v. 1501 y.) ham Payg'ambar hadislarini she'riy usulda tarjima qilib, o'z «Arba'un»larini yaratdilar. Shu bilan birgalikda turli manbalardan hadislar jamlanib, yangi to'plamlar ham yaratilib turdi.

Yuqorida zikr etilgan asarlar asosan sunniylikka taalluqlidir. Shialar faqatgina Ali (656-661) va uning tarafdorlari vositasida rivoyat qilingan *xabar*larni (hadislarni) o'z ichiga olgan manbalarga egadirlar. Ularda shialik ta'limoti talablariga javob beradigan rivoyatlar mujassam bo'lgan edi. Bunday asarlar qatoriga – Abu Ja'far Muhammad ibn Ya'qub al-Kuliniyning (v. 939 y.) «al-Kofi fi ilm ad-din», al-Bobuya al-Qummiy nomi bilan mashhur Abu Ja'far Muhammad ibn Alining (v. 991 y.) «Kitob man lo yahzuru al-faqih», Abu Ja'far Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiyning (v. 1067-68 y.) «Tahzib al-ahkom» va keyinchalik undan muxtasar qilgan «al-Ibtisori fi mo-xtulifi min al-axbor» asarlari kiradi. Ular ham sunniylik to'plamlaridagi aynan o'xshash mavzularni o'z ichiga olgan kitoblardir.

Hadis ilmi taraqqiyotida ayollarning ham o'ziga xos o'rni bor. Hadislarni rivoyat qilgan roviylar haqida xabar beruvchi *ilm ar-rijol* (*roviylar haqidagi ilm*) asarlarida bu sohada zikr etilgan hadis rivoyatchilari orasida ko'plab ayollar uchraydi.

Hadislarni tanqidiy o'rganish bo'yicha tez orada olti to'plamda uchragan bir qator maxsus terminlar guruhi vujudga keldi. Imom at-Termiziy bu sohada salmoqli ishni amalga oshirdi. U faqatgina hadislarni to'plash bilangina cheklanib qolmasdan, ularning tahliliga ham alohida bo'lim ajratdi. Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib hadislarni *sahih*, *hasan* va *zaif* guruhlariga ajratgan olimdir. Vaqt o'tishi bilan hadis ilmidagi terminlar taraqqiy etib bordi va bu sohada umumiy qabul qilingan shaklga keldi.

Hadislar *sahih* (*ishonarli*), *hasan* (*yaxshi*), *zaif* (*ishonchsiz*), *saqim* (*kasal*) va boshqa turlarga ajratildi. Masalan, sunniylikda *sahih* hadislar darajalari bo'yicha yetti xilga bo'lindi:

1. Imom Buxoriy va Imom Muslim keltirgan;
2. faqat Imom Buxoriy keltirgan;
3. faqat Imom Muslim keltirgan;
4. ikkala muhaddis ham keltirmagan, balki ularning shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
5. Imom Buxoriy shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
6. Imom Muslim shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
7. boshqa ulamolar tomonidan tasdiqlangan hadislar.

Quyidagi isnodga tegishli texnik terminlar barcha ulamolar tomonidan bir xilda talqin qilinmasada, asta-sekin ular barqaror istilohga aylanib bordi. Ularni o'rganish qulay bo'lishi uchun ularni besh guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin.

- I. Roviylarning soniga ko'ra: *mutavotir, mashhur, mustafid, aziz, g'arib, fard, shozz, ohod* hadislar;
- II. Isnodning tabiatiga ko'ra: *muttasil marfu', muttasil mavquf, musnad, maqtu', munqati', munfasil, muallaq, mursal, mu'allal yoki ma'lul* hadislar;
- III. Matn yoki isnodning asosiy xususiyatlariga ko'ra: *ziyodot as-siqot, mu'an'an, musalsal, mudallas, mubham, maqlub, mudraj, mudtarib, isnod oli* hadislar;
- IV. Hadislarning qabul qilish uchun yaroqliligiga ko'ra: *ma'ruf, munkar, majhul, maqbul, mahfuz* hadislar;
- V. Hadislarning inkor etilishiga ko'ra: *munkar, mardud, matruk, matruh* hadislar.

Hadislarni o'rganish fani *ulum al-hadis (hadis ilmlari)* deb ataladi. Bu ilmiy sohada ko'plab asarlar yaratildi. Ular orasida eng avvalgi davrda yozilgan, boshqalariga nisbatan har tomonlama mukammal deb hisoblangan asar Abu Muhammad ar-Romahurmuziyning (v. 971 y.) yetti jildli «al-Muhaddis al-fosil bayn ar-roviy va-l-vo'iy» kitobidir. Undan keyingi o'rinda al-Hokim an-Nishopuriyning «Ma'rifat ulum al-hadis», Ibn as-Salohning «Ulum al-hadis» nomli asarlari turadi. Bu fan hadislar va roviylar tasnifi, sahoba va ularning o'quvchilari – *tobi'unlarni* bilish, hadislarni rivoyat qilish, yozib olish, ulardagi xatoliklarni to'g'rilash, isnodda kelgan birinchidan tortib oxirgi roviylarning yashagan yillarini o'rganishdan iborat maxsus bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Hadis ko'pincha *sunna* so'zi bilan ham yonma-yon keladi. *Sunna* so'zining lug'aviy ma'nosi – «odat», «tariqa», «yo'l» bo'lib, istilohda Payg'ambar odatlari, tutgan yo'li, taqdir (ko'rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu istiloh Payg'ambar turmush tarzini anglatadi.

Ayni kunlarda – Vatanimiz istiqlolga erishgandan keyingi davr mobaynida madaniy, ma'naviy va diniy tarix, uni chuqur tadqiq etishga keng yo'l ochildi. Mamlakatimizda hadislarni o'rganish bo'yicha qisqa muddat ichida talay ishlar amalga oshirildi. «Axloq-odoba oid hadis namunalari», «al-Adab al-mufrad», «Ming bir hadis», to'rt jildidan iborat «al-Jomi' as-sahih»ning tarjimasi nashr etildi. Xususan, t.f.d. Ubaydulla Uvatov, t.f.n. B.I. Eshonjonov, N. Mirmahmudov kabi tadqiqotchi-olimlarimiz tomonidan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim kabi bir qator muhaddis ulamolar hayoti, ilmiy faoliyatlarini yoritildi. Bu yo'lda ilmiy izlanishlar olib borilib, maqola, risola va kitoblar nashr ettirildi.

Vazirlar Mahkamasining buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rnini hisobga olib, jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1997 yil 29 aprelida «1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining

hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini mamlakatimizda keng nishonlanishi haqida» qaror qabul qildi. Bu qaror asosida buyuk muhaddisning yubiley to'yi mamlakatimiz miqyosida nishonlandi.

1998 yili mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan «Imom al-Buxoriy» xalqaro jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma qisqa muddat ichida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 2000 yildan «Imom al-Buxoriy saboqlari» ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnalini prof. Z.I. Munavvarov muharrirligida muntazam ravishda nashr etmoqda. Unda Vatanimiz va chet ellik tadqiqotchilar tomonidan buyuk muhaddislar ijodi, hadis ilmi rivoji haqidagi ilmiy maqolalar berib borilmoqda.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Hadis, xabar, sunna deganda nimani tushunasiz?
2. Hadislar qachondan boshlab yozila boshlandi?
3. Eng mashhur muhaddislar kimlar?
4. Qanday hadis to'plamlarini bilasiz?
5. Qanday hadis turlarini bilasiz?
6. Imom al-Buxoriy kim bo'lgan?

Adabiyotlar

1. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1991-1999.
2. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy / A. Abdullo tarjimas. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
3. Imom al-Buxoriy. al-Adab al-mufrad. T.: O'zbekiston, 1990.
4. Imom al-Buxoriy. al-Jomi as-sahih. 4 jildlik. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
5. Karomatov H.S. Arba'in hadis va qirq maqol. Toshkent: FAN. 1994.
6. Mirmahmudov N. Imom ad-Dorimiy // Hidoyat. 2000. № 8. B. 6.
7. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 1998. – 63 b.
8. Eshonjonov B. Imom al-Buxoriy – buyuk faqih // Imom al-Buxoriy saboqlari. Toshkent: 2000. № 1. B. 16-18.
9. Guillaume A. The Traditions of Islam: An Introduction to the Study of the Hadith Literature. Oxford, 1924.
10. Juynboll G.H.A. Muslim Tradition: Studies in Chronology, Provenance and Authorship of Early Hadith. Cambridge, 1983.
11. Wensinck A.J. Concordance et indices de la tradition musulmane: Les six livres, le Musnad d'al-Darimi, le Muwatta' de Malik, le Musnad de Ahmad ibn Hanbal. Par A.J. Wensinck. 1–7. Leiden. 1936-1969.
12. Ibn Batta al-'Ukbari. Ash-Sharx va-l-ibana 'ala usul as-sunna va-d-diyana // Xrestomatiya po islamu. Per. s arabskogo. vved. i primech. M., 1994, B. 87-99.
13. Islam. Istoriograficheskie ocherki. Razdel 2. Xadisы i xadisonaya literatura. M., 1991, B. 85-108.
14. Prozorov S.M. Arabskaya istoricheskaya literatura v Irake, Irane i Sredney Azii v VII-seredine X v. Shiitskaya istoriografiya. M., 1980.
15. Xalidov A.B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. M., 1985.
16. Xrestomatiya po islamu. Per. s arabskogo. vved. i primech. M., 1994.

9 – mavzu. Islom dinida ilm va ilm ahlini ulug'lash madaniyati.

Reja:

1. Islom hayotida limning o' rni.
2. Islom dinida ilmga bo' lgan munosabat.

O'tgan asrlarda ovrupoliklar orasida "Islom dini fikriy harakatlarning dushmani bo'lgan, barcha ilmiy va falsafiy harakatlarga qarshi kurash ochgan" degan noto'g'ri fikr tarqalagan edi. Manashu fikrning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini Qur'on ta'limoti va tarihiy hujjatlar asosida isbot qilishga harakat qilamiz. Haqiqatni olganda, ilmga qarshi urush ochganlar boshqa dinlarning peshvolari bo'lgan. tarihxchilar bir ovozdan ta'kidlashlaricha, tabiiy ilm ulamolari o'rta asrlarda Evropada din peshvolari tarafidan qattiq taqib qilinganlar. O'sha vaqtda din peshvolariga va cherkov fikrlariga to'g'ri kelmagan fikrlarni aytgan olimlar va mutafakkirlar sud qilish uchun alohida sud hay'atlari tuzilgan. Agar biror olim cherkov fikriga to'g'ri kelmagan fikrni aytsa, uni tutib keltirib tavba qildirishar va ikkinchi marta bunday gapni aytmasslikka ahdnoma olar edilar. Agar o'sha olim o'z fikrini ikkinchi marta takrorlasa, uni tutib olib tiriklayin yoqib yuborishar yoki baland joydan chuqurlikka tashlashar edi. Huddi shu uslub bilan o'rta asrlarda ko'pgina ulug' olimlar halok bo'lgan edilar. Mana shu holat uzoq vaqt davom etdi.

Protestant mazhabi keng tarqalib, o'z mazhabiga ko'pgina davlatlar ergashganidan so'ng,

bu holat o'z kuchini yo'qotdi. Protestant mazhabi o'ziga odamlarni jalb qilish maqsadida, fikr erkinligiga ruhsat berishga majbur bo'lgan edi. Shunday qilib, ilm g'alaba qildi. Lekin din peshvolaridan azob chekkan ilm egalari din peshvolarining o'zidangina o'ch olish bilan kifoyalanib qolmay, balki dindan ham o'ch ola boshladilar. Ba'zi sodda diniy kitoblardan kulib, ularni "ibtidoiy jamoa davridagi kishilarning fikri"deb atadilar. Qulay fursat topilishi bilan dinni hurmatsizlash paytida bo'ldilar. Bu ish ohiri borib dindan yuz o'girish va dinsizlikning tarqalishiga sabab bo'ldi. Hattoki, ba'zilar "dindorlik johillikdir" degan fikrga ham bordilar. Bu haqda to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun XIX asrda nashr etilgan qomuslardan birida din peshvolari haqida nimalar yozilganiga bir nazar solishning o'zi kifoya: "Ma'lumki, inson tabiati aqlga to'g'ri keladigan narsalarga ishonishni hohlaydi. Ular (din peshvolari) "Yo'q!", deyдилar va inson aqlini yahshi bilan yomonni, adolat bilan zulmni ajratish haqqidan mahrum qilishga urinadilar. Aql ko'zini ko'r qilib bo'lganlardan so'ng, mo'jizalarni ham oddiy narsa qilib oqni qora, yahshini yomon qilib ko'rsataveradilar. Shunday qilib, din odamlarni ko'r ko'rona itoatga chaqiradi. Agar ulardan, kimga itoat qilamiz, elimizgami yoki tabiiy vazifalarimizgami, yoki qalbdagi hissiyotlarimizgami deb so'rasang, ular, bu bilan ishing bo'lmasin, itoat qilish sening vazifang, devishadi."

Bu ko'proq hristian diniga va boshqa dinlarga tegishli gaplar. Ammo Islom musulmonlarga taraqqiyot yo'lida yurishni farz qilgan. Kishilarni ilmga undagan,

chunki inson shahsiyatini ilmdan boshqa narsa to'g'ri yo'lga sola olmaydi va taraqqiyotga ham erishtira olmaydi.

Ilmga qiziqtirish borasida Alloh Qur'oni Karimda shunday degan:

"Sen: " Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'larmidi?!" - deb ayt. Albatta, aql egalarigina eslarlar" ("Zumar" surasi, 9-oyat).

Boshqa bir oyatda ilimli kishilar Allohning huzurida boshqalardan ko'ra yuqori darajada turishlari ochiq-oydin aytilgan:

"Alloh sizlardan iymon keltirganlarning va ilmga berilganlarning darajalarini ko'tarur"("Mujodala" surasi, 11-oyat).

Alloh O'zining yagonaligiga ham ilimli kishilarni guvoh qilgan:

"Alloh adalat ila turib, albata, Undan o'zga iloh yo'qligiga shohidlik berdi. Farishtalar va ilm egalari ham. Undan o'zga iloh yo'q. U aziz va hakiym zotdir" ("Oli Imron" surasi, 18-oyat).

Shu oyatda Alloh ilimli kishilarning shohidligini farishtalarning shohidligi bilan tenglashtirgan. bu esa, ilimli kishilarning hurmati Allohning huzurida naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, Qur'on ilmsizlarni tanqid qilgan:

"Alloh bilmaydiganlarning qalblarini ana shunday qilib muhrlar" ("Rum" surasi, 59-oyat).

Qur'on ilmining chegarasi yo'q ekanligini ham bayon qilib o'tgan:

" Har bir ilm egasi ustidan bilguvchi bor" ("Yusuf" surasi, 76-oyat).

Bu oyatning ma'nosi: olimlar o'z ilmlari bilan mag'rurlanib, o'z ustida ishlashni tark etmasinlar, doimo ularni ham biron tanqid qilib qolishiga o'zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur'on musulmonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo'lishga chaqiradi:

"...va: "Robbim, ilmimni ziyoda qilgin",degin" ("Toha" surasi, 114- oyat).

Islom kishilarni ilmga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asoslarini kishilarga ko'rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo'ladi:

1. Islom dalil va hujjat dinidir. Ilm biror narsani hujjat va aniq dalil bilan bog'lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur'on ham musulmonlarga dalilsiz narsani qabul qilmaslikni buyuradi:

"Va ular: "Jannatga yahudiy va nasroniylardan boshqa hech kim kirmaydi", dedilar. Bu ularning hom hayollaridir. "Agar rostgo'y bo'lsangiz, hujjatingizni keltiring", deb ayt". ("Baqara" surasi, 111-oyat).

Bir narsaga dalil va hujjat bo'lmasa, ishonib bo'lmaydi. Boshqalarga taqlid qilib, shirk e'tiqodida bo'lganlarni Alloh so'roq qiladi:

"Kim Alloh bilan birga boshqa ilohga iltijo qilsa, bu hususda hech bir dalili yo'qdir. Bas, uning hisobi faqat Robbining huzuridadir. Albatta, kofirlar najot topmaslar" ("Mo'minun" surasi, 117-oyat).

Boshqa bir oyatda Alloh mushriklardan but va sanamalarga ibodat qilmasliklari uchun dalil va hujjat talab qiladi.

"Yoki avval boshdan yaratadigan, so'ngra yana qaytadan yaratadigan va sizlarni osmonlaru yerdan rizqlantiradigan zot yahshimi? Alloh bilan birga boshqa iloh bormi?! "Agar rostg'oy bo'lsangiz, hujjatingizni keltiring", degin" ("Naml" surasi, 64-oyat).

Mana shu oayatlardan ravshan ko'rinib turibdiki, har kimsaning aytgan gapiga dalili bo'lishi kerak. Kimki uning gapini eshitsa, dalil so'rasin. Dalil bo'lmasa, qabul qilmasin.

Arab xalifaligi qo'li ostidagi mamlakatlarda ilm fan sohasida juda katta o'zarishlar yuz bergan. Fanning turli sohalarida arab tilida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk asarlar yaratilgan, qadimgi yunon fanining durdonalari arab tiliga tarjima qilindi. Arab va xorijiy mamlakatlar olimlari arab tilida yaratilgan asarlarni faqat arab olimlariga nisbatan berganlar. Aslida bunday emas. Bu fan taraqqiyotida islomni qabul qilgan arab bo'lmagan xalqlar vakillarining hissasi beqiyosdir. Shuning uchun arab fani deganda Islom dinini qabul qilgan barcha xalqlar, shu jumladan, markaziy Osiyo xalqlaridan yetishib chiqqan buyuk siymolar yaratgan fan deb tan olinishi kerak. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, istilo qilingan xalqlar ilm fan borasida ko'p jihatdan arablardan yuqori turgan. O'rta asr arab fani qadimgi Yunoniston, Markaziy Osiyo, Kavkaz orti, Erondagi ilm fanlarning zahirida rivojlangan.

Hozirgacha biz befarq qarab, ba'zan inkor etib kelganimiz Islom dini va u tufayli arab tilida vujudga kelgan juda katta diniy adabiyot Markaziy Osiyo xalqlari fan va tarixi taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'rta asr ilm fani yutuqlarini o'rganmay turib bu xalqlar tarixi, madaniyati va san'ati to'iq va izchil o'rganish mumkin emas.

Arab olimlari Arastu (Aristotel)ni "Birinchi mualil" (Muallim – ul - avval) deb atagan bo'lsalar, Buxorolik buyuk olim va faylasuf Abu Ali ibn Sinoni "Shayx – ur - rais" (olimlar boshlig'i) deb ataganlar. Arab fani va madaniyati taraqqiyotiga o'z xalqining farzandlari Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oni, Mahmud Qoshg'ariylar juda katta ta'sir ko'rsatganlar. Ulug' munajjim va matematik al-Xorazmiy tuzgan astronomik jadvallardan – "Zij"dan arab astronomlari

foydalanganlar. Ibn Sino va Xorazmiy asarlari arab tili va arablar orqali o'rta asr Ovro'pasiga tarqalgan.

Arab fani taraqqiyotidagi *birinchi bosqich* VII –VIII asrga to'g'ri keladi, markazi Iroqdagi Basra va Kufa shaharlari bo'lgan. Islom tarqalgan turli mamlakatlarda juda ko'p istedadli olimlar shu shayarga kelib, fanning turli sohalaridanta'lim olganlar. Arab tili davlat va hukumron din tili, muqaddas (ya'ni Qur'on tushgan) til sifatida, ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganilgan. Mashhur arab – fors tilshunosi **Sibavayx** (796 yil atrofida vafot etgan) birinchi bo'lib arab tilini gramatikasini tuzgan.

Arab fani taraqqiyotida *ikkinchi bosqich* VIII asrdan, xalifalik markazi Bag'dodga ko'chirilganidan so'ng boshlanadi. Bu davrda daqimgi yunon va sharq xalqlari yaratgan asarlarni yig'ish va ularni arab tiliga tarjima qilishga kirishilgan. 773 yil astronomiyaga oid hindcha kitob “Sind xanta”, undan keyin pahlaviy, suryoniy va yunon tillariga yozilgan qator asarlar tarjima qilingan. 830 yili Bag'dodda tarjimon va olimlardan iborat “Xizonat al-hikmat”(hikmat xazinasi) degan uyushma tuzilgan tarjimonlik ishlari yanada avj olib ketgan.

IX – X asrlarda Bag'dod va boshqa fan markazlarida Arab xalifaligi tarixi va umumiy tarixga oid ko'plab sarlar yaratilgan. Bu sarlarning ko'pchiligi forsiy tilda yozilgan manbalar orasida arab bo'lmagan tarixnavislar tomonidan yozildi. Abu Jafar Muhammad Tabariyning (923 yulda vafot etgan) “Tarixi ummam va mulk” nomli tarixiy asari va Qur'on tavsiriga bag'ishlangan “Jome' al-bayon fi ta'vil al – Qur'on” kitobi, Ali ibn Husayin Ma'sudiyning (vafoti 996 y) “Muruj az-zahab va maodin al-javhar” asarida arab xalifaligi sulolasi tarixi bilan bir qatorda sharq xalqlari hayoti haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu davrda geografiya sohasida ham ko'plab asarlar yaratilgan. Ularning eng mashhur xalifalikda aloqa ishlari boshlig'i Ibn Xo'rdodbox va Ibn Xavqalning “al-Masolik va al masolik” asari, Ma'sudiy va Maqdisiylarning geografik asrlaridir. Shaxsiy kuzatishlar asosida yozilgan bu asrlarda xalifalik yerlari va ba'zi bir xorijiy mamlakatlar haqida qimmatli ma'lumotlar, shahar va mamlakatlar bo'ylab qilingan sayohat yo'nalishi berilgan. Ibn Fazlanning Markaziy Osiyo va Volga bo'yiga 921 yili qilingan sayohatlari asosida bulg'or, rus, xazar va boshqalar haqida to'plagan ma'lumotlari juda qimmatli manbalardir.

Tabiiy fanlari asosida bu davr yangi ixtirolar davri hisoblanadi. Matematik va astronom al-Battoniy (858 -926y) trigonometric funksiyalar (tangnes, sinus, katangens)ni ishlata boshlaydi. Kimyo sohasida bir qancha ixtirolar arab al ximigi Jobir ibn Hayyonga (VIII asr) tegishli bo'lgan.

Bu davrda qurilgan rasadxonalarda arablar bilan bir qatorda Markaziy Osiyolik istedadli olim va astronomlar ham fan bilan shug'ullanadilar.

Arab ilm fani taraqqiyotining uchuichi bosqichi XI – XV asrlarni qamrab oladi. Bog'dod bilan bir qatorda arab madaniyatining yangi markazlari Qurtiba (Qurdoba), so'ng Sevilya va Damashq kabi ilm fan markazlari paedo bo'lgan.

Tarixnavislik sohasida bu davrda bir qancha umumtarixga oid yirik asarlar dunyoga keldi, ayrim mamlakatlar tarixi va lug'atlar yaratilgan. Bulardan Ibn al-Asirning (1160-1237y) X-XII asrlar arab mamlakatlari tarixiga oid asosiy manba bo'lgan. “Komil fit-tarix” nomli yirik kitobini, Abulfido (1273-1331y) va Ibn Xaldun (1332-

1406y)larning tarixiy asarlari, al-Baqriyning (vafoti 1094) “Kitob al-masolik va-l-mamolik”, Yoqut al-Xamoviyning (1179-1229y) ko’p jildli “Mujam al-Buldon” nomli lug’ati, Marokashlik Ibn Batutaning (1303-1377y) “Tuhfat – un – Nazzofi g’aroyibil amsor va ajoyib – il - asfor” sayohatnomasidir. Fizik Ibn Haysam (965-1039y)optika sohasida qator ixtirolar qilgan. Uning “Optika” asari Ovrupalik olimlar ijodiga (masalan: Beko, Keplerga) katta ta’sir ko’rsatgan. Andaluslik astranomlar Mojritiy (vafoti 1007y) va Zarqaliy (1029-1087y)astronomic jadvallar yaratganlar.

Islom dinida ilmga bo’lgan munosabat Islom dinining vujudga kelishi bilan birgalikda bu dinni qabul qilish bilan ijobiy o’rnatilgan.

Alloh taolo Quroni Karimni o’z payg’ambariga uning payg’ambarlariga dalil hamda kishilar uchun dastur qilib yuborgan. Ilmiy kashfiyotlarni tasdiqlash ilohiy kitobning asosiy maqsadlaridan emas. Biroq xudoning borligi va birligiga dalil sifatida osmon va yerdagi jismlar harakati, ularning yaratilishi haqida Qur’onda ayrim ma’lumotlar bo’lib, u nozil bo’lgan davrda, ya’ni, bundan 14 asr oldin, bunday ikmlar bo’magan sharoitda ularning bildirilishi Qur’onning Olloh tomonidan nozil bo’lganligiga yana bir yorqin dalil. Falakkiyot olimlarining kashfiyotlari osmon bilan yer qachonlardir bir butun bo’lganligini, so’ng qattiq bosim sababli portlab parchalanganligini aytadilar. Bunda yana bir dalil shuki, oyga qo’ngan kosmonavtlarning oy jinsidan olib tushgan namunalari tarkibidagi unsurlar mavjudligi ma’lum bo’lgan.

10-mavzu: Musulmonlik haq – huquqlari va vazifalari

Reja:

1. Ota – ona hamda farzandlarning haq-huquqlari va vazifalari.
2. Davlat rahbarlari va ra’iyatning haq – huquqlari, vazifalari.
3. Musulmonlarning haq – huquqlari va vazifalari.
4. G’aydinlarning haq – huquqlari va vazifalari.

Alloh taolo shariatning ezgu buyruqlarida adolatga rioya qilish hamda har bir haq – huquq egasining haqini kamsitmay va oshirib ham yubormay ado etishni lozim deb hisoblagan.

Adolat nomi bilan payg’ambarlar yuborilgan, Alloh kitoblari nozil bo’lgan, dunyo va oxirat ishlari bayon etilgan. Adolatning mazmuni – har bir haq egasining haqini berish, har bir insonni o’z maqomiga qo’yish uning insoniy haq huquqlarini ado etish demakdir. Bu haq – huquqlar Islom ulamolari tarifi bo’yicha o’nta bo’lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Alloh taoloning haq – huquqlari;
2. Payg’ambar alayhissalomning haq – huquqlari;
3. Ota – onaning haq – huquqlari;
4. Farzandlarning ota – onalardagi haq – huquqlari;
5. Qarindosh urug’larning haq – huquqlari;
6. Er – xotinning haq-huquqlari;

7. Hokimiyat va raiytning haq-huquqlari;
8. Qo'shnilarning haq-huquqlari;
9. musulmonlarning haq-huquqlari;
10. G'ayridin xalqlarning haq-huquqlari.

1. Har bir kishi ota-onasining farzandlaridagi haqini inkor etolmaydi. Ota-ona bolaning vujudga kelishi sababchisi bo'lgani uchun ham ularning farzandlik haqlari bor. Ota-ona bolani yoshlikdan ardoqlab avaylab o'stiradi, uning rohati uchun qayg'uradi.

Qur'oni Karimda: "Insonga ota-onaning xizmatini ado etishni buyurdik, onasi uni kundan kun og'irlashib borayotganida mashaqqat bilan o'z qornida ko'targan, sut emizish davri esa ikki yil, menga va ota-onaga shukur qil va mening huzurimga qaytarsan" deyiladi. Alloh Taolo Qur'oni Karimda ota-onani hurmat qilish va ularni qadriga yetishni, buyuradi. Farzandga odob axloq o'rgatish, uni kasb-hunarli qilib tarbiyalash, balog'atga yetsa, qiz bo'lsa kuyovga uzatish, o'g'il bo'lsa o'ylantirish kabi sermashaqqat vazifalarni bajaradi.

Qur'oni Karimda: "Parvardigoring hukm chiqaradiki, faqat unga ibodat qilgaysan va ota-onaga yaxshilik qilgaysan, agar ulardan biri yoki ikkovi sening huzuringda keksayib kuch quvvatdan ketsa, ularni jerkima va ularni malol olma, ularga muloyim va yumshoq so'z ayt, rahmdillik yuzasidan ular oldida kamtarinlik qil va "kichikligimdan meni tarbiya qilganlari parvardigor ularni o'z rahmatingga ol, deb duo qil"

Ota-onaning haqlarini bajo keltirish esa, ularga xoh so'z bilan, xoh fe'l bilan yaxshilik qilishdir, xoh ashyo, xoh gap bilan ularning dillarini shod qilish.

Agar sen o'z ota-onangga xizmat qilgan bo'lsang, sen ham qariganingda bolalaring xizmatini ko'rarsan.

Agar kimki o'z ota-onasiga oq (gunohkor) bo'lgan bo'lsa uning bolalari ham unga oq bo'ladilar. Chunki hadisi sharifda aytilganki, kimki birovga zulm qilgan bo'lsa o'zi ham bir kun shu zulmga uchraydi.

Ota-onaga yaxshilik qilishni va ularning xizmatlarini ado etishni Rasululloh sallollohu alayhi va sallam Alloh yo'lida qilinadigan g'azot (jihod) bilan tenglashtirilgan.

Har bir farzand keksayib qolgan onasi yoki otasining xizmatini bajo keltirsa, Alloh yo'lida islom uchun xizmat qilayotgan fozillar bilan barobar ajr va savobga ega bo'lar ekan. Sahih al-Buxoriyda Abdulloh ibn Ma'sud raziyallohu rivoyat qildilar: "Hazrat Rasulullohdan so'radim: "Allohga qaysi amal ma'qulroqdir?" Rasululloh: "Ota-onaga yaxshilik qilish", dedilar. Men: "Yana qaysi amal?" deb so'radim. Rasululloh: "Alloh yo'liga g'azot qilish", dedilar. Shu asnoda bir kishi kelib, g'azotga chiqishga Rasulullohdan ruxsat so'radi. Rasululloh: "Ular xizmatini qilsang g'azot qilgan bo'lasan", dedilar"

"Sunnai Abu Dovud"da quyidagi hadisi sharif keltirilgan Ansoriylardan yana bir kishi kelib: "Yo rasululloh! Ota-onam o'kib ketgandan keyin ham ularga yaxshilik qilishim kerakmi?" – dedi. Rasululloh: "Oriyja 4 narsa bilan xizmat qilishing kerak." Biri ularning haqiga duo qilish, istig'for aytish, ularni ahd va va'dalarini bajarish, ularni do'stlarini hurmat qilish va qarindoshlar oralarini yaxshilash. Mana shular ota-onangning o'lganlaridan keyin senga qolgan haqlaridir", dedilar. Shariatda

ota-onani hurmat qilish g'oyasi ktng targ'ib qilinishining hikmati shuki, ota-onaga farzabdbibg itoat qilishi natijasida farzand odobli va intizomli bo'lib o'sadi. Intizom esa kishining butun umri bo'yi kerak bo'ladigan yaxshi xislatidur. Bolaning ota-onaga itoat qilishi lozimligi har bir ota-onaning o'ziga ham qo'shimcha vazifalarni yuklaydi. Ota-onaning oila oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi va bola oldida o'zlarini ma'lum yuqorilikda tutishga majbur qiladi va bolasidan ko'ra bilimdonroq va kasb-hunarda yuqoriroq bo'lishga da'vat etadi.

Hozirgi zamonimizda nisbatan tezlik bilan taraqqiyot cho'qqilariga chiqib borayotgan Janubiy-sarqiy Osiyo mamlakatlarining tajribasida shuni ko'ramizki, u yerdagi xalqlar qadimdan o'z ajododlari va ota-onalarini hurmat qilish odatiga o'rganganlar, bu ularning intizomli bo'lib tarbiya olishiga imkon yaratgan. Shuning uchun jahon olimlari bu haqiqatga o'z diqqatlarini qaratib kelmoqdalar.

Farzandlarning ota – onalardagi haq – huquqlari va vazifalari.

Farzandlar deganimizda oiladagi o'g'il va qizlarni tushunamiz. Xoh qiz, xoh o'g'il bo'lsin teng va barobar ravishda o'z ota-onalarida haqlari bor. Bu haqlar, avvalo, tarbiyaga taaluqli bo'lib farzandlar yosh go'daklik vaqtlaridan boshlab axloq va odobga o'rgatilishi ota-onaning vazifasidir. Agar bunday qilinmasa farzandning haqqini ado etmagan bo'ladilar.

Farzandlar ota-ona zimmasiga Alloh tarafidan omonat qilib topshirilgan bo'lib, ularning haqida qiyomat kunida Alloh oldida ota-ona javob beradi.

Shar'iy durch va vazifalarbi ado etgandagina ota-ona farzand oldida izzat va ehtiromga erishadi.

Bu vazifalarning biri – farzandlar aqlini tanigan davrida, ayniqsa, ularga teng va barobar nazar bilan qarash, ayrimlarini kamsitmaslikdir.

Bolaning tug'ulgan kunidan boshlab ota-ona bo'ynidagi haq-huquqlari hadisi sharifda shunday bayon qilingan:

1. Tug'lganda go'dakka ism qo'yish;
2. Imkon bo'lsa unga aqiqa qilish;
3. Tili chiqqan vaqtdan boshlab unga odob uslubini o'rgatish;
4. Din asoslari: Qur'oni Karim oyatlari , tahorat, namoz hamda pokizalikka o'rgatish;
5. Halol va haromning asoslarini o'rgatish;
6. Kasb-hunar o'rgatish;
7. bolaning huquqlaridan, shuningdek o'g'il bolani xatna qilish ham ota-onaning vazifasidir.

Farzandlarning ota-onadagi huquqlaridan biri ota-onaning farzandiga hayotning har sohasida ta'lim bergudek darajada bo'lishdir. Har bir oilada o'ziga xos bo'lgan ilm-hunar, mavohib (talantlar) rivoj topadi. Birov hunarmandlikda, birov texnikaga havas qo'yishda, birov ilm-fanning biron sohasida mahorat hosil qilgan bo'ladi. Har bir oila boshlig'i manashu ilm-hunarni bolalarga yoshlikdan singdirib borsa, ularning tez kamolga yetishiga yordam qilgan bo'ladilar. Bu o'z navbatida ota-onaning ham ilmga intilishiga omil bo'ladi. Ilm fan sohasida orqada qolish ota-ona va farzandlarni ham baxtsiz qiladi, ularning turmush va hayotlarining mazmunsiz o'tishiga olib keladi. Eng avvalo ota-ona shariat asoslarini yaxshi bilishlari taqozo qilinadiki, bu – boshqa ilmlarni ham halollik va pokizalik uslubida o'zlashtirishga

olib keladi. Chunki insoniyat taraqqiyoti halollikka asoslanganda yaxshi natijalar bergan, xalqlarning shon shuhratini osirgan.

2. Musulmonlarning ishlariga rahbarlik qiluvchi hokim, xoh davlat teppasida turadigan bo'lsin, xoh idora boshlig'i bo'sinlar, ularning ra'iyat oldida ma'lum vazifa va huquqlari bor.

Ra'iyatning rahbarlardagi haq-huquqlari avvalo adolat bilan ularga muomala qilish, to'g'ri va odil siyosat yurgizish, xalq hayoti uchun osoyishtalik va tinchlik o'rnatish, Qur'oni karimning bu boradagi da'vatiga amal qilishdan iboratdir. Adolatli siyosat yurgizilganda xalq bilan rahbarlar o'rtasida uyg'unlik paydo bo'ladi, ulardan xalq rozi boladi. Agar hokimiyat teppasida turganlar o'z xalqi va ra'iyatiga mehribon bo'lsalar, xalq ham o'z hokimlariga mehribon va itoatli bo'ladi.

Agar rahbarlar xalqni quruq vadalar bilan aldashga urinsalar o'rtada mehr-muhabbat ko'tariladi, xalq hokimiyat teppasida turganlarga ishonmay qo'yadi. Rahbarlarning xalq va ra'iyatdagi haqqi – kishilarning dunyo va oxirat ishlarida to'g'ri yo'lda yurishlarini talab qilish, ag'ar g'ofil bo'lsalar xushyor qilib qo'yishdan iborat. Adashsalar to'g'ri yo'lga solib qo'yishlari kerak. Xalqning talablari to'g'ri bo'lsa uni bajarmog'i lozim. Yog'iy va jinoyatchilar tug'yonidan xalos bo'lishda xalqni istagini ado etish.

Haq subhonhu va taolo Quroni karimda aytadi: “ey mo'minlar, Alloh taologa, payg'ambarlarga va o'zingdan chiqqan amir va rahbarlik egalariga itoat qiling”

Buyuk olim Ibn Xaldun (XIV) o'zining shoh asari “Al-Muaddima”sida: “Xalq rahbari – ularning ishlarini ado etuvchi kishidir, chunki ra'iyatsiz rahbarsiz ra'iyat bo'maydi, chunki rahbar yaxshi bo'lsa, xalqning foydasi, agar yomon bolsa, uning boshiga kulfat bo'lib tushadi. Agar rahbar ra'iyatning ayblarini qidiruvchi bo'lsa, xalq xavf va vahimaga tushib qoladi va rahbardan har xil hiyla-nayrang va yolg'on-yashiq gaplar orqali qochmoqchi bo'ladi, natijada xalq orasida axloq buziladi, davlatning dushmani ko'payadi, mamlakatdan baraka ko'tariladi” – deydi.

“Aqlli rahbar esa buning oldini olish uchun xalq ila mashvarat va sho'ro bilan ish olib borishni yo'lga qo'yish kerak”, - deydi Ibn Xaldun o'z so'zini davom ettirib. Ibn Xaldun yana shunday deydi: “Bilgilki, kishilarning mol mulkiga qo'l cho'zish ularning xafsalasini sovtadi. Kishilar mol dunyoni qo'lga kiritishga harakat qilmay qo'yadilar, bozorlar kasod bo'ladi, hayot darajasi pasayadi, odamlar rizq-ro'z qidirib har yoqqa tarqalib ketadi, shaharlar va qishloqlar xarob bo'ladi”.

“Taqvim ul-hukkom” (“Hokimlarni to'g'ri yo'lga solish”) degan kitobida: “Musulmon rahbarlarni tanqid va shiddat yo'li bilan emas, balki musulmonlarning oqsoqollari va keksalari orqali nasihat qilish yo'li bilan to'g'rilash kerak. Chunki shiddat va to'polon yo'li bilan bildirilgan e'tirozlar hamma vaqt ham uni to'g'ri yo'lga sololmaydi, balki qurol ishlatishga va tobora qahr-g'azabi oshishiga olib keladi”, deydi.

“Shar'atul – islom ” nomli axloq va odobga bag'ishlangan mashhur kitobida hokimlarning vazifalari haqida shunday deyiladi: “Rahbarda quyidagi xislatlar mavjud bo'lishi kerak:

1. O'z amaliga va mansabiga bino qo'ymaslik;
2. irodali, to'g'ri fikrlovchi, aldovga berilmaslik, rahmdillik holida qattiqqo'l bo'lishi;

3. yumshoq gapli bo'lish va ayni vaqtda o'zini zaiflikdan saqlash;
4. isrofgarchilikka yo'l qo'ymay, saxovatli bo'lish;
5. baxil va xasis bo'may, mol-mulkni asrovchi bo'lish;
6. o'z qo'lidagi hukmni siyosat orqali ushlab turish".

Bundan tashqari hokim faqir-fuqaro ba zaiflarni himaya qiluvchi taqvodor va karamli bo'lishi kerak. Xalqdan ajralib yashashdan qochishi, hojat va iltimos egalariga mumkin qadar eshigi ochiq bo'lishi lozim.

Qasddan jinoyat qilmagan jinoyatchilarga rahmdil bo'lishi kerak. Chunki Rasululloh sallollohu alayhi va sallam huzurlariga o'g'rilikda ayblangan bir kishini olib kelganlarida: "Ehtimol adashib olgandirsan, seni o'g'ri deb hisoblamayman", deb uning jinoyatini yengillashtirgan edilar.

Xalqning amaldor va hokim kishilardagi haqlari shuki, u yollarni yaxshi yolda saqlashi, qo'riqlashi lozim. Miski va fuqarolarning holini so'rashi, qarzga botib qolgan kishilarning qarzidan qutilishiga yordam qilishi, qaroqchilar, yo'l to'suvchilar, kishilarning hayoti va mol-dunyosiga xatar tug'diruvchilarga qarshi doimiy ravishda chora ko'rishi uning vazifasidir. Hokim oqil, dono va tajribali, ilimli kishilarni o'ziga yaqinlashtirishi va ularga g'amg'o'rlik qilishi shartdir. Xalq ustiga biron rahbar va qozini tayorlashda to'g'ri, rostgo'y diyonatli kishilarni tayinlashi, mansabparast kishilarni bu vazifalarga tayinlamasligi kerakki, bu ham xalqning hokimlar va amaldorlardagi haqlaridandur.

3. Musulmonlarning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarning asosi Alloh taolo va uning rasuli roziligi uchun bir-birlarini yaxshi ko'rishdan yoki yomon ko'rishdan iboratdir. Yaxshi ko'rish ular yaxshi va savobli ish qilganda, yomon ko'rish esa gunoh ishlarni oshkora qilganlarida namoyon bo'ladi. Musulmon kishi biror kishining ichkilik ichgani uchun yoki boshqa harom ishlarni qilgani uchun undan yuz o'g'irmasdan uni to'g'ri yo'lga hidoyat qilishi lozim.

Shariat ta'limotlarida kimlar bilan do'stlashish va yaxshi munosabatda bo'lish haqida yo'llanmalar berilgan:

1. oqil va idrokli kishilar bilan do'stlashish lozim, axmoq va aql-idroksiz kishilar bilan do'stlashishning foydasi yo'q, chunki aqlsiz kishi foyda yetkazaman deb zarar yetkazib qo'yishi mumkin.
2. yaxshi xulqli va odobli kishilar bilan do'stlashish lozim
3. taqvodor va o'zini shubha va harom narsalardan asrovchi kishilar bilan do'stlashish lozim
4. Qur'on va sunnatga amal qiluvchi kishilar bilan do'stlashish lozim.

Islom shariatiga taaluqlimo'tabar kitoblarda musulmon kishining o'zi yashayotgan jamiyat a'zolariga nisbatan 22 ta muhim vazifasi bor deb ta'kidlanadi:

1. salom berish;
 2. bir musulmon huzurida ikkinchi bir musulmon aksirsa va "alhamdulillah" desa, unga "yarhamukalloh va yashfika" (ya'ni Alloh seni rahmat qilsin va shifo bersin) deb javob qilishi sunnatdur;
 3. agar musulmon kasal bo'lsa borib ko'rish;
- shu o'rinda Hadisi sharifda hazrati Rasuli akram sallollohu alayhi vasallam: "Musulmon kishining musulmon kishida 5 ta haqi bor deyilar:
- a) salom bersa alik olish;

- b) kasal bo'lsa kasalni ko'rish;
 - c) o'lsa janozasini kuzatish;
 - d) to'y yoki marosimga chaqirsa borish
 - e) aksirsa javob qilish".
4. janozaga hozir bo'lish farzdur.
 5. bir musulmon qasam ichsa, uning qasami bajarilishiga yordam qilish.
 6. musulmon maslahat so'rsa to'g'ri maslahat berish.
 7. o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqa musulmonga ravo ko'rish.
 8. musulmonlar bir biriga yordam zarur bo'lganda yordam ko'rsatish.
 9. qasddan zarar yetkazmaslik.
 10. bir-birlariga nisbatan kamtarlik va tavo'ze bilan muomalada bo'lish.
 11. bir-birlari bilan 3 kundan ortiq arazlamaslik.
 12. bir-birlaridan g'iybat qilmaslik.
 13. bir-birlarini so'kmaslik
 14. bir-birlariga nisbatan badgumon bo'lmaslik.
 15. bir-birini aldamaslik.
 16. xiyonat qilmaslik.
 17. yaxshi muomalada bo'lish.
 18. o'zidan kattani hurmat qilish.
 19. bir-biriga insof bilan qarash.
 20. boshqalarni xatolarini kechirish.
 21. agar bir musulmon kishi yordamga muhtoj bo'lsa yordam berish.
 22. musulmon panoh tilasa, panoh berishlik.

4. Ibn al- Qayyim al-Javziyaning "Ahkomi ahliz-zimma" ("Musulmonlar zimmasidagi hukumlar")degan qonunlar yig'indisi kitobida : "Musulmon bilan birga ularning himoyasida yashovchi g'ayridinlar barcha tegishli huquqlarga egadirlar", deyiladi. Ularni kamsituv og'ir gunohlardandir. Alloh taolo Qur'oni karimda ravshan bayon etadi: Ya'ni: "Alloh sizlarni sizga qarshi din uchun qurol ishlatmagan va yurtinigizdan haydab chiqarishga urinmagan g'ayridinlar bilan ezgulikda yashash, ularga insof qilishdan sizlarni ma'n qilmaydi. Bataqqaq Alloh adolatli kishilarni yaxshi ko'radi".

Bu oyatda islom dinining g'ayridinlarga naqadar insof bilan qaragani ko'rinib turibdi. Din va aqidalarga tajovuz qilmagan g'ayridinlar bilan tinch totuv yashash islom dinining oily maqsqidur. Islom mamlakatlarida qadim zamonlardan buyon ko'plab g'ayridinlar musulmonlar orasida yashab kelganlar, o'z diniy urf odatlarini bajarishlari shariat qonunlarida himoya qilingan. Masalan, otashparast g'arblar qoldiqlari hozir ham Eronda yashab kelmoqda. Suriya va Misrda millionlab nasroniylar, Iroqda Sobinlar. Buxoro va Samarqandda ko'plab yahudiylar mihg yil davomida yashab kelmoqdalar. Musulmonlar ularbi tazyiq ostiga olganlari va majburan islom diniga kirgizish uchun harakat qilmaganlari tarixda ayondir. Yuqorida zikr qilingan "Ahkomi ahliz-zimma"kitobiga yozilgan muqaddimasida Hindistonlik olim Muhammad Hamidullo shunday deydi: "Islomda zimmiylar (g'ayridinlar) uchun nafaqat din va madaniy ozodlik, balki ularga hiyonatning barcha sohalarida ozodlik berildiki, bunday huquqlarni g'arb davlatlari u yerda yashayotgan musulmonlar uchun to'liq bergan emas."

Qur'oni karim oyatlari hukmi bo'yicha, zimmiylar ishlarida to'liq ravishda ularning muqaddas kitobi Injil hukmiga muvofiq hukm chiqarishga chaqiradi. Shu da'vatlarga muvofiq har bir musulmon kishi o'zi bilan bir joyda yashayotgan va ishlayotgan g'ayridinlar bilan tinch-totuv yashashga, unga adolat va insof bilan muomalada bo'lishga da'vat qilihgan. Ularga umumiy rahmdillik va shavqat nazari bilan qarash, hayotning barsha sohalsrida hamkorlik qilish buyurilgan. G'ayridinlarning musulmonlar zimmasida ma'lum haq va huquqlari bor. Bular agar och qolsa, ubi to'ydirish, chanqasa suv berish, kasal bo'lsa davolash, halokatdan qutqarish. Unga ozor va aziyat yetkazmaslikdur. Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi va sallam o'z hadisi shariflarida: "Yer yuzidagi barcha maxluqlarga rahm-shavqat qiling, shunda sizga osmondagi Alloh rahm-shavqat qiladi", dedilar(Sahih hadis). Va yana: "Har bir banda qaysi bir maxluqqa rahm-shavqat qilsa, unga savob oladi", deganlar.

Musulmonlarning zimmiy oldidagi vazifasi – uning mol duhyosiga, izzat obro'siga tajovuz qilmaslik va uni himoya qilishdan iboratdir.

Hazrat Rasululloh: "Kimki zimmiyga nohaq ozor bersa, men qiyomat kunida da'vogar bo'laman", deganlar (Imom Muslim).

Bu hadisi sharif mazmuniyoq Islom dini yuksak insonparvar ekanidan darak berib turibdi. Bu ulug' ta'limotlar musulmonlarning umum manfaatlariga qaratilgan. Chuhki Qur'oni karim oyatlarida: "Ezgulik va taqvo yo'lida hamkorlik qilinglar" deb buyurilgan. barcha yer yuzidagi xalqlar bilan hamkorlik qilish shariati islomning oily maqsadidir. Bu maqsad butun insoniyatning mushtarak manfaatini ko'zlaydi. Xulosa qilib aytganda, barcha mo'min-musulmon yuqorida bayon etilgan barcha haq-huquqlardan to'la foydalanishi, ularni so'zsiz bajarishi hamda boshqalarni ham bajarishga undashi lozim.

11-mavzu: Islom dini ta'limoti va tasavvuf

Islom ta'limoti. *Islom* so'zi arabcha – *Allohga o'zni topshirish, itoat etish, taslim bo'lish, bo'ysunish* ma'nolarini beradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha, Muhammad payg'ambar avvalgi payg'ambarlar (O'rta Yer havzasi sivilizatsiyasi ichida ma'lum bo'lgan) ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo') – nabiy va rasul deb tan olinadi.

Islom dini ichidagi uch asosiy oqimlardan biri bo'lgan sunniylikda IX asrga kelib *besht arkon* (rukun – arabcha «ustun» ma'nosini anglatadi) haqidagi ta'limot shakllanadi. Ko'pchilik ulamolar fikricha, ular quyidagilar:

1. **imon;**
2. **namoz (arabcha – salat);**
3. **zakot;**
4. **ro'za (arabcha – savm);**
5. **hajj;**

Imon. Imon masalasida islomda (*ahl as-sunna, shi'alar, xavorijlar* ichida) avvalgi davrda turli maktablar vujudga kelib, ular shu kungacha rivojlanib kelmoqdalar. Ba'zi ta'limotlar (masalan, *mu'tazila, murji'a*) yo'qolib, yangi teologik maktablar paydo bo'lgan. Shuningdek, ko'p hollarda alohida olingan mashhur mutafakkir-ulamoning shaxsiy yo'li (*mazhabi*) ancha xususiyatlarga ega bo'ladi. *Ahl as-sunna va-l-jamoa* ichida klassik davrda ikki asosiy maktab – *moturidiylar* va *ash'ariylar* kuchli mavqega ega bo'ldilar. Masalan, *moturidiylar* nazdida aqida masalalarida quyidagicha fikr mavjud:

«Imon» so'zining lug'aviy ma'nosi *ishonmoq, tasdiqlamoq* bo'lib, istilohda esa *Lo iloha illa-lloh, Muhammadun rasululloh* («Allohdan o'zga ilohiyat yo'q va Muhammad – Allohning payg'ambari») *kalimasini* til bilan aytib (*al-iqror bi-l-lison*), dil bilan tasdiqlash (*at-tasdiq bi-l-qalb*) demakdir. Mazkur ta'limot boshqalaridan *imon* masalasida *amalni* alohidalashi bilan farqlanadi. Imonning yetti sharti bor. Ular:

– Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning Qur'oni karimda va Muhammad payg'ambar hadislarida bayon qilingan barcha *ismlari* va *sifatlariga* imon keltirish. Ibodat qilish va sig'inishga undan o'zga loyiq zot yo'q deb bilish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish. Qur'onning «al-Ixlos» (112-) surasida Alloh taoloning yagonaligini shunday ta'riflanadi: «Aytgin (Ey, Muhammad payg'ambar): Alloh yagonadir, beniyozdir (hech kim va hech narsaga muhtoj emas, balki barcha unga muhtojdir), tug'magan, tug'ilmagan va uning tengi yo'qdir» (Qur'on, 112:1-4);

– farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (*malo'ika*) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so'zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabro'il (Jibril), Miko'il (Mikol) kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur'onda zikr etilgan. Jabro'il farishtaning vazifalaridan biri payg'ambarlarga Allohning *vahylarini* yetkazish bo'lgan. Farishtalardan ba'zilari odamlar bilan doim birga bo'lib, ularning yaxshi va yomon ishlarini yozib boradilar. Qur'onda ular «*Kirom kotibun*» (*mukarram kotiblar*) deb zikr etilgan (Qur'on, 82: 10-12). Bundan tashqari, tafsir kitoblarida Isrofil, Azro'il nomli farishtalarning ismlari qayd etilgan. Qur'on va hadislarda farishtalar haqida juda ko'p yerda so'z yuritilgan. Ularga ishonish imonning shartlaridandir;

– ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg'ambarga Qur'onni nozil qilganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim payg'ambarga «Sahifalar», Muso payg'ambarga «Tavrot», Dovud payg'ambarga «Zabur» va Iso payg'ambarga berilgan «Injil» kitoblaridir. Ulardan boshqa payg'ambarlarga yuborilgan kitoblar haqida Qur'on va hadislarda xabar berilmagan. Yuqorida nomlari zikr etilgan kitoblarning barchasi Qur'onda Alloh tomonidan nozil qilingan deb ta'kidlanganligi sababli ularga shunday deb ishonish imonning shartlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababidan Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan;

– payg’ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to’g’ri yo’lni ko’rsatish uchun payg’ambarlar yuborgan. Barcha payg’ambarlar bir zanjirning bo’g’inlari kabidirlar. Qur’onda 25 payg’ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg’ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. Musulmonlar uchun ulardan Qur’onda nomi zikr qilingan va zikr qilinmaganlarning barchasiga barobar imon keltirish shart;

– Oxirat kuniga ishonish. Dunyoning ibtidosi bo’lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta’limotiga ko’ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud. Qiyomat kuniga va oxirat hayotiga ishonish islomning asosiy g’oyalaridan biridir;

– taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligi yomonlik Allohdan ekaniga – e’tiqod qilish. Yuqorida aytib o’tilganidek, islomning ma’nosi «*taslim bo’lmoq*», «*o’zini topshirmoq*»dir. Shunga binoan, inson hayotda ro’baro’ bo’ladigan barcha yaxshi-yomon ishlarni o’zi uchun Alloh tomonidan belgilangan sinov va imtihon deb bilishi lozim. Yaxshiliklarga shukr qilmog’i, qiyinchilik va mashaqqatlarga sabr qilmog’i imonning shartlaridan biridir;

– o’limdan keyin qayta tirilish. Islom ta’limotiga ko’ra, qiyomat kuni bo’lganda barcha insonlar qabrlaridan turadilar va mahshargoh maydoniga yig’iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do’zax)ga mahkum etiladilar.

Namoz. Namoz – islomda imondan keyin musulmonlar ustiga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Namoz arkonlari Qur’oni karimda to’liq bayon etilmagan bo’lsa ham, ammo u haqda ba’zi ko’rsatma va tartiblar berilgan. Namozning vaqti, miqdori hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Bu masalada musulmonlar orasida har xilliklar mavjud bo’lib, ular negizida turli mazhab ta’limotlari shakllandi. Har kuni besh vaqt: bomdod – (tong otishidan kun chiqquniga qadar), peshin – (quyosh tikkadan oqqanidan to biron narsaning soyasi o’z bo’yiga ikki barobar kelguniga qadar), asr – (peshin vaqti chiqishi bilan to quyosh to’liq botgunga qadar), shom – (quyosh to’liq botganidan ufqdagi qizillik yo’qolguniga qadar), xufton – (shom vaqti chiqqanidan tong otguniga qadar) ado etiladi.

Zakot. Zakot – «poklash» ma’nosini bildiradi, ya’ni ehtiyojdan tashqari bo’lgan boylikning qirqdan bir qismini (1/40) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga yetgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot yetim-yesir, beva-bechoralar, musofirlar, qarzdorlar, Alloh yo’lida yurganlar, zakot yig’uvchilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari, xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag’dan beriladi. Zakot vositasida jamiyat kishilari orasida o’zaro hurmat-e’tibor ortib, bir muncha tenglik yuzaga keladi. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo’lida o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ro'za. Ro'za – yilda bir oy: hijriy qamariy kalendarning *ramazon* oyi davomida kunduz kunlari yeyish-ichish va jinsiy aloqada bo'lishdan tiyilish. Ro'za *Hijrat*ning ikkinchi yili farz bo'lgan. Bu ibodat kasal yo safarda bo'lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Sababsiz ro'zani buzgan kishi boshqa kunda tutib berish bilan birgalikda, uning jazosi sifatida ikki oy paydar-pay ro'za tutishi lozim bo'ladi. Shuningdek, ro'za ramazondan tashqari oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, *nafl* ro'za yoki qasamni buzishdagi *kafforat* uchun ham ro'za tutiladi.

Haj – qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat. Haj farz amallardan hisoblansada, O'rta Osiyo Arabistondan uzoq masofada joylashganligi sababli yuqorida zikr etilga «*qudrati yetganlik*» sharti ulamolar tarafidan kiritilgan. Haj *zulhijja* oyining 8 kunidan boshlanadi. Haj qilishning uch turi mavjud: «ifrod» – faqat haj amallari bajariladi, «qiron» – haj va *umra* amallari oldinma-ketin bajariladi, «tamattu'» – avval *umra* qilinib, *ehromdan* chiqiladi va *zulhijja* oyining sakkizinchi kuni *ehromga* kirib, haj ruknlari ado qilinadi. Hajning farzi uchta: *ehrom* bog'lab niyat qilmoq, Arafotda turmoq, Ka'bani *tavof* qilmoq.

Islom dinida yuqorida birinchi rukn sifatida zikr qilingan *imon* va boshqa e'tiqod masalalari – *ilm al-aqo'id* (ilohiyot) ilmida o'rganilsa, keyingi 4 masala – *ibodat* masalalari boshqa ko'pgina savollar bilan *ilm al-fiqh* (diniy qonunshunoslik) doirasida bayon qilinadi va o'rganiladi.

Tasavvuf – islomdagi mistikasketik oqimdir. Mistitsizm, mistika so'zlari qadimiy yunon tilidagi *mystikos* – «yashirin», «sirli» so'zidan olingan bo'lib, ilohiyat bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot. Bu ta'limot insonning Xudo bilan aql va hissiyotdan yuqori bo'lgan sirli aloqasi bo'lib, uning natijasida insonda Xudoni bilish hosil bo'ladi. Qadimiy Sharq va yunon dinlarida ham insonni g'ayritabiyy kuchlar bilan bog'laydigan urf-odatlar (*misteriyalar*) – mistitsizm elementlari bor edi. Yakkaxudolik dinlarining barchasida mistitsizmga xos unsurlar mavjud. Hayotning barcha sohalari diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan o'rta asrlarda uning roli katta bo'ldi.

O'rta asrlarda xristianlikda mistitsizmning ikki yo'nalishi – mavjud bo'lib, ular ortodoksalcherkov mistitsizmi va yeretik mistitsizm edi. Birinchisiga ko'ra, inson butunlay Xudoning hukmiga bo'ysungan bo'lib, uning xohishiga qarab unga yetishishi mumkin bo'lsa, ikkinchisining ta'limotiga ko'ra, inson o'z harakatlari bilan ham Xudoga yetishishi mumkin, deyiladi.

Tasavvuf, sufiy yoki mutasavvif so'zlarining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Sufiylik mualliflari ko'pincha uning kelib chiqishini «*svf*» («sof bo'lmoq») o'zagidan yoki «*ahl assuffa*» (Payg'ambarning Madinadagi uyi yaqinidagi suffaga yig'iluvchi zohid kishilar)ga tegishli deb ta'kidlaydilar. G'arbiy Yevropa tadqiqotchilari to XX asrga qadar uning kelib chiqishini yunoncha – «*hikmat*»

(*sophia*) soʻzidan kelib chiqqan degan fikrga moyil boʻlishgan. Umar Farid Kam (1861-1944) «Vahdati vujud» asarida, Shamsiddin Somiy (1850-1905) esa «Qomusi turkiy» asarining «tasavvuf» va «sufiy» moddalarida ushbu fikrni yoqlaydilar. Shayx Saffet Yetkin ham shu nuqtai nazarni himoya qiladi. Ismoil Xaqqiy Izmirlik esa bu fikrni rad etib, zohidlik yoʻliga suluk solgan kishilarning «sufiya» ismi bilan mashhur boʻlishi, yunoncha asarlarning tarjima qilinishi va falsafaning musulmonlar orasida tarqalishidan avval sodir boʻlgan, degan dalillarni ilgari suradi va «sufiy» soʻzining yunon tilidan olinganligiga qarshi chiqadi. Endilikda bu soʻzning «suf» (jun chopon) soʻzidan kelib chiqqanligi haqidagi oʻrta asr musulmon olimlari taʼkidlagan fikr umumqabul qilingan fikr hisoblanadi. Chunki sufiylarning asosiy belgilari ularning dagʻal jundan kiyim kiyishlari edi. Shimoliy Arabiston va Suriyada xristianlikning turli sektalariga mansub jahongashta monax va anaxoretlar «sufiy» deb atalar edi, degan maʼlumotlar ham bor.

Tasavvufga asos boʻlgan tarkidunyochilik kayfiyati deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. Sufiylarning ilk namoyandalari deb Paygʻambarning Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Ammo islomdagi mistik-asketik oqimning shakllanishi VIII asrning oʻrtalari-IX asrning boshlariga tegishli. Bu davrda sufiylar qatoriga muhaddislar, qorilar, qussoslar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashgan jangchilar, kosiblar, tijoratchilar, jumladan, islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda *sufiy* yoki ***attasavvuf*** terminlari hali keng tarqalmagan edi: uning oʻrniga ***zuhd*** (tarkidunyochilik) yoki ***zohid***, ***obid*** soʻzlari ishlatilar edi. Islomdagi bu mistikasketik oqimning paydo boʻlishi va taraqqiy etishiga musulmon jamiyatidagi ilk ikki asr davomidagi siyosiyijtimoiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi, uning natijasida kelib chiqqan maʼnaviygʻoyaviy izlanishlar va boshqa dinlarning, xususan, xristianlikning taʼsirini koʻrsatish mumkin.

Ilk davr sufiylari, aniqrogʻi, *zohid* va *obid*lariga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat edi: Qurʼoni karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qurʼon va Paygʻambar sunnatlariga qatʼiy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor oʻtkazish, kunduzlari roʻza tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan oʻzini yiroq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish (*varaʼ*), oʻzini Alloh ixtiyoriga topshirish (*tavakkul*) va h.k.

Sufiylar taʼlimoti ***muʼtaziliy***lardagi mavhum ilohiyotga oid fikrlar, obroʻli shaxslarga koʻrkoʻrona taqlid qilish, muqaddas matnlarga soʻzmasoʻz itoat etishdan farqli oʻlaroq, insonga asosiy obʼekt sifatida qaraydi: inson amallarini boshqaradigan ruhoniyyatning mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga eʼtibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his qilish – ularga xos xususiyatlardan edi. Shu bois ham ziyrak psixolog, ***Ilm alqulub valxavotir*** (*Qalblar va fikrlar ilmi*)ga asos solgan al Hasan al Basriy (v. 728 y.) sufiylikning asoschilaridan hisoblanadi.

Al Hasan al Basriyning ashoblari, basralik zohidlar – Raboh ibn Amr, Rabi'a al-Adaviya (v. 752-53 y.), Molik ibn Dinor (131/748-49), Shaiq al-Balxiy (v. 770 y.) va Fuzayl ibn Iyod (v. 778 y.), Sulaymon ad-Doroniylarning (VIIIIX asrlar) va'z va ma'ruzalarida Allohga bo'lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo'lgan intilish haqidagi fikrlar paydo bo'ldi. O'sha davrdan boshlab ular sufiylikka aniq mistik xarakter bag'ishladilar va bu ta'limotlar sufiylik mafkurasining o'ziga xos xususiyatiga aylandi.

IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg'in harakatlar davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag'dod va Xuroson sufiylik maktablari ham eng nufuzli maktablar sirasiga kirdi. Ularning namoyandalari avvalgidek sufiyning ichki dunyosiga asosiy e'tiborni qaratib edilar. Ularning *ahvol*, *maqom*lariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta'limotlar kabi sufiylikka «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishga olib boradigan yo'l (*tariq*) sifatida qaradilar. «*Niyyatlar*» haqidagi ta'limot yanada chuqurlashtirildi. Bunda o'zo'zini nazorat (*muroqaba*, *muhosaba*) qilishga erishish uchun ibodatning «ixlos» va «sadoqat» bilan bo'lishiga asosiy urg'u beriladi. Bag'dodlik ilohiyotchi al-Muhosibiy tomonidan shakllantirilgan ta'limotning Xurosonda ham ko'plab tarafdorlari topildi va ular keyinchalik «malomatiylar» nomini oldilar.

Tasavvufda Allohga yetishish (*vasl*) – unga qo'shilib ketish (*baqo*) bilan bo'lishi mumkin, degan fikr ilgari surildi. Bu masala keng omma orasida tushunarli bo'lmaganligi va mazkur g'oya tarafdorlari al-Husayn ibn Mansur al-Halloj (qatli 922 y.), Ibn Ato, Ayn alQudot alHamadoniyy kabi kishilarning qatl etilishi boshqa sufiylarni xushyorlikka chaqirdi.

Tasavvufning manbalardagi talqini quyidagi yo'sinda: bunga ko'ra, ba'zi musulmonlar kalom va mantiq ilmlaridagi turli ko'rinishdagi tortishuvlardan, quruq bahslardan o'z qalblarini saqlab, Alloh taoloning muhabbati yo'lida *zuhd* va *taqvoni* o'zlariga kasb qilib oldilar. Ularga «sufiy» deb nom berildi. Islom dinida birinchi sufiy nomini olganlardan Abu Hoshim ash-Shomiy (v. 776-77 y.), tasavvuf usuliga birinchi marta sharh bergan kishi Imom Molikning shogirdi Zunnun al-Misriy (v. 869-70 y.), minbardan turib birinchi marotaba tasavvufga chaqirgan kishi Abu Bakr ash-Shibliy (v. 945-46 y.), tasavvuf usulini kengaytirib tartibga solgan kishi Junayd al-Bag'dodiy (v. 1007-08 y.) edilar. Ayollardan birinchi sufiy bo'lgan kishi Robi'a al-Adaviyadir (v. 752-53 y.). Umuman olganda, tasavvufning rivojlanish yo'li islom tarixining ajralmas bir bo'lagidir.

Movarounnahrda sufiylik Xuroson orqali kirib keldi. Keyingi davr sufiylarining talqiniga ko'ra, Movarounnahrda sufiylik oqimi aqoid olimi shayx Abu Ya'qub Yusuf al-Hamadoniyy (v. 1140-41 y.) shaxsidan boshlanadi. Unga ko'ra, Yusuf al-Hamadoniyy maktabi ikki tarmoqqa ajratiladi:

Naqshbandiya tariqati. Uning ikkinchi nomi Xo'jagon yo'nalishi bo'lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo'ja Yusuf al-Hamadoniyyning mashhur shogirdi Xo'ja Abdulxoliq al-G'ijduvoniyy (v. 1179 yoki

1220 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo'ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e'tiboran Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan.

Osiyo zaminida eng keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri Naqshbandiyadir. Uning haqiqiy asoschisi Bahouddin Naqshband bo'lib, u Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog'ida dunyoga keldi. Bahouddin Naqshbandni yoshligida *Xojagon* tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo-yi Samosiy ma'naviy farzandlikka qabul qildi. Bir muddatdan keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirdi. Shu bilan birga Bahouddin Naqshbandning haqiqiy shayxi – *uvaysiya* yo'lida tarbiyalagan Abdulxoliq G'ijduvoniylar hisoblanadi. Ma'lum muddat Samarqandda yashab, u yerdagi shayxlarning *suhbat* va *tavajjuh*lariga musharraf bo'ldi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi Yasaviya shayxlarining huzurida ko'p yillar qolib, ulardan ilmu fayz olishga muyassar bo'ldi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o'tkazdi. Islom olamida juda katta obro'-e'tiboriga ega bo'lgan Naqshbandning hayoti *manoqib*larga to'la bo'lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko'plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo'iz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma'lumot beradi. Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib yetadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba'zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va shunga ko'ra o'sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma'lum bo'ladi. Chunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiya qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G'ijduvoniya qadar *tayfuriya*, G'ijduvoniya Bahouddin Naqshbandga qadar *xo'jagoniya*, Naqshbanddan Xo'ja Ubaydulloh Ahrorga qadar *Naqshbandiya*, Xo'ja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiya qadar *Naqshbandiya-ahroriya*, «Mujaddidi alfi soni» nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiya Shamsiddin Mazharga qadar *Naqshbandiya-mujaddidiya*, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag'dodiyga qadar *Naqshbandiya-mazhariya*, Xolidiy Bag'dodiydan keyin esa *Naqshbandiya-xolidiya* deya tilga olingan.

Naqshbandiya ahli sunna e'tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo'lib, *xafiy zikr*ga asoslangan. Zohiran ko'zga tashlanadigan xatti-harakatlardan yiroq suhbat va robitaga kuchli e'tibor beradi. Ko'pchilik bilan qilinadigan naqshbandiy zikrga «Xatmi xo'jagon» deyiladi. Bu zikrda tariqatga kirmaganlar qatnashishlari ta'qiqlanadi. Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvish ushbu shartlarga amal qilishi shart: doimo tavbada bo'lish, sunnatga qat'iy amal qilish, bid'atlardan qochish, hayotiy qulayliklardan voz kechib, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzdor bo'lmaslik, birovni norozi qilmaslik, qazo namozlarini ado etish, Allohni har lahzada zikr qilish.

Naqshbandiya tariqati quyidagi to'rt tamoyil asosiga qurilgan: 1) shariat bilan *zohirni* poklash; 2) tariqat bilan *botinni* poklash; 3) haqiqat bilan *qurbi ilohiy*ga erishmoq; 4) *ma'rifat* bilan Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o'n bir asos-tamoyil ham borki, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish unga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq al-G'ijduvoniylashlab chiqqan bu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. **Xush dar dam** (har nafasda hushyor bo'lish) – g'aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash; har nafas olish-chiqarish chog'ida Allohni zikr qilish, agar g'aflatga tushsa, istig'for aytish;

2. **Nazar bar qadam** (qadamga nazar solish) – solik qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi lozim, toki qalb ko'zi va nazari bo'lmag'ur manzaralarga qarashdan xalos bo'lsin. Shunda ma'naviy safarda ro'para keladigan tahlikalar tezda oshib o'tiladi. U tamoyil kamtar bo'lish va mavjud holatga shukur qilishni o'zida mujassam etadi;

3. **Safar dar vatan** (vatanda, o'z yerida turib safar qilish) – solikning yomon ahloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo'nalishi. Darvish bir murshidi komil topgunga qadar jismonan sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiylar fikricha, sayru suluk chog'ida solikni umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o'tishni o'zida mujassam etadi;

4. **Xilvat dar anjuman** (jamoat ichida turib yakkalanish) – zohirda xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish. Solik moddiy borlig'i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini bir lahza bo'lsa-da, esdan chiqarmasligidir. Bu hol doimiy zikr ma'nosini ham bildirib, zikrda erishiladigan eng oxirgi bosqich – maqomdir. Bahouddin Naqshband Naqshbandiyaning tamalini «xilvat dar anjuman» tashkil etishini ta'kidlagan. «Xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bor» deya Naqshbandiyada xilvatga ko'p rag'bat ko'rsatilmaydi. Shu bois bu tariqatda suhbat va xalq bilan aralashib, ularning dardlariga sherik bo'lib, Haq roziligi yo'lida xalqqa xizmat qilish muhim o'rin tutadi. Naqshbandiyada Qur'ondagi «Shunday kishilar bordirlarki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Ollohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas» (Nur; 24-37) oyati ushbu holga ishora qiladi deb ta'kidlanadi;

5. **Yodkard** (eslash, zikr etish) – Allohni yod etib, boshqa narsalardan ko'ngilni uzish. Naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o'zini *huzur* ichra shayxining ko'ngli ro'parasida tasavvur qilib, ko'zi – og'zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xoksorlik bilan qalban «kalimai tavhid»ni zikr qiladi. Bir nafas olib – chiqarishda uch daf'a zikr etishga urinadi va hokazo.

Naqshbandiya tariqatining eng mashhur shahobchalari: *ahroriya*, *mazhariya*, *mujaddidiya* va *xolidiya*. Mujaddidiyaning asoschisi Ahmad as-Sirhindiy Ibn Arabiyning *vahdat al-vujud* falsafasini tanqid qilib, *vahdati ash-shuhud*ni yoqlab chiqqan. Sunniylik aqidasiiga zid kelmaydigan tasavvufiy tushunchaga ega bo'lgan

Imom Rabboniyning eng mashhur asari «Maktubot» turkchaga ilk bor Mustaqimzoda Sulaymon Sa'diddin tomonidan o'girilgan va Istambulda nashr etilgan.

Yasaviya tariqati. Shayx Ahmad Yasaviy (v. 1166-67 y.) va uning shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yasaviy sufiylik tariqatining targ'ibotchisi bo'lish bilan birga shoir ham edi. Yasaviy g'oyalari bir necha marotaba turli tahrirda nashr etilgan «Devoni hikmat»da jamlangan. Ammo, tadqiqotchilar orasida uning Yasaviyga taalluqliligi ilmiy muammo sifatida bahs etilayapti. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki *zuhd* va *taqvoni* ixtiyor etib, umrini toat-ibodatda hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi asl sufiydir. Uning «hikmatlar»i xalq orasida keng tarqalgan.

By tariqat asoschisi Xoja Ahmad Yasaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati, Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yasida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu yerda u Arslonbob ismli mashhur shayxning xayrli duosiga erishgan. Oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda sufiyona hikmatlari, she'rlari bilan atrofdagi odamlarni xaq yo'lga chaqiradi, ularning ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. She'r-hikmatlari «Devoni xikmat» nomi ostida kitob holiga keltirilgan. Ahmad Yasaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yasaviy *riyozat*, *chilla*, *zikr* va *mujohadaga* kuchli ahamiyat berib, hayotining aksari qismini *chillaxonada* o'tkazdi. Uning hayoti va karomatlari haqida ko'plab manoqiblar saqlanib qolgan.

Yasaviy tariqatida *jahriy zikr* ijro etiladi. Zikr chog'ida darvishning tomog'idan arraning tovushi kabi ovoz chiqqani uchun Yasaviya zikriga «*zikri arra*», «*zikri minshoriy*» deyiladi. Bu zikr quyidagicha ijro etiladi: darvish ikki qo'lini tizzasi ustiga qo'yib, nafasini qorniga chiqarib «*ha*» deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel, yelka qimirlamagan holda «Hayy» deydi va zikr shu tarzda davom etadi. Zikrning 12 zarb turi ma'lumdir. Yasaviylikda *xilvatga* ham katta ahamiyat beriladi.

Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: Allohni tanish (*ma'rifatulloh*), mutlaq jo'mardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (*tavakkul*) va teran tafakkur.

Yasaviya tariqati, asosan, sunniy e'tiqodiga amal qilish bilan birga Xuroson *malomatiya* maktabidan biroz ta'sirlangani sababli, terma madaniyat asosiga ega. Uning xususiyatlari keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan. Hatto *Naqshbandiyani* Yasaviyaning bir shahobchasi deb biluvchilar ham bor. Ahmad Yasaviyning eng mashhur xalifalaridan Sulaymon Hakim ota Boqirg'oniy (v. 1186 y.), Sufiy Muhammad Donishmand az-Zarnuqi va boshqalar ma'lum.

Kubraviya tariqati. Bu tariqatning asoschisi – shayx Najmiddin Kubro al-Xivaqiy (v. 1221 y.) bo'lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biridir. Xivada tug'ilgan. Yoshligida diniy ilmlarni egallagan. Ayniqsa, hadis ilmida tengi yo'q edi. Turli o'lkalarni kezzagan. Misrda shayx Ruzbihon al-Misriy bilan tanishib, unga murid

bo'lgan. Qattiq riyoatlar natijasida murshidining tavajjuhiga erishib, uning qiziga uylangan. Bundan keyin u Ammor Yosirga murid bo'lgan, uning tavsiyasi bilan esa Ismoil Kasriy dargohiga kirgan va u yerdan «*xirqai tabarruk*» kiygan. Yana Misrga – shayxining yoniga – qaytgan Kubro, shayxi tomonidan o'z vatani Xorazmga *irshod* vazifasi bilan jo'natiladi. Kubro Xorazmga ko'chib borib, kubraviya-zahabiya tariqatiga asos solgan. Qisqa vaqt ichida atrofdagilarning muhabbatini qozondi, shogirdlar tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Chunonchi, Fariddin Attorning ustoz – shayx Najmuddin al-Bag'dodiy bilan «Mirsod al-ibod» asari muallifi mashhur Najmuddin Doya Kubro shogirdlari jumlasidandir. Najmiddin Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.

Yozgan asarlari orasida eng mashhuri «Usuli ashara» risolasi bo'lib, bu asar barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ismoil Xaqiy Bursaviy tomonidan sharh etilgan. «Favoihul jamol» asari esa tasavvuf ruhshunosligi (psixologiyasi) mavzusidadir. Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta'sir qilgan. Chunonchi, bu tariqat naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Kubraviya ko'proq O'rta Osiyo, Rossiya va Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubraviyaning o'ziga xos jihatlari chordona qurib, jahriy zikr qilish. Uning tariqat silsilasi Ali ibn Abi Tolibga borib ulanadi. Tariqat asoslari «Usuli ashara» asarida tavsif etilgan. Kubraviyaning mashhur shahobchalari quyidagilar: baho'iya xilvatiya, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, nurbaxshiya, barzanjiya.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Islomdan avval zohidlik qanday shaklda bo'lgan?
2. Tasavvuf qaysi davrda shakllandi?
3. Klassik sufizmning ilk namoyondalari kimlar?
4. Sufizm qachon mustaqil oqim sifatida shakllandi?
5. Tasavvufning asosiy ta'limoti nimalardan iborat?
6. O'rta Osiyoda tarqalgan tasavvuf tariqatlari qaysilar?

Adabiyotlar:

1. Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi. T., 1991.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T.: Istiqlol, 1999.
3. G'azzoliy, Muhammad Abu Xomid. Ihyo-ul-ulum / Arabchadan Alouddin Mansur tarj. // Kamalak. Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. -T.: Yosh gvardiya, 1990.
4. Babadjanov B.M. Politicheskaya deyatel'nost' shayxov Nakshbandiya v Maverannaxre (1 pol. XVI v.). Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. T., 1996.
5. Bertel's Ye.E. Sufizm i sufiyskaya literatura // Izbrannyye trudy: V T. III. M., 1965.
6. Islam: istoriograficheskie ocherki. Moskva: Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi. 1991. 109-207.

7. Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Entsiklopedicheskiy slovarь. Выр. 1-3. М., 1998-2001.
8. Islam: entsiklopedicheskiy slovarь. М., 1991.

Trimingem Dj. S. Sufiyskie ordeny v islame. М., 1989

Atamalar

- ABORIGEN – biror joyning tub aholisi.
- ABXIDXARMAPITAKA buddizmning muqaddas kitobi Tripitakaning falsafa va psixologiyaga oid qismi.
- AVESTO (qad. eron-pahlaviy. «oʻrnatilgan, qatʼiy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.
- ALTARЬ (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar oʻrnatilgan eng baland qismi.
- AL-HAJAR AL-ASVAD (arab. «qora tosh») Kaʼbaning janubiy-sharqiy burchagida yerdan 1, 5 m. balandlikda oʻrnatilgan muqaddas tosh.
- ANSORLAR – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Paygʻambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.
- ARAFOT – (arab. «tanimoq, bilmoq» feʼlidan) Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga koʻra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni «Arafot» - «Tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurbon hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofidagi maydonda turishlari farz. Shu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.
- ATARXURRA (Ozarxurra) - zardushtiylikning muqaddas olovi.
- AXRIMAN zardushtiylikdagi yovuzlik ilohiyati.
- AXURA-MAZDA zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohiyati.

AQIDA - lugʻatda bir narsani haq deb bilib, unga astoydil ishonib, uning taqozasiga koʻra amal qilmoqlikdir. Masalan, oʻlimning haqligiga va oʻlgandan soʻng tirilishning haqligiga ishonish kabi masalalardek.

AQIQA - tugʻilgan bolaning nomidan ettinchi kunda jonliq soʻyiladi va oʻsha kuni sochi olinib, ism qoʻyiladi. (Imom Ahmad, An-Nasoʻiy va Ibn Mojjja rivoyatlari)

- BIBLIYA (qad. yunon. «kitoblar») xristianlikning muqaddas kitobi.
- BRAXMAN Hindistondagi oliy kasta (tabaqa) vakili. Braxmanlik va hinduizmdagi din arbobi.
- BUDDA (sansk. «murlangan, oliy haqiqatga erishgan») buddizm asoschisi Siddxartxa Gautamaga berilgan nom.
- VARNA – (sansk. «sifat, rang») qadimiy hind jamiyatidagi diniy-sinfy kasta.
- VASANIYA (arab. «vasan» – «yogʻ ochdan ishlangan but») butparastlik.
- VAHY ilohiyat bilan insonlarning paygʻambarlar orqali muloqot yoʻli.
- VEDA (sansk. «bashorat») Qadimiy Hindistonning shimolida yashagan xalqlarning muqaddas kitobi.
- VIJDON ERKINLIGI diniy eʼtiqod erkinligi.
- VINAYA-PITAKA Tripitakaning rahboniylik odobi va xonaqoh nizomiga bagʻishlangan qismi.
- VISHTASPA zardushtiylikni qabul qilib, uni tarqalishida Zardushtga yaqindan yordam bergan Baqtriya podshosi.
- "GALAXA yahudiylikdagi diniy, oilaviy va fuqarolik qonunlari majmui.

- DAO daosizm dinidagi oliy ilohiyat.
- DA`VAT (arab. «chaqirish») dinga targ'ib qilish.
- DIAKON xristianlikdagi eng quyi tabaqa ruhoniysi.
- DINIY JAMOA diniy tashkilotning boshlang'ich shakli bo'lib, diniy marosimlar va boshqa diniy faoliyatlar uchun unga birlashganlar.
- DINIY IDORA diniy tashkilot markazi.
- DINIY TASHKILOT diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.
- YEPISKOP (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») ko'p xristian cherkovlarida – oliy ierarx. Barcha arxiereylarning (patriarx, mitropolit, arxiepiskop) umumlashgan nomi.
- YESSEYLAR qadimiy yahudiylikdagi oqim.
- JOHILIYA (arab. «yagona Allohni tanimaslik») Arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan.
- ZAIF (arab. «kuchsiz, kasal») ishonchli ekanligiga shubha bo'lgan hadis.
- ZAKOT (arab. «tozalanish, poklanish») islomning besh ruknlaridan biri. Mol-mulk *nisobiga* (muayyan miqdorga) yetgach, uning qirqdan birini kambag'allar foydasiga sadaqa sifatida beriladi.
- ZARDUSHT mil. av. VI-V asrlarda yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoir, payg'ambar. Zardushtiylik dinining asoschisi.
- ZINO – o'zaro nikohda bo'lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqasi. Zino aksariyat dinlarda katta gunohlardan sanaladi.
- ZOOANTROPOMORFIZM – (qad. yunon. «*zoo*» – hayvon, «*antropo*» – inson, «*morf*» – shakl) diniy va mifologik obrazlarni hayvon shaklida, insonga xos xususiyatlarga ega deb tasvirlash.
- ZOOMORFIK – hayvon qiyofasidagi.
- IBTIDOIY FAYLASUF evolyutsion pozitivistlarning chiqargan xulosasiga ko'ra, borliq va koinot haqida fikrlar yuritib, dinning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan ibtidoiy odam.
- IJTIHOD islomda yangi paydo bo'lgan diniy muammolarni hal qilishning o'ziga xos usuli.
- IKONA xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo'lib xizmat qiladi.
- INDULGENTSIYA katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin bo'lgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvohnoma. U pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.
- ISNOD (arab. «suyanish») hadisni rivoyat qilgan roviy ismlarining ketma-ket zanjiri.
- ISROIL (ivrit. «isro» – «banda», «iyl» – «xudo») Ya'qub payg'ambarning ikkinchi nomi, yahudiylar unga nisbat berilib, «Isroil bolalari» deb ataladi.
- IISUS NAVIN – Qadimiy Ahd rivoyatlariga ko'ra, Musoning yordamchisi va noibi, Isroil qabilalari uchun Kan'onni (Falastinni) bosib olgan sarkarda.
- YOM-KIPUR yahudiylik dinida nishonlanadigan gunohlardan poklanish bayrami.
- KARMA (sanskrit. «harakat, burch, faoliyat») hindlarning diniy ta'limotlarida alohida mistik kuch, insonni qayta dunyoga kelishiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadigan amallar to'plami.
- KAROMAT – (arab. «ulug'lik, buyuklik») islom ta'limotiga ko'ra, Alloh tomonidan uning do'stlari – avliyolarga ato etiladigan sehdan farqli g'ayrioddiy qudrat.
- KASTA (portugal. «irq, qavm, tabaqa») muayyan kasb bilan shug'ullanadigan, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, tartib-qoidalari va h.k. bilan o'zgalardan ajratilgan ijtimoiy guruh.
- KA`BA (arab. «kub») Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasi hisoblanmish bino. Islom ta'limotiga binoan, uni buyuk to'fondan so'ng Ibrohim payg'ambar o'g'li Ismoil bilan qayta tiklagan.
- KONFESSIYA (lot. «e'tirof, e'tiqod») din, diniy e'tiqod.
- KONFUTSIY Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi.
- KOSMOGONIYA – astronomiyaning osmon jismlari, ularning paydo bo'lishi va o'zgarishlari haqidagi bo'limi. Bu yerda osmon jismlarini ilohiylashtirish.
- KRISHNA hinduizmdagi e'tiborli xudolardan biri.

- LINGA – (qad. Hind. «tavsifnoma, jins belgisi») qadimiy hind mifologiyasida ilohiy yaratuvchilikning ramzi.
- MAGIYA (qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehrgarlik.
- MAZHAB (arab. «yo’l») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo’nalishi.
- MATRIARXAT – onalik davriga oid, jamiyatda ayolning roli ustun bo’lgan davr.
- MAXAYANA (sanskrit. «katta arava») buddizmdagi oqim.
- MEDITATSIYA (lot. «fikrlash, o’ylash») shaxsning ruhiy faollikka chuqur berilish holati.
- MIRMADAN – Qadimgi Yunoniston xalqlaridan biri.
- MISTITSIZM (qad. yunon. «yashirin, sirli») ilohiyot olami bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta’limot.
- MITRA zardushtiylikdagi quyosh xudosi.
- MITROPOLIT (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniyluk unvoni.
- MIF (qad. yunon. «hikoyat, rivoyat») biror xalq orasida mashhur bo’lgan hikoyat, rivoyat, asotir.
- MODERNIZM dinni hozirgi zamon voqeligiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.
- MONOTEIZM (qad. yunon. «mono» – «yagona», «teo» – «ilohiyat») yakkaxudolik.
- MUJTAHID ijtimoh qilish darajasiga yetgan faqih olim.
- MURID (arab. «xohlovchi») sufizm yo’liga kirib, murshidga qo’l bergan shogird.
- MURSHID (arab. «to’g’ri yo’lga boshlovchi») sufizm yo’liga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.
- MUSULMON (arab-fors. «muslimlar») islom diniga e’tiqod qiluvchi kishi.
- MUSHAF (arab. «sahifalangan») Qur’oni karimning nomlaridan biri.
- MUTAASSIBLIK o’z g’oyasini «to’g’ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg’unchilikda ayblash.
- MUSHRIK ko’pxudolikda ayblangan odam.
- MUQADDAS RUH xristianlikdagi Xudoning uch ko’rinishidan biri.
- MUHADDIS (arab. «hadis so’zlovchi») hadislar bilan shug’ullanuvchi olim.
- MUHOJIRLAR – (arab. «muhojir, emigrant») ilk islom tarixida Payg’ambar bilan Madinaga hijrat qilgan makkalik musulmonlar.
- NIRVANA (sanskrit. «so’lish») buddizm va jaynizm diniy falsafalariga ko’ra, ruhning sansara kishanlaridan to’la ozod bo’lishi va oliy maqomga erishish.
- NOM - mil. av. IV asrlarda Qadimgi Misrda qabilalar *nom* deb atalgan.
- OXIRAT – (arab. «boshqa, oxirgi, ikkinchi») bu dunyo oxiriga yetganidan keyin barcha qayta tirilib, bu dunyoda qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.
- OYAT (arab. «belgi; mo’jiza») Qur’on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlar».
- PERGAMENT qog’oz kashf etilguniga qadar yozuv materiali sifatida ishlatilgan teri.
- PANISLOMIZM XIX asrning oxirlarida O’rta Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g’oyasini ko’tarib chiqqan siyosiy oqim.
- PAPA – katolik oqimining bosh ruhoniysi.
- PASXA xochga mixlangan Iso Masihning qayta tirilishi xotirasiga bag’ishlab o’tkazildigan xristianlikdagi yirik bayram.
- PATRIARX (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») ortodoks cherkovdagi (pravoslavie) oliy diniy martaba bo’lib, undagi 14 ta avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.
- PESAX yahudiylarning Qadimgi Misrdan qochib chiqib, ozod bo’lishi munosabati bilan nishonlanadigan bayram.
- PIR murshid.
- POZITIVIZM filosofiyada XIX asrning 30-yillarida vujudga kelgan, pozitiv (aniq) fanlarni birdan-bir haqiqiy bilimlardir deb e’tirof etgan oqim.
- POLITEIZM (qad. yunon. «poli» – «ko’p», «teo» – «xudo») ko’pxudolilik.
- PORA (JUZ’) (fors. «pora», arab. «juz’» - «qism, bo’lim») Qur’onning o’ttizdan bir qismi.

- POST xristian dinidagi ro'za. Post kunlari xristianlarga faqat o'simlik maxsulotlarini yeyish ruxsat etiladi.
- RAVVIN yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasi diniy va oilaviy masalalarda hakamlik qiladi.
- RISOLAT payg'ambarlik.
- ROVIY (arab. «rivoyatchi») hadis rivoyat qiluvchi kishi.
- ROSH-HASHONA yahudiylikdagi yangi yil bayrami.
- SADUQIYLAR qadimiy yahudiylikdagi oqim.
- SAFO – Makka shahrida, Ka'ba yaqinidagi tepalik. Haj va umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida yetti bor yugurishlari lozim.
- SAHIH (arab. «sog'lom; to'g'ri») olimlar tarafidan ishonchli, to'g'ri deb topilgan hadis.
- SAHOBА – Payg'ambar bilan hamsuhbat bo'lgan ilk musulmonlar.
- SIDDXARTXA Buddaning shaxsiy ismi.
- SINAGOGA yahudiylar ibodatxonasi.
- SINION - Quddus yaqinidagi tepalik.
- SIONIZM yahudiylikdagi diniy-siyosiy oqim.
- SUNNAT islomda Payg'ambar amallari.
- SURA (arab. «devor, to'siq») Qur'onni tashkil etuvchi qismlar. Qur'on jamlanish davrida ularning umumiy soni 114 ta deb belgilangan.
- SUTRA – (sanskrit. «ip») Qadimgi Hindiston diniy-falsafiy ta'limotlarini lo'nda iboralar shaklidagi qisqa bayoni. Diniy-falsafiy adabiyot turi.
- SUTTA-PITAKA Tripitakaning din mazmuniga bag'ishlangan qismi.
- SUFIY islomdagi mistik-asketik oqim vakili.
- TABU – totemistik tasavvurlar mavjud bo'lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko'ra, tabuni buzgan odam ruhlar va xudolar tomonidan unga og'ir kasallik yoki o'lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma'lum bir buyumga tegmaslik, ma'lum so'zni aytmalik, ma'lum hayvonlarning go'shtini yemaslik kabilardan iborat bo'lishi mumkin.
- TAVAKKUL tasavvuf ta'limotiga ko'ra, o'z irodasini Allohga ishonib topshirish.
- TAVHID Olloh subhana va taolo: Inson va jin toifasini faqat o'zimgagina ibodat qilishlik uchun yaratdim deb, bu oyatda inson bilan jinning asli yaratilishidan bo'lgan maqsadni bayon qilyapti. Demak, inson bilan jinning yaratilishidan asl maqsad ibodat! Ibodat - bu tavhiddir. Chunki o'tgan payg'ambarlar bilan ummatlar o'rtasidagi kelishmovchilik
- TALMUD (ivrit. «lameyd» «o'rganish» so'zidan) Tavrotga yozilgan sharhlar to'plami.
- TAFSIR (arab. «bayon qilish») Qur'on oyatlariga o'ziga xos ravishda ma'no berish.
- TERRORIZM (fr. – «qo'rqitish») o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lda suiqasd, qo'poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.
- TIPITAKA Tripitaka so'zining o'zgargan shakli.
- TOBI'UN (arab. «ergashuvchilar») Payg'ambar sahobalarini ko'rgan va ularga ergashgan kishilar.
- TORA (arab. «Tavrot») Muso payg'ambarga nozil bo'lgan kitob.
- TOTEM (Shimoliy Amerikadagi Ojibva qabilasining tilida - «uning urug'i») totemizm muqaddas sanaladigan o'simlik va hayvon.
- TRADITSIONALIZM an'anachilik. Dindagi ratsionalizmga qarshi o'laroq, naql (taqlid) printsiplarga asoslanuvchi oqim.
- TRIPITAKA (sanskrit. «uch savat») buddizmning muqaddas kitobi.
- FARZIYLAR qadimiy yahudiylikdagi oqim.
- FARISHTA nurdan yaratilgan nafs va xohishga ega bo'lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og'ishmay bajaradigan, insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan maxluq.
- FANATIZM mutaassiblik.

- FATVO faqihning dinda paydo bo'lgan yangi muammolarni Qur'onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan hukmi.
- FATH (arab. «ochish») biror shahar yoki mamlakatga harbiy yo'l bilan islomni olib kirish.
- FAQIH fiqh ilmining bilimdoni.
- FETISH (fr. «but, sanam, tumor») tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inish.
- FIR`AVN – ilohiyat darajasiga ko'tarilgan qadimgi Misr podshohlari tituli.
- FIQH (arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.
- FUNDAMENTALIZM ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish ta'limoti.
- XINAYANA (sanskrit. «kichik arava») buddizmdagi oqim.
- XONAQOH 1) sufiylar jamlanib zikru samo bilan mashg'ul bo'ladigan maxsus bino; 2) masjidning mehrob va minbar o'rnatilgan qismi.
- XOCH krest, chormix.
- SHAMAN (tungus. «sehrgar») ruhlar olami bilan muloqot qiluvchi ruhoni.
- SHOYIXET - yahudiylkdagi ruhoniylkning boshlang'ich darajalaridan biri bo'lib, uni egallagan kishi qurbonlik yoki kundalik iste'mol uchun atalgan hayvonni so'yish huquqiga ega bo'ladi.
- SHOM - Suriyaning qadimiy nomi.
- SHOPUR 243-273 yillarda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi hukmdori, Avestoning bizgacha yetib kelgan nusxasini tartibga solingan.
- EVOLYuTSIONIZM – dinshunoslikda din ham dunyoning shakllanishi kabi bosqichma-bosqich soddadan murakkabga qarab rivojlangan, degan g'oyani ilgari suruvchi ta'limot.
- EKSTREMIZM o'z maqsadi yo'lida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik.
- ERAN-VEJ Avestoda zikr qilingan Zardushtning vatani.
- ESXATOLOGIYA – dunyoning oxiri, narigi dunyo, jannat, do'zax haqidagi tasavvurlar majmui.
- E'TIQOD dunyoqarash. Biror dinga e'tiqod qilish uni haq deb bilib, uning ta'limotini tan olish.
- YASNA Avestodan bizgacha yetib kelgan to'rt kitobning ikkinchisi.
- YASRIB - Madina shahrining hijratdan avvalgi nomi.
- YASHT Avestoning 1-qismi.
- YaHVE yahudiylk ta'limotiga ko'ra, dunyolarni yaratuvchi yagona qudratli Xudo.
- YaHUDO Ya'qub payg'ambarning farzandlaridan biri. Uning avlodlari «yahudiylar» deb ataladi.
- QIYOMAT (arab. «tik turish») bu dunyoning oxiri.
- QIROAT (arab. «o'qish») Qur'onni o'ziga xos qoidalariga muvofiq tilovat qilish.
- QORATOSH – qarang: al-Hajar al-asvad.
- QUR'ON (suryoniy «kerain» - «muqaddas yozuv») islom dinining muqaddas kitobi.
- HADIS (arab. «yangi; so'z») Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.
- HANIFLIK islomdan avval Arabiston yarim orolida mavjud bo'lgan yakkaxudolik g'oyasi.

HOSHIMIYLAR - Makkada yashagan Quraysh qabilasidan bo'lgan Hoshim ibn Abdumanofning avlodlari.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003.

2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekistonning yangi qonunlari, T. 19. T.: Adolat, 1998, 224-234-betlar.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1992.
6. Karimov I.A. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 1998, 5 may.
7. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., “O'zbekiston” 2008.
8. A'zamjon Paxmonov, Abdumuxtor Raxmonov. Islom huquqi. Darslik. T., “TDYUI” 2007.
9. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimai. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.
10. «Avesto» kitobi – tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T., 2000.
11. Abdusamedov A.I. Dinshunoslik asoslari. T.: O'zbekiston, 1995.
12. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. T.: Sharq bayozi, 1993. - 126 b.
13. Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehul g'ofilin. Dilmurod Qo'shoqov tarjimai. T.: Movarounnahr, 2000.
14. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
15. Azimov A. Islom va hozirgi zamon: ma'ruzalar matni. T.: ToshDSHI, 2000.
16. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.
17. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy / A. Abdullo tarjimai. T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
18. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Sayid Mahmud Taroziy-Alixon to'ra tarjimai. T.: Mehnat, 1991.
19. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. T., 1968.
20. Beruniy, Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. T., 1973.
21. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. II tom. T., 1968.
22. G'azzoliy, Muhammad Abu Xomid. Ihyo-ul-ulum / Arabchadan Alouddin Mansur tarjimai // Kamalak. Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. T.: Yosh gvardiya, 1990.
23. Ziyodov SH. Al-Moturidiy hayoti va merosi. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
24. Zohidov Q., Mahmud M. Islom madaniyati demokratiyaga zid emas // Guliston. 2000. 6-son. B. 38-39.
25. Imom al-Buxoriy. al-Adab al-mufrad. T.: O'zbekiston, 1990.
26. Injil. Stokgol'm: Bibliyani tarjima qilish instituti, 1992.
27. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, № 2 (1992), B. 3-12.
28. Karomatov ?.S. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: FAN, 1993.
29. Karomatov H.S. Arba'in hadis va qirq maqol. T.: FAN. 1994.
30. Qodirov Z. Imom A'zam hayot yo'li va fiqh usullari. T.: Movarounnahr, 1999.
31. Qoriev O. Al-Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
32. Mansur A., Ibrohimov N.I., To'xliiev N., Hasanov A. Ilmu ma'rifat nuri (Saylanma hadislar). T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1998.
33. Mansur A. Imom al-Buxoriy mazhabi // Sharq mash'ali, № 3-4. 1998, B. 22-25.
34. Maxdum, Shayx Ismoil. Toshkentdagi Usmon mushafining tarixi. T., 1995.
35. Mahmudov T. «Avesto» haqida. T., 2000.

36. Mirmahmudov N. Imom ad-Dorimiy // Hidoyat. № 8. 2000. B. 6.
37. Muxtasar (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) / Nashrga tayyorlovchilar: R. Zohid, A. Dehqon. T.: Cho'lpon, 1994.
38. Mo'minov A. Imom-i A'zam Abu Hanifa // Muloqot, № 7-8 (1994), B. 37-40.
39. Mo'minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik, № 9, 1999, B. 40-44.
40. Mo'minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o'qitish va o'rganishning yagona kontseptsiyasi. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
41. Readon B. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. T., 2002.
42. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001.
43. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti (qisqartirilgan nashr). T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002.
44. As-Sa'olibiy, Abu Mansur. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-'asr. T.: FAN, 1976.
45. Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi. T., 1991.
46. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1997.
47. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1998.
48. Uvatov U. Muhaddislar imomi. T.: Ma'naviyat, 1998.
49. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T.: Istiqlol, 1999.
50. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T.: FAN, 1971.
51. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992.
52. Husniddinov Z.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. T.: Movarounnahr, 2000.
53. Husniddinov Z.M. Mustaqillik sharoitida dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash jarayoni. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2000.
54. Eshonjonov B. Imom al-Buxoriy – buyuk faqih // Imom al-Buxoriy saboqlari. № 1, 2000, B. 16-18
55. Komil inson – davr talabi. "Yangi asr avlodi" T., 2004.

Islom dini asoslari va ma'naviyati fanidan nazorat uchun savollar.

1- variant

1. Islomdagi yo'nalishlar va okimlar (referat yozing)
2. Islomda ekologik tarbiya masalalari (10 ta savol tuzing javobi bilan)
3. Quyidagi savolga javob bering:
Hadis nima?
a) Rivoyatlar to'plami, b) Pandoma. v) Ilmiy asar
g) Muhammad paygambarning aytgan so'zlari, uning hayotiy faoliyati ko'rsatmalari haqidagi to'plam.
4. Islomning turmush tarzi va madaniyatdagi o'rni (konspekt qiling)
5. Islom fundamentalizmi (6 ta savol tuzing javobi bilan)
6. Islom dinidagi bayramlar. (referat yozing)
7. Islom ekstremizmi va uning O'zbekistonga tahdidi (10 ta savol tuzing javobi bilan)
8. Hadis ilmida Ismoil al- Buxoriyning roli. (konspekt qiling)
9. Tafsif ilmi- islomning manbasi sifatida. (konspekt qiling)
10. Shariat va fiqh(10 ta savol tuzing javobi bilan).
11. "Al adab al mufrad" asarining tahlili. (konspekt qiling)

2- variant

1. Islom dini paydo bo'lgan ijtimoiy tarixiy muhit (10 ta savol tuzing javobi bilan)
2. Islom tarixida «Xaniflar» harakatining o'rni. (konspekt qiling)
3. Quyidagi savolga javob bering.

Islom ichida shialar, sunniylar, mutalimlar, ismoiylar kabi oqimlar nechanchi asrlarda vujudga kelgan.

- a) VIII asrning ikkinchi yarmida b) VIII asrning birinchi yarmida
- v) VII ikkinchi yarmida g) XI asrning birinchi yarmida, d) IX asrning ikkinchi yarmida.
- 4. Muxammad ibn Abdulloh- islom dini da'vatchisi va davlat arbobi (referat yozing)
- 5. Islom dinidagi ikki yo'nalish: sunniylik va shialik. (10 ta test tuzing kaliti bilan)
- 6. Shariat va fiqh (kartochka tuzing)
- 7. Islom modernizmi (6 ta savol tuzing javobi bilan)
- 8. Islom madaniyatining shakllanishida Markaziy Osiyolik allomalarning o'rnini va roli (referat yozing)
- 9. Forobiy- yuksak ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchisi (konspekt qiling).
- 10. Diniy va milliy qadriyatlarning uyg'unligi (10 ta savol tuzing javobi bilan).
- 11. "Al adab al mufrad" asarining tahlili. (konspekt qiling)

3- variant

- 1. Tasavvuf ta'limoti va uning ijtimoiy mohiyati (6 ta savol tuzing javobi bilan)
- 2. Kubroviya tariqatida vatanparvarlik g'oyalari. (referat yozing)
- 3. Islomning asosiy mazhablari (referat yozing)
- 4. Quyidagi savolga javob bering:
Qur'oni Karim nechta sura va nechta oyatdan iborat?
A) 114 sura 6236 oyatdan iborat
B) 144 sura 6384 oyatdan iborat.
V) 141 sura 6238 oyatdan iborat
G) 136 sura 4366 oyatdan iborat.
- 5. Islom aqidalarini ishlab chiqish va himoya qilishda Abu Mansur al-Motrudiyning xizmatlari. (konspekt qiling)
- 6. Makkah va Madina islom ta'limotida muqaddas shahar ekanligi. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
- 7. Tasavvufning nafs va aql haqidagi ta'limoti (referat yozing)
- 8. Islom traditsionalizmi (6 ta savol tuzing javobi bilan)
- 9. O'zbekistonda mustaqillik davrida faoliyat olib borgan ekstremistik oqimlar haqida (referat yozing).
- 10. Hadislar islomda ikkinchi manba sifatida. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
- 11. "Al adab al mufrad" asarining tahlili. (konspekt qiling)

4- variant

- 1. Islomning turmush tarzi va madaniyatidagi o'rnini. (10 ta savol tuzing javobi bilan).
- 2. Islom dinidagi bayramlar. (referat yozing)
- 3. Qur'onning kitob holida jam qilinishi. (referat yozing)
- 4. Quyidagi so'zlardan qaysi biri fiqh ma'nosini bildiradi?
A) E'tiqod
B) Ishonch
V) Fidoyilik
G) Islom huquqshunosligi.
- 5. Tabiat va jamiyat haqidagi islom diniy tasavvurlari (6 ta savol tuzing javobi bilan)
- 6. Qur'on va hadislarida inson ma'naviyati masalalarining tahlili (konspekt qiling)
- 7. Islomdagi marosimlar, bayramlar, urf-odatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. (konspekt qiling)
- 8. Diniy- siyosiy fundamentalizm va ekstremizm mohiyati, tarixi va bugungi tahdidi. (konspekt qiling)
- 9. Islom shariati asoslari va axloq (konspekt qiling).
- 10. Al-jome' as-sahih asarida ma'naviyat masalalari. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
- 11. "Al adab al mufrad" asarining tahlili. (konspekt qiling)

5- variant.

1. «Vatanni sevmoq- imondandur» hadisining mazmuni
2. Islom dinining yangi davlatchilik mafkurasi sifatida paydo bo'lishi. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
3. Hijraning (622 yil) islom tarixidagi ahamiyati (kartochna tuzing)
4. Qur'onning tuzilishi va uni o'rganuvchi asosiy maktablarning vujudga kelishi. (referat yozish.)
5. Quyidagi savolga javob bering:
Tasavvuf so'zi qanday so'zdan yasalgan?
A) «Sufiy so'zidan»
B) «Savvuf» so'zidan
V) «Tasavvuf» so'zidan
G) «vuf» so'zidan.
6. Tafsif ilmi- islomning manbasi sifatida(konspekt qiling)
7. Kubroviya tariqatida vatanparvarlik g'oyalari. (6 ta savol tuzing javobi bilan)
8. Tasavvufning asosiy masalasi (referat yozing)
9. Shariat va fiqh (10 ta savol tuzing)
10. Islom dinining markaziy osiyoga kirib kelishi va yoyilishi (konspekt qiling)
11. "Al adab al mufrad" asarining tahlili. (konspekt qiling)

6- variant

1. Islom madaniyati va uning asosiy xususiyatlari. (referat yozing)
2. Hadislarni yig'ish va jamlash. (6 ta savol tuzing javobi bilan)
3. Islom ta'limotining keyingi evolyutsiyasi va axloq normalarini ishlab chiqishda hodisalarning o'rni. (referat yozing)
4. Quyidagi savolga javob bering.
Imom al- Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nechanchi yilda nishonlandi.
A) 1993 yi
B) 1998 y)
V) 1995 y
G) 1996 y
5. Islom ma'naviyatining milliy mafkurani shakllantirishdagi o'rni. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
6. O'zbekistonda diniy qadriyatlarning tiklanishi- vijdon erkinligining kafolatidir. (konspekt qiling)
7. Qur'on va hadislarda inson ma'naviyati masalalarining tahlili. (konspekt qiling)
8. Barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari va islom dini (6ta savol tuzing javobi bilan)
9. Islomning turmush tarzi va madaniyatdagi roli (referat yozing).
10. Shariat va fiqh (10 ta savol tuzing javobi bilan).
11. "Al adab al mufrad" asarining tahlili. (konspekt qiling)

7- variant

1. Islomning aqidaviy ta'limoti.(10 ta savol tuzing javobi bilan).
2. Kalom ta'limotining paydo bo'lishi va rivojlanishi. (referat yozing)
3. Islomning asosiy mazxablari. (referat yozish).
4. quyidagi savolga javob bering
«Dil ba yoru dast ba kor» mazmuni nima?
A) «Ollohga iymon keltirish»,b) Ko'ngling ollohda bo'lsinu, qo'ling esa ishda», V) Dilda Olloh, qo'lda mehnat, G) «Ollohga itoat etish».
5. Islom tarixida «xaniflar» harakatining o'rni(konspekt yozing)
6. Islom dini marosimlari. (referat yozing)
7. Hadislar islomda ikkinchi manba sifatida (6ta savol tuzing javobi bilan).
8. Shariat va fikh (10 ta savol tuzing javobi bilan)
9. Islom ekstremizmi va uning O'zbekistonga tahdidi. (referat yozing)

10. Islom fundamentalizmi. (referat yozing)
11. “Al adab al mufrad” asarining tahlili. (konspekt qiling)

8- variant

1. Quyidagi savolga javob bering:
«Islom» so'zi qanday ma'noni anglatadi?
A) «Xudoga o'zini topshirish, imon kelitirish», musulmon
B) «buysunish», xudoga e'tiqod qilish, ilohiy, v) «itoat», «Sodiqlik», «Buysunish».
2. islom shariati g'oyalari va axloq (6 ta savol tuzing javobi bilan birga)
3. tabiat va jamiyat haqidagi islom diniy tasavvurlari. (konspekt qiling)
4. Islomda ekologik tarbiya masalalari.
5. Islomning Markaziy Osiyoga tarqalishi va jahon diniga aylanishi. (referat yozing)
6. Islomdagi yo'nalishlar va oqimlar.
7. Islom ma'naviyatining milliy mafkurani shakllantirishdagi roli. (referat yozing)
8. Islom dinining paydo bo'lishi. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
9. Qur'onning kelib chiqishi (6 ta savol tuzing javobi bilan)
10. Islomning turmush tarzi va madaniyatdagi roli (konspekt qiling)
11. “Al adab al mufrad” asarining tahlili. (konspekt qiling)

9- variant

1. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk suffiylar shaxsining ma'naviy kamolati haqida.
2. Diniy va milliy qadriyatlarning uyg'unligi.
3. Islom madaniyati va uning asosiy xususiyatlari. (referat yozing)
4. Quyidagi savolga javob bering:
Ilohiyotda islom dini nechta elementdan iborat?
A) 4 ta
B) 6 ta
V) 7 ta
G) 2 ta
D) 3 ta
5. Hadis ilmidan Ismoil al-Buxoriyning roli. (10 ta savol tuzing javobi bilan)
6. Islom ta'limotining keyingi evolyutsiyasi va axloq normalari ishlab chiqishda hadislarining roli.
(konspekt qiling)
7. Tasavvuf ta'limoti va uning ijtimoiy mohiyati (referat yozing)
8. Shariat va fiqh (10 ta savol tuzing javobi bilan)
9. Tasavvufning nafs va aql haqidagi ta'limoti (konspekt qiling).
10. Tafsif ilmi- islomning manbasi sifatida (6 ta savol tuzing javobi bilan).
11. “Al adab al mufrad” asarining tahlili. (konspekt qiling)

10- variant

1. O'zbekistonda mustaqillik davrida faoliyat olib borgan diniy ekstremistik oqimlarining faoliyati.
(referat yozing)
2. Forobiy- yuksak ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchisi (konspekt qiling)
3. Hadislarni yig'ish va jamlash. (kartochka tuzing)
4. Islomning aqidaviy ta'limoti. (10 ta savol tuzing javobi bilan).
5. Quyidagi savollarga javob bering:
Tasavvuf ta'minoti nechanchi asrda paydo bo'lgan?
A) VIII asrning o'rtalarida
B) XII asr boshlarida
V) VI asr o'rtalarida
G) VII asr boshlarida.
6. Islom dinining paydo bo'lishdagi ma'naviy- g'oyaviy muhit. (6 ta savol tuzing javobi bilan).

7. Quyidagi savolga javob bering:
«Shariat» so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatdi?
8. Islom madaniyati va uning asosiy xususiyatlari. (referat yozing).
9. Kubroviya tariqatidagi vataparvarlik g'oyalari (10 ta savol uzing javobi bilan)
10. Shariyat va fiqh (6 ta savol tuzing javobi bilan)
11. "Al adab al mufrad" asarininng tahlili. (konspekt qiling)

Mundarija

Kirish	3
1. Mavzu: Islom dinining jahondagi o'rnini.....	4
2 –. Mavzu: Islom dinining vujudga kelishi.....	9
3-mavzu: Islom dinining Movarounnahrda kirib kelishi.....	18
4-mavzu: Dunyoviy davlatning dinga munosabati.....	26
5-mavzu: Islom shariati manbalari.....	33
6 – mavzu. Islom dinidagi mazhab va oqimlar.....	46
7- Mavzu: Markaziy Osiyo mutaffakkirlarining ma'naviy me'rosi.....	56
8-mavzu: Hadisshunoslik.....	60
9- mavzu. Islom dinida ilm va ilm ahlini ulug'lash madaniyati.....	68
10-mavzu: Musulmonlik haq – huquqlari va vazifalari	73
11-mavzu: Islom dini ta'limoti va tasavvuf.....	79
Atamalar.....	88
Manbalar va adabiyotlar ro'yxati.....	92
Islom dini asoslari va ma'naviyati fanidan nazorat uchun savollar.....	94

